

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH  
INSTITUTI

TASDIQLAYMAN  
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor  
\_\_\_\_\_ Q. Inoyatov  
2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_

“PAYVANDLASHNING ASOSIY USLUBLARI”

FANIDAN

O‘QUV-USLUBIY  
MAJMUASI

Namangan-2024

**Tuzuvchi:** Mansurov M. – “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasи o‘qituvchisi, (PhD).

O‘quv-uslubiy majmua Energetika va mehnat muhofazasi fakultetining “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasи majlisida (2024 yil “\_ \_ \_ -son bayonнома) muhokama qilindi va fakultetning o‘quv-uslibiy kengashiga tavsiya qilindi.

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_ t.f.d. X.Abdulxayev

**Kotib:** \_\_\_\_\_ (PhD) D. Norboyeva

O'quv-uslubiy majmua Energetika va mehnat muhofazasi fakultetining o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqildi (2024 yil “\_\_\_\_\_ - son bayonnomasi) va institutning Ilmiy-uslubiy kengashiga tasdiqlash uchun topshirildi.

Fakultet kengashi raisi (DSc), prof. R.Soliyev

O‘quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti Ilmiy-uslubiy kengashining 2024 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_-sonli qaroriga muvofiq o‘quv jarayoniga tadbiq etish uchun tavsiya etilgan.


## O'QUV-USLUBIY MAJMUA MUNDARIJASI

Nº	Nomi	bet
I.	<b>Fanning o'quv dasturi</b>	
II.	<b>Dastur bo'yicha materiallar</b>	
2.1.	Ma'ruza mashg'ulotlari uchun o'quv-mttodik materiallar	
2.1.1.	Payvandlash uslublari tasnifi	
2.1.2.	Yoysi dastakli payvandlash	
2.1.3.	Flyus ostida payvandlash	
2.1.4.	Himoya gazlar muhitida payvandlash	
2.1.5.	Payvandyoyiningta'minlovchimanbalari	
2.1.6.	Elektr-shlakpayvandlash	
2.1.7.	Elektron-nurli payvandlash	
2.1.8.	Lazerli payvandlash	
2.1.9.	Gaz alangasida ishlovberish	
2.1.10.	Nuqtali va chokli kontaktli payvandlash	
2.1.11.	Kontaktli relyefli va uchma-uch payvandlash	
2.1.12.	Sovuqholatda va diffuzionpayvandlash	
2.1.13.	Ultra tovushyordamida va ishqlabpayvandlash	
2.1.14.	Termo-kompressionva prokatlabpayvandlash	
2.1.15.	Portlatib, yuqorichastotaliva magnit-impulslipayvandlash	
2.1.16.	Eritib qoplash	
2.1.17.	Changlatish	
2.1.18.	Kavsharlash	
2.2.	Amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-mttodik materiallar	
2.2.1.	Transformatorlarni ishlash printsipi va konstruktsiyasini o'rganish	
2.2.2.	Payvand birikmalar va payvand choklarning chizmalarda belgilanishi o'rganish	
2.2.3.	Yoysi dastakli payvandlash rejimini payvand chokning konstruktiv o'lchamlariga ta'sirini o'rganish	
2.2.4.	Payvandlash simlarini rusumlanishini o'rganish	
2.2.5.	Yoysi dastaki payvandlash uchun metall qoplamlari elektrodlar rusumlarini o'rganish	
2.2.6.	Qoplamlari elektdrodlarni texnologik xususiyatlarini aniqlash	
2.2.7.	Yoysi dastaki payvandlash rejimlarini xisoblash	
2.2.8.	Payvand yoyning ta'minlovchi manbalarining belgilanishini o'rganish	
2.2.9.	To'g'rilagichni ishlash printsipi va konstruktsiyasini o'rganish	
2.2.10.	Karbonat angidirid gazlari muhitida payvandlashejimini hisoblash	
2.2.11.	Karbonat angidirid gazlari muhitida payvandlashejimini hisoblash	

2.2.12.	Flyus ostida payvandlash rejimini xisoblash	
2.2.13.	Nuqtali payvandlash mashinalarini tuzilishi o‘rganish	
2.2.14.	Nuqtali kontaktli payvandlash rejimini xisoblash	
2.2.15.	Chokli kontaktli payvandlash rejimini xisoblash	
2.2.16.	Eritib qoplash rejimini xisoblash	
2.2.17.	Elektr-shlak payvandlash rejimini xisoblash	
2.2.18.	Lazerli payvandlash rejimini xisoblash	
2.2.19.	Attsetilen generatorlarini tuzilishi xisoblashni o‘rganish	
2.2.20.	Gaz alangasida payvandlash gorelkalarini tuzilishi va ishlashini o‘rganish	
2.2.21.	Termo-kompression payvandlashni o‘rganish	
2.3.	Tajriba mashg‘ulotlari uchun o‘quv-mttodik materiallar	
2.3.1.	Payvandlanayotgan qirralarning moyli iflosliklar bilan ifloslanganligini kamuglerodli po‘latlarni avtomatik payvandlashdagi ta’sirini tadqiq qilish	
2.3.2.	Payvandlanayotgan qirralarning moyli iflosliklar bilan ifloslanganligini kamuglerodli po‘latlarni avtomatik payvandlashdagi ta’sirini tadqiq qilish	
2.3.3.	Kam uglerodli po‘latlarni avtomatik payvandlashda payvandlanayotgan qirralarda g‘ovaklik xosil bo‘lishiga namlikning ta’siri	
2.3.4.	Payvand birikma metallining xossalariiga himoya xududining ta’siri	
2.3.5.	Payvand yoyining samarali issiqlik quvvati	
2.3.6.	Elektrodlarni qizdirish va eritish	
2.3.7.	Austinitning eng kam chidamlilik temperurasida sovitish tezligiga bog‘liq xolda termik ta’sir xududida bo‘lgan po‘lat 45 ning sturkturasini o‘rganish	
2.3.8.	Termik ta’sir hududidagi po‘latlarning struktura va xossalariiga termik tsikl ta’sirini tadqiq qilish	
<b>III.</b>	<b>Glossariy.</b>	
<b>IV.</b>	<b>Fan bo‘yicha xorijiy adabitotlar (electron shaklda)</b>	
<b>V.</b>	<b>Har bir mavzu uchun taqdimotlar (electron shaklda)</b>	
<b>VI.</b>	<b>Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha videoroliklar (electron shaklda)</b>	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"  
Namangan muhandislik-qurilish  
instituti-rektori  
Sh. Ergashev  
2024-yil

### FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 700000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

Ta'limi sohasi: 720 000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari

Ta'lim yo'nalishi: 60720400 – Texnologik mashinalar va jihozlar  
(mashinasozlik va metallga ishlov berish)

Namangan - 2024

	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o‘qitishdan maqsad</b> - ishlab chiqarish sohalarida qo‘llaniladigan payvanlash, eritib qoplash va kavsharlashning texnologiyasi va jihozlar asoslari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdir.</p> <p><b>Fanning vazifalari</b> - dastakli yoyli payvandlash, flyus ostida payvandlash himoya gazlar muhitida payvandlash, elektr-shlakli payvandlash, elektron nurl payvandlash, nuqtali, relefli va chokli kontaktli payvandlash, metallarni sovu holatda payvandlash, ishqabalab payvandlash, portlatib payvandlash, diffuzion payvandlash, plastmassalarni payvandlash tahlili masalalarini imkoniyatlarin namoyon etish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibi mavzulari:</b> <b>2-semestr.</b></p> <p><b>1-mavzu: Kirish. Payvandlash usullari tasnifi va mohiyati.</b></p> <p>Payvandlash asosiy usullarining tasnifi. Suyuqlantirib payvandlash va bosim ostida payvandlashning mohiyati.</p> <p><b>2-mavzu: Yoyli dastakli payvandlash texnologiyasi.</b></p> <p>Yoyli dastakli payvandlashning fizik asoslari. Yoyli dastakli payvandlashning tasnifi.</p> <p><b>3-mavzu: Yoyli dastakli payvandlash uchun elektrodlar, payvandlashning rejimlari.</b></p> <p>Yoyli dastakli payvandlash uchun elektrodlar va ularning sanoatda qo‘llanilishiga misollar. Yoyli dastakli payvandlashning rejimlari.</p> <p><b>4-mavzu: Himoya gazlari muhitida yoy bilan payvandlash texnologiyasi.</b></p> <p>Himoya gazlarda yoyli payvandlashning fizikaviy asoslari. Himoya gazlarda payvandlash jarayonining tasnifi. Usulning o‘ziga xos kamchiliklari va afzalliklari. Himoya gazlarda eriydigan va erimaydigan elektrodlar bilan payvandlash. Payvandlash rejimlari.</p> <p><b>5-mavzu: Himoya gazlari muhitida yoy bilan payvandlash uchun jihozlar.</b></p> <p>Himoya gazlari muhitida elektr yoyli payvandlash uchun jihozlar. Himoya gazlari muhitida eriydigan elektrodlar bilan payvandlash uchun jihozlar. Himoya gazlari muhitida erimaydigan elektrodlar bilan payvandlash uchun jihozlar.</p> <p><b>6-mavzu: Flyus ostida yoyli payvandlash texnologiyasi.</b></p> <p>Flyus ostida yeyli payvandlashning fizikaviy asoslari. Payvandlashda flyusning o‘rni.</p> <p><b>7-mavzu: Flyus ostida yoyli payvandlashning usullari va rejim parametrlari.</b></p> <p>Flyus ostida yoyli payvandlashning usullari. Flyus ostida yoyli payvandlash usuli rejimning parametrlari.</p> <p><b>8-mavzu: Elektr-shlakli payvandlash.</b></p> <p>Elektr-shlakli payvandlashning mohiyati. Elektr-shlakli payvandlashning qo‘llanish sohalari. Usulning o‘ziga xos kamchiliklari va afzalliklari.</p>
--	---

**9-mavzu: Elektr-shlak payvandlashning texnologiyasi.**

Payvandlash materiallarini tanlash bo'yicha tavsiyalar. Elektr-shlakli payvandlashning texnologiyasi. Elektr-shlakli payvandlash rejimlari. To'g'ri chiziqli choklarni simli elektrodlar bilan bajarish texnikasi. Xalqali choklarni payvandlash texnikasi. Payvand choklarining sifatini nazorat qilish.

**10-mavzu: Elektron-nurli payvandlash.**

Elektron-nurli payvandlashning mohiyati. Elektron-nurli payvandlashning qo'llanish sohalari. Usulning o'ziga xos kamchiliklari va afzalliliklari. Elektron-nurli qurilmalarning tuzilishi va tasnifi.

**11-mavzu: Lazerli payvandlash texnologiyasi.**

Lazerli payvandlash jarayonining mohiyati. Lazerli payvandlash usullarining tasnifi. Texnologik imkoniyatlari. Qattiq jismli lazerlar. Gazli texnologik lazerlar. Lazerli payvandlash uchun jihozlar.

**12-mavzu: Plazmali payvandlash.**

Plazmali payvandlash jarayonining mohiyati. Plazmali payvandlash usullarining tasnifi. Texnologik imkoniyatlari.

**13-mavzu: Plazmali payvandlash uchun jihozlar.**

Plazmali payvandlash uchun jihozlar. Plazma gorelkalari – plazmatronlar. Plazma hosil qiluvchi gazlar (muhitlar).

**14-mavzu: Gaz alangasida ishlov berishning mohiyati va tasnifi.**

Gaz alangasida ishlov berish usullarining tasnifi. Gaz bilan payvandlash. Gaz-press bilan payvandlash. Gaz alangasi va yonish jarayoni.

**15-mavzu: Metallarni gaz-kislородли alangada kesish.**

Kislород bilan kesish. Kislород-flyus bilan kesish. Nayzali kesish. Gaz alangasi va yonish jarayoni.

**3-semestr.****16-mavzu: Kontaktli payvandlash.**

Kontaktli payvandlashning mohiyati. Kontaktli payvandlashning texnologik imkoniyatlari. Kontaktli payvandlash jarayonlarining tasnifi.

**17-mavzu: Nuqtali va chokli kontaktli payvandlash.**

Nuqtali kontaktli payvandlashning mohiyati. Ko'p nuqtali payvandlashning texnologik imkoniyatlari. Nuqtali payvandlash uchun jihozlar. CHokli kontaktli payvandlashning mohiyati. CHokli payvandlashning texnologik imkoniyatlari. CHokli payvandlash uchun jihozlar.

**18-mavzu: Uchma-uch va relefli kontaktli payvandlash.**

Uchma-uch kontaktli payvandlashning mohiyati. Uchma-uch payvandlashning texnologik imkoniyatlari. Uchma-uch payvandlash uchun jihozlar. Relefli kontaktli payvandlashning mohiyati. Relefli payvandlashning texnologik imkoniyatlari. Relefli payvandlash uchun jihozlar.

**19-mavzu: Sovuq holatda va diffuzion payvandlash.**

Metallarni sovuq xolatda payvandlashning fizikaviy asoslari. Sovuq holatda payvandlashning afzalliliklari. Sovuq holatda payvandlash usullari. Diffuzion payvandlash jarayonining mohiyati. Diffuzion payvandlashning fizikaviy asoslari. Usulning o'ziga xos kamchiliklari va afzalliliklari.

**20-mavzu: Ultratovush yordamida va ishqalab payvandlash.**

Ultra tovush yordamida payvandlashning fizikaviy asoslari. Usulning o‘ziga xos kamchiliklari va afzalliliklari. Ishqalab payvandlashning mohiyati. Ishqalab payvandlashning qo‘llanish sohalari. Usulning o‘ziga xos kamchiliklari va afzalliliklari. Ishqalab payvandlash usullarining tasnifi.

### **21-mavzu: Termokompression va prokatlab payvandlash.**

Termokompressiya mohiyati. Termokompression payvandlash usullarining tasnifi. Termokompression payvandlash texnologiyasi. Prokatkalab payvandlashning mohiyati. Plakirlovchi katlam. Prokatkalab payvandlash ishlatilish sohalari. Usulning o‘ziga xos kamchiliklari va afzalliliklari.

### **22-mavzu: Portlatib va magnit impulsli payvandlash.**

Portlatib payvandlash mohiyati. Portlatib payvandlashning fizikaviy asoslari. Usulning o‘ziga xos kamchiliklari va afzalliliklari. Magnit-impulslı payvandlashning mohiyati. Magnit-impulslı payvandlashning qo‘llanish sohalari. Usulning o‘ziga xos kamchiliklari va afzalliliklari. Magnit-impulslı payvandlash usullarining tasnifi.

### **23-mavzu: Yuqori chastotali payvandlash.**

Yuqori chastotali payvandlashning mohiyati. Yuqori chastotali payvandlashning qo‘llanish sohalari. Usulning o‘ziga xos kamchiliklari va afzalliliklari. Yuqori chastotali payvandlash usullarining tasnifi.

### **24-mavzu: Eritib qoplash.**

Eritib qoplash usullarining tasnifi. Eritib qoplashning usullari. Eritib qoplash uchun materiallar. Yoyli eritib qoplash. Elektr-shlakli eritib qoplash. Plazmali eritib qoplash. Lazerli eritib qoplash. Gazli eritib qoplash. Eritib qoplash uchun materiallar.

### **25-mavzu: Eritib qoplash uchun jihozlar.**

Qo‘lda eritib qoplash uchun jihozlar. Mexanizatsiyalashgan eritib qoplash uchun jihozlar. Eritib qoplash usulini tanlash. Material va detallarni tayyorlash. Eritib qoplash texnologiyasi va texnikasi. Detallarga eritib qoplashdan so‘ng termik ishlov berish. Eritib qoplangan metallni sifatini nazorat qilish.

### **26-mavzu: Changlatish usullari va texnologiyasi.**

Gazotermik changlatish usullarining tasnifi. Qoplamlar yotqizish jarayonining fizikaviy asoslari. Qoplamlar yotqizishning gazotermik va vakuum usullarining texnologik imkoniyatlari. Gaz alangasi bilan qoplamlar changlatish.

### **27-mavzu: Plazmali changlatish texnologiyasi va jihozlari.**

Plazma-yoyli usul bilan qoplamlar changlatish. Plazmali changlatish texnologiyasi. Plazmali changlatish uchun jihozlar. Plazmali changlatish rejimlari. Plazmali changlatishning afzalliliklari.

### **28- mavzu: Kavsharlashning nazariy asoslari.**

Metallarni kavsharlashning nazariy asoslari. Kavsharlash jarayonining mohiyati. Kavsharlash va payvandlash jarayonlarda kechadigan o‘xhash tavsiflar.

### **29-mavzu: Kavsharlash jarayonlarining tasnifi.**

Kavsharlash jarayonlarini tasnifi. Induktsion kavsharlash, qarshilik bilan kavsharlash, cho‘ktirib kavsharlash, radiatsion kavsharlash, gorelka bilan

kavsharlash.

### **30-mavzu: Plastmassalarni payvandlashning umumiylumotlari.**

Plastmassalar komponentlari: stabilizatorlar, plastifikatorlar, bo‘yoqlar, to‘ldiruvchilar. Monomerlar. Polimerlarni ishlab chiqish. Polimerizatsiyalash. Polikondensatsiyalash. Plastmassalarni payvandlashning afzalliklari. Plastmassalarni payvandlashning metallarni payvandlashdan farqi. Plastmassalarni payvandlashning gizik asoslari. Isitish manbaalariga qarab plastmassalarni payvandlashning tasnifi. Plastmassalarni kimyoviy payvandlash.

## **III. Amaliy mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

### **2-semestr.**

1. Eritib payvandlashda payvand birikmalar va payvand choklarning chizmalarda belgilanishini o‘rganish.
2. Bosim ostida payvandlashda payvand birikmalar va payvand choklarning chizmalarda belgilanishini o‘rganish.
3. Payvandlash simlarni rusumlashtirishini o‘rganish.
4. Yoyli dastakli payvandlash uchun metall qoplamali elektrodlar rusumlashni o‘rganish.
5. Yoyli dastakli payvandlash rejimlarini hisoblash.
6. Payvand yoyining ta’minlovchi manbalarining belgilanishini o‘rganish.
7. Karbonat angidrid gazlari muhitida payvandlash rejimlarni hisoblash.
8. Transformatorni ishlash printsipi va konstruktsiyasini o‘rganish.
9. Yoyli dastakli payvandlash rejimini payvand chokning konstruktiv o‘lchamlariga ta’sirini o‘rganish.
10. Qoplamali elektrodlarni texnologik xususiyatlarini aniqlash.
11. To‘g‘rilagichni ishlash printsipi va konstruktsiyasini o‘rganish.
12. Flyus ostida payvandlash rejimini hisoblash.
13. Elektr-shlak payvandlash rejimlarini hisoblash.
14. Attsetilen generatorlarini tuzilishini o‘rganish.
15. Gaz alangasida payvandlash gorelkalarini tuzilishi va ishlashini o‘rganish.

### **3-semestr**

16. Nuqtali payvandlash mashinalarini tuzilishi o‘rganish.
17. Chokli kontaktli payvandlash mashinalarini tuzilishini o‘rganish.
18. Uchma-uchli kontaktli payvandlash mashinalarini tuzilishini o‘rganish.
19. Nuqtali kontaktli payvandlash rejimlarni hisoblash.
20. Chokli kontaktli payvandlash rejimlarni hisoblash.
21. Uchma-uchli kontaktli payvandlash rejimlarni hisoblash.
22. Metal yuzalarni qoplashga tayyorlash va qoplamlari elektrodlar bilan eritib qoplash.
23. Kukunsimon qattiq qotishmalarni eritib qoplash.
24. Ko‘mir elektrod bilan eritib qoplash va qattiqlikni aniqlash.

25. Gazotermik va vakuum qoplamlarni yotqizish texnologiyasini o‘rganish.
26. Qoplamlarni yotqizish uchun jihozlar va texnologik osnastkalarni o‘rganish.
27. Detallarni kavsharlashni o‘rganish.
28. Kavsharlash jihozlarini o‘rganish.
29. Plastmassalarni payvandlashni o‘rganish.
30. Polimerlarlarni payvandlashni o‘rganish.

#### **IV. Kurs ishi bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Kurs ishi ijodiy mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, talabalarda payvandlash yoki eritib qoplashni tahlili va nazariyasining nazariy va amaliy masalalarini bajarish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Kurs ishi mavzulari bevosita ishlab chiqarish korxonalari texnologik jarayonlariga bog‘liq holda, aniq bir texnologik jarayon sharoiti uchun belgilanadi. Kurs ishi ijodiy mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, talabalarda buyumni payvandlash yoki eritib qoplash texnologik jarayoni bajarish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Kurs ishining mavzulari umumiy talabalar sonidan 20-30% ko‘proq oldindan tayyorlanadi. Har bir talabaga shaxsiy topshiriq beriladi. Kurs ishi mavzulari muntazam ravishda qayta ko‘rib turiladi va tasdiqlanadi.

*Kurs ishi uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Bakni payvandlash texnologik jarayoni.
2. Balkani payvandlash texnologik jarayoni.
3. Barabanni payvandlash texnologik jarayoni.
4. Gildirakni payvandlash texnologik jarayoni.
5. Gidroammortizatorni payvandlash texnologik jarayoni.
6. Gildirakni payvandlash texnologik jarayoni.
7. Nastilni payvandlash texnologik jarayoni.
8. Rolikni eritib qoplash texnologik jarayoni.
9. Sachratish moslamaning vali nieritib qoplash texnologik jarayoni.
10. Sachratish moslamaning valini eritib qoplash texnologik jarayoni.

#### **V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilgan topshiriqlar:*

##### **2-semestr**

1. Payvandlashning tarixi va rivoji.
2. Payvandlashning respublika xalq xo‘jaligida tutgan o‘rni.
3. Karbonat angidrid muhitida nuqtalar bilan payvandlash jarayonlarini taxlili.
4. Impuls – yoyli payvandlashni sxemalarini tuzish.
5. Himoya gazi muhitida payvandlashning maxsus usullarini tahlili.
6. Yoyli payvandlash bilan uch-uch chok tayyorlash.
7. Yoyli payvandlash bilan ustma-ust chok tayyorlash.
8. Yoyli payvandlash payvandlash rejimini xisoblash.
9. Gaz alangasida ishlov berishda issiqlik jarayonlarini hisoblash.

	<b>3-semestr</b>
	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rangli metallarni kesish texnologiyasining mohiyatini o‘rganish.</li> <li>2. Po‘latllarni kesish texnologiyasining mohiyati o‘rganish.</li> <li>3. Termik kesish mashinalarini turlarini tahlili.</li> <li>4. Yoyli kontaktli payvandlashni o‘rganish.</li> <li>5. Elektron-nurli qurilmani vakuumli tizimi.</li> <li>6. Yoyli dastakli payvandlash uchun elektrodlar tanlash va rejini hisoblash.</li> <li>7. Qoplamlalar yotqizish jarayonini rejimlarini hisoblash.</li> <li>8. Detallarni plazmali kesish qurilmasida kesib tayyorlash.</li> <li>9. Detallarni havo – yoyli kesish qurilmasida kesib tayyorlash.</li> </ol>
3.	<p><b>VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- fan rivojining tarixi va istiqboli, mashinasozlikda payvandlash uslublarining tasnifi haqida <b>tasavvur va bilimga ega bo‘lishi</b>;</li> <li>- payvand chokning tuzilishini, eritib payvandlashning fizik asoslarini, bosim ostida payvandlashning fizik asoslarini, eritib qoplashning tasnifi va mohiyatini, changlatishning tasnifi va mohiyatini, kavsharlashning tasnifi va mohiyatini xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish <b>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi</b>;</li> <li>- payvandlash va eritib qoplash rejimini hisobini bajarish va ularni tahlil qilish <b>malakasiga ega bo‘lishi kerak</b>.</li> </ul>
4.	<p><b>IV. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma’ruzalar;</li> <li>- amaliy ishlarni bajarish va hulosalash;</li> <li>- interfaol keys-stadilar;</li> <li>- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>- guruhlarda ishslash;</li> <li>- taqdimotlarni qilish;</li> <li>- individual loyihalar;</li> <li>- jamoa bo‘lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>V. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dunyashin N.S., Ermatov Z.D. Payvandlashning asosiy uslublari. O‘quv qo‘llanma – Toshkent.: Lesson press, 2021.</li> <li>2. Ermatov Z.D. Eritib payvandlash texnologik mashinalari va jixozlari. O‘quv qo‘llanma – Toshkent.: Fan va texnologiyalar, 2022 – 456 b.</li> <li>3. Edward R. Bohard. Welding: Principles and Practices - American Welding Society - Connect Learn Success, 2021 – 1147 rr.</li> </ol> <p><b>Qo‘srimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>5. Qidirov A.R. “Payvandlash asosiy uslublari” fanidan ma’ruza matni – Namangan.: NamMQI, 2023 – 220 b.</li> </ol>

	<p>6. Dunyashin N.S., Ermatov Z.D. Suyuqlantirib payvandlash tehnologiyasi va jihozlari. Ma’ruzalar matni. 1-qism - Toshkent.:TDTU, 2023 – 136 s.</p> <p>7. Dunyashin N.S., Ermatov Z.D. Suyuqlantirib payvandlash tehnologiyasi va jihozlari. Ma’ruzalar matni. 2-qism - Toshkent.:TDTU, 2023 – 106 s.</p> <p><b>Internet saytlari:</b></p> <p>7. www.ziyonet.uz – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portalı.</p> <p>8. <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a> – Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona.</p> <p>9. <a href="https://www.scopus.com">https://www.scopus.com</a> – Scopus xalqaro ma’lumotlar bazasi.</p> <p>10. <a href="http://www.svarka.ru">www.svarka.ru</a> – Rossiya federatsiyasi payvandlash jamiyatı sayti.</p>
7.	Fan dasturi Namangan mihandislik-qurilish instituti Kengashining 2024 yil “___” ____ dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	<p><b>Fan\modul uchun mas’ullar:</b></p> <p>Mansurov M.T. – Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrasи o‘qituvchisi (PhD).</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Rustamov R.M. – Mashinasozlik fakulteti dekani, t.f.d., professor;</p> <p>Otaxanov B.S.–Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrasи dotsenti, t.f.n.</p>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH  
INSTITUTI**

**“PAYVANDLASHNING ASOSIY  
USLUBLARI”**

**FANIDAN**

**MA’RUZALAR MATNI**

**Namangan-2024**

Ushbu ma’ruzalar matni “Texnologik mashinalar va jihozlar” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qiyotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

Muallif: PhD. M. Mansurov

Taqrizchi: dots., PhD. A. Qidirov

Ma’ruzalar matni “Texnologik mashina va jihozlar” kafedrasining 2024 yil \_\_\_\_\_dagi yig‘ilishida muhokama qilingan va ma’qullangan.

Ma’ruzalar matni Energetika va mehnat muhofazasi fakultetining 2024 yil \_\_\_\_\_dagi yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya qilingan.

Namangan muhandislik-qurilish instituti ilmiy-metodik kengashining 2024 yil \_\_\_\_\_dagi yig‘ilishida tasdiqlangan va chop etishga tavsiya etilgan. Ro‘yxat raqami № \_\_\_\_\_

## KIRISH

Eramizdan 8–7 ming yil oldin eng sodda payvandlash usullari mavjud edi. Asosan mis buyumlar payvandlanar edi, mis avval qizdirilib so‘ng bosim bilan payvandlanar edi. Mis, bronza, qo‘rg‘oshin kabi metallardan buyumlar tayyorlashda, o‘ziga xos quyma payvandlash bilan bajarilar edi. Birikadigan detallar qoliplanib, qizdirilar edi va tutushadigan joyiga oldindan tayyorlangan erigan metall quyular edi. Temir va uning qotishmalaridan buyumlarni tayyorlashda temirchilik o‘chog‘ida «payvand tobi» darajasigacha qizdirib so‘ng toblast natijasida buyumlar tayyorlanar edi. Bu usul temirchilik o‘chog‘ida payvandlash deb nom olgan edi. Payvandlash usullari juda sekin rivojlangan, shuning uchun ko‘pgina payvandlash jihozlari, qurilmalari va texnik usullari o‘zgarishi yuz yillar davomida sezilarli darajada o‘zgarmagan.

Texnika sohasida keskin o‘zgarishlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida sezila boshladi. 1802-yilda rus olimi akademik V.V. Petrov birinchi bo‘lib yoy zaryadsizlanishini tadqiqot qildi va ochdi. 1803-yilda u tomonidan «Galvanik-voltli tajribalar haqida yangiliklar» kitobida, yoyli zaryadsizlanish yordamida metall erishini bayon qilgan. Yoyli zaryadsizlanish yuqori darajali issiqqliq ma’nbayi va yuqori darajada yorituvchanligi bilan amaliy qo‘llanishga tez kiritilmadi, chunki, yoy ta’milanishi uchun zarur bo‘lgan tok kuchlanishini yetkazib beruvchi manba yo‘q edi. Bunday manbalar faqatgina XIX asr oxirida paydo bo‘ldi. Yoy zaryadsizlanish ochilishi davriga elektrotexnika endigma tashkil etilayotgan edi, elektrotexnik sanoati esa yo‘q edi. 1821-yilda ingliz yetakchi fizigi M. Faradey elektromagnetizmni eksperimental tadqiqot qilishida elektromagnit induksiyani ochdi va shu orqali elektryurutuvchi va elektr generatori qurilmalar prinsipini ishlab chiqdi.

Ingliz fizigi D. Maksvell matematik hisoblashlar bilan jarayonda hosil bo‘ladigan elektromagnit maydon xususiyatlariga tadqiqotlar natijasida tenglama ishlab chiqdi.

1870-yilda fransuz olimi Z.T. Gramm mexanik elektromagnit mashina uchun uzukli langar ishlab chiqdi, bu elektr generator vazifasini bajarishi mumkin, uning ishi mexanik energiyani elektr energiyaga aylantirib berishdan iborat edi. 1882-yilda rus muhandisi N.N. Benardos erimaydigan ko‘mir elektrod bilan elektryoyli payvandlash usulini ixtiro qildi. O‘zining ixtirosiga N.N. Benardos «Elektrogefest» nomini berdi. 1886-yilda u «Elektr tok ta’siri yordamida metallarni biriktirish va ajratish usullari» ga rus patentini oldi. N.N. Benardos yoyli payvandlash texnologiyasini va payvand birikmalar turlarini ixtiro qildi (uchma-uch, ustma-ust va b.), bular hozirgi kunda ham ishlatilmoqda; qalin metallarni payvandlashda u payvand birikmani yonboshlab joylashtirish usulini qo‘llagan. Yupqa tunuka listlarni payvandlashda esa, payvand birikmani payvandlashga tayyorlash uchun list chekasi bo‘rtini bukib tayyorlagan. Payvandlash sifatini oshirish uchun ular flyus ishlatar edi: po‘latlarni

payvandlashda esa kvarsli qum, marmar ishlatilar edi, misni payvandlashda esa bura va nashatir qo'llanilar edi.

1888 – 1890-yillarda rus muhandisi N.G. Slavyanov eriydigan metall elektrod bilan yoyli payvandlashni taklif etdi. XX asr boshlaridan beri elektr yoyli payvandlash usuli metallarni biriktirishda yetakchi sanoat usuli bo'lib kelmoqda.

Bosim bilan kontakli uchma-uch payvandlashni London qirolik jamiyatining a'zosi, Peterburg fanlar akademiyasining faxriy a'zosi inglez fizigi E. Tompson birinchi bo'lib 1877-yilda amalda qo'lladi. Birmuncha keyinroq, N.N. Benardos tomonidan, hozirgi vaqtida qo'llanilayotgan mis elektrodlar bilan nuqtali va rolikli kontaktli payvandlash usulini ishlab chiqidi. 1903-yilda eritib kontaktli uchma-uch payvandlash ishlab chiqildi.

1885 - yilda fransuz olimi AnriLuiLe Shatele atsetilennikislrorodda yondirib, harorati  $3000^{\circ}\text{C}$  danyuqori alanga hosilqildi. Birnecha yildankeyinuningyurtdoshlarimuhandislardanEdmonFushe va SharlPikarharorati  $3100^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lgan alanga beradigan atsetilen – kislorodgorelkasiningkonstruksiyasinitaklifetdilar (bukonstruksiyalarhozirgidavrgacha deyarlio'zgarmadi). Gaz alangasida payvandlash ana shundayboshlandi. 1906-yildanboshlabuniRossiyada qo'llayboshladilar. Dastlabbuyangiusulni avtogenpayvandlashdeb atadilar, grekcha «*avtos*» – o'zi, va «*genes*» – hosilbo'lmoq so'zlaridan olingan.

Elektr yoy yordamida payvandlash, mexanizatsiyasi, avtomatizasiysi jarayonlari sohasida asosiy xizmatlar Ukraililik olim akademik E.O. Patonga tegishli. Ikkinchi jahon urushi davrida flyus ostida avtomatik payvandlash mudofaa zavodlarida tank va artilleriya quollarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega edi.

Sanoatning jadal rivojlanishi va texnikaning hamma sohalaridagi metallarni payvandlashda: elektron nur, lazer, yuqori haroratlil plazma, ultratovush va boshqa yangi effektiv payvandlash usullari qo'llanilmoqda.

## **1-ma’ruza. Payvandlash usullari tasnifi va mohiyati.**

### **1-MA’RUZA.**

#### **PAYVANDLASH USLUBLARI TASNIFI**

**Reja:**


##### **1.1. Payvandlash mohiyati**

##### **1.2. Payvandlash uslublari tasnifi**

###### **1.1. Payvandlash mohiyati**

Payvandlash – metallar, qotishmalar va turli materiallarni plastik deformatsiyalash yoki birikilayotgan qismlar orasini qizdirish bilan atomlararo birikish natijasida ajralmas birikma hosil qiluvchi texnologik jarayondir.


Atomlararo kuchlar ta’siri natijasida birikmalar hosil qilish jarayoniga materiallarni payvandlash deyiladi. Ma’lum bo‘lishicha detal metalining yuzadagi atomlari, erkin, to‘yinmagan aloqalari mavjud, bular atomlararo kuch ta’siri masofasida bo‘lgan har xil atom va molekulalarni o‘z ichiga oladi. Agar ikki metall detalni atomlararo kuch ta’siri masofasigacha yaqinlashtirsak, ya’ni metall ichida qanday masofada bo‘lishsa shungacha, unda tutashgan yuzalarning bir butun ulanishini ko‘ramiz. Birikish jarayoni energiya xarjisiz va tez o‘z ixtiyoriy amaliy oniy kechadi.



**1.1-rasm. Metall detalni mexanik tutashishi:**  
 $\Delta A_r$  – elementar (yagona) mikrotutashuv maydoni.

Ayrim metallar xona haroratida nafaqat oddiy tutashishda, balki kuchli qisishda ham birikmaydi. Qattiq metallarni birikishiga uning qattiqligi xalaqit beradi, tutashish qismiga qanchalik ishlov berilmasin, ularni tutashtirishda ko‘p joylari tutashmaydi.

Birikish jarayoniga metall yuzalarining kirligi yomon ta’sir etadi. Bularga – oksidlar, yog‘li plyonkalar va boshqalar hamda gaz molekulalarining adsorblashgan qatlamlari kiradi, va metall yuzasi uzoq vaqt toza saqlanishi uning yuqori vakuumda ushlab turishiga bog‘liq ( $1 \cdot 10^{-8}$  mm sim. ust.).




**1.2-rasm. Havodagi metall yuzasi:**

1 – metallning chuqur qatlami, plastik deformatsiya ta'sir etmagan; 2 – yuza qatlami kristallitlarning oksid qatlamlari bilan; 3 – oksid qatlam; 4 – kislород anionlarining adsorb qatlami va havoning neytral molekulasi; 5 – suv molekulalarining qatlami; 6 – yog'li molekulalar qatlami; 7 – ionlashgan chang zarralari.

Payvandlashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bosim va qizdirish qo'llaniladi.


Haroratni oshirib borish bilan qizdirishda metall mayin bo'la boshlaydi. Shu tarzda qizdirishni davom ettirsak metall suyuq holatga keladi; bu holatda suyuq metall hajmi umumiylay payvandlash vannasini hosil qiladi.

Payvandlash davrida suyuq metall havodagi azot va kislород bilan faol ta'sirlashadi, bu esa chok mustahkamligini pasaytiradi va nuqsonlar paydo bo'lishiga olib keladi. Payvandlash zonasini havo muhitidan himoya qilish uchun hamda chok sifatini oshirish uchun, kerakli bo'lган elementlar qo'shiladi, bu elementlar metall elektrod o'zakning yuza qatlamiga maxsus moddalar qo'shiladi, yoki kukunsimon holatida kavak o'zak ichiga qoplanadi va presslanadi. Himoya gazlar muhitida payvandlashda payvandlash zonasini havo muhitidan himoya qilish uchun, inert va faol gazlar va ularning aralashmalari keng qo'llaniladi. Flyus ostida payvandlashda himoya maqsadida elektrod atrofiga zich qatlam bilan donador material, ya'ni flyus qoplanadi. Payvandlash jarayonida eriyotgan flyus yoki maxsus moddalar, shlak qatlamini hosil qiladi, bu qatlam erigan metallni havo muhitidan ishonchli himoya qiladi.



**1.3-rasm. Erirtib payvandlash chizmasi.**


Biriktirilayotgan qismlarga ta'sir etayotgan bosim, metallda murakkab plastik deformatsiyani hosil qiladi, natijada metall erigan metall singari oqa boshlaydi. Metall deformatsiyalanish natijasida payvand qirralar bo'ylab harakatlanganda, o'zi bilan turli xil kirlarni va adsorblashgan gaz qoplamlarini olib ketadi. Natijada metallning yangi toza qatlami sizib chiqib birikma hosil bo'ladi. Payvandlash usuliga nisbatan metallda plastik deformatsiyalanish yoki erish jarayoni sodir bo'ladi, bu jarayonlar bilan bir qatorda turli xil kimyoviy birikmalar hamda suyuq holatdan kristallizatsiya holatiga o'tish kabi jarayonlar sodir etiladi.



**1.4-rasm.** Bosim ostida payvandlash chizmasi.


### 1.2. Payvandlash uslublari tasnifi

Suyuqlantirib payvandlashning asosiy usullari tasnifining sxemasi 1.5-rasmida ko‘rsatilgan.



**1.5-rasm.** Eritib payvandlash usullari tasnifi.

Bosim ostida payvandlashning asosiy usullari tasnifining sxemasi 1.6-rasmida ko‘rsatilgan.



**1.6-rasm.** Bosim bilan payvandlash ussullarining tasnifi.

## Nazorat savollari

1. XIX asrgacha qanday payvandlash usullari qo'llanilgan?
2. Payvandlash jarayoniga ma'lumot bering.
3. Metallni payvandlashga nima to'sqinlik qiladi?
4. Eritib payvandlashning mohiyati nimadan iborat?
5. Eritib payvandlash usullarini qanday tasniflash mumkin?
6. Bosim ostida payvandlashning mohiyati nimadan iborat?
7. Bosim ostida payvandlash usullarini qanday tasniflash mumkin?


## 2-ma'ruza. Yoyli dastakli payvandlash texnologiyasi Reja

- 2.1. Yoyli dastakli payvandlash mohiyati
- 2.2. Yoyli dastakli payvandlash postining jihozlanishi

### 2.1. Yoyli dastakli payvandlash mohiyati

**Yoyli dastakli payvandlash** – yoyli payvandlashda, yoy yonishi, elektrod uzatilishi va siljitishi qo'lda bajariladi.

Yoyli dastakli payvandlashda, yoy yonishi, payvandlash davrida uni ushlab turish, payvandlanayotgan yuza bo'yicha siljitishni payvandchi qo'lda bajaradi. Normal yoy uzunligi elektrod diametridan 0,5–1,1 ga oshmaydi. Elektrod diametri 3–6 mm ni tashkil etadi. Payvandlash ishlarning asosiy hajmini 90–350 A va 18–30 V kuchlanishda bajariladi.



**2.1 - rasm. Yoyli dastakli payvandlash chizmasi:**

1 – elektrod o'zagi; 2 – elektrod qoplamasi; 3 – gaz yoki gaz-shlak himoya; 4 – payvandlash vannasi; 5 – payvand chok; 6 – shlak qoplamasi.

### 2.2. Yoyli dastakli payvandlash postining jihozlanishi


Bajariladigan ishlarning turiga, buyumning o'lchamlariga va ishlab chiqarish turiga qarab, payvandchingish o'rni turlicha tashkil etilishi mumkin. Bu ish o'rnlari katta gabaritli buyumlarni, inshootlarni montaj qilish (o'rnatish) yoki tayyorlash uchun muqim payvandlash kabinasidan yoki vaqtinchalik payvandlash postidan iborat bo'lishi mumkin.

Agar payvandlanadigan buyum katta bo'lmasa va katta seriyalarda tayyorlansa, u holda ish o'rni muqim payvandlash kabinalarida tashkil etiladi, bu kabilalarning o'lchamlari bitta payvandchi uchun kamida

2,0x2,5 m, balandligi kamida 2,0 m bo‘ladi. Kabina havoning tabiiy harakati hisobiga yaxshi shamollatib turilishi kerak uning uchun devorlari polgacha 200...250 mm yetkazilmasligu lozim. Eshik o‘rniga halqalarda brezent parda osib qo‘yiladi. Kabinaning devorlari o‘tga chidamli materialdan, ko‘pincha metalldan yasaladi. Ichkari tomondan devorlarga o‘tga chidamli qoplama yoki ochiq rangli bo‘yoq chaplanadi, bu ranglar yaltiramaydi va xira sirt hosil qiladi. Havoni umumiy va mahalliy usulda shamollatish majburiydir. Kabinaga payvandlash yoyini ta’minlash manbayi, uni ta’minlash elektr tarmog‘iga ulash uchun, biriktirgich-ajratgich yoki magnitli yurgizib yuborgich o‘rnataladi. Agar payvandlash o‘zgartkichdan foydalaniladigan bo‘lsa, uni kabinadan tashqarida, ovozni o‘tkazmaydigan xonada o‘rnataladi.

Payvandlash postlariga o‘zgaruvchan tok maxsus transformatorlardan, o‘zgarmas tok esa o‘zgartirgich va to‘g‘rilagichlardan beriladi.

2.2 - a rasmida o‘zgaruvchan tok bilan elektr yoy yordamida (qo‘l bilan) payvandlash postining prinsipial elektr sxemasi, 2.2 - b rasmida esa bunday postning umumiy ko‘rinishi ko‘rsatilgan.



**2.2-rasm. Yoy bilan dastakli payvandlash postining sxemasi:**  
 a, b – o‘zgaruvchan tok bilan; d, e – o‘zgarmas tok bilan.

220 yoki 380 V kuchlanishli o‘zgaruvchan tok tarmoq (1) dan biriktirgich-ajratgich (2) va saqlagich (3) orqali tok manbayi – payvandlash transformatori (4) ga beriladi, bu yerda tok yoy hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan 60 – 75 V kuchlanishgacha transformatsiyalanadi va payvandlash simlari (5) orqali qisqich (6) va elektrod tutqich (7) orqali buyum (5) ga beriladi.

2.2 - d rasmida o‘zgarmas tok bilan elektr yoyi yordamida dastakli payvandlash postining prinsipial elektr sxemasi 2.2 - e rasmida esa bunday

postning umumiyoq ko‘rinishi ko‘rsatilgan. Bu holda tok 220 yoki 380 V kuchlanishli tarmoqdan o‘zgartirgichga keladi.

Kabinada chilangarlik asboblari (bolg‘acha, zubilo, qisqich va shu kabilar) qo‘yilgan tokchali dastgoh, elektrodlar uchun zinchilik yopiladigan qutu o‘rnataladi, chunki ba’zan elektrodlar o‘rami olinganidan keyin ikki soatdan ko‘proq ishlatilmaydi. Elektrodlarni qizdirish uchun quritish shkafi yoki quritish o‘chog‘i zarur bo‘ladi, o‘chog‘ni payvandchilarning ish hajmiga va payvandlash sharoitiga qarab bir necha post uchun bitta o‘rnatish mumkin. Agar payvandchi yig‘ish-payvandlash moslamasidan yoki pnevmoyuritmalni asbobdan foydalanadigan bo‘lsa, kabinaga siqilgan havo o‘tkaziladi. Kabinada payvandchi uchun metall stol va balandligi bo‘yicha rostlanadigan o‘rindiqli stul turishi kerak.

### Nazoratsavollari

1. Sanoat va qurilishda qanday tur payvandlash postlaridan foydalananiladi?
2. Elektr tarmog‘iga ulanadigan payvandlash simlari qanday tanlanadi?
3. Elektr payvandchi ishlayotganda qanday maxsus kiymlarini kiyishi kerak?
4. Chokning ochilishi burchagi nimaga xizmat qiladi?
5. Payvandlash rejimi qanday parametrlarda beriladi?

### **3-ma’ruza. Yoyli dastakli payvandlash uchun elektrodlar, payvandlashning rejimlari**


**Reja:**

#### **3.1 Yoyli dastakli payvandlash uchun qoplamlami metall elektrodlar**

##### **3.2 Yoyli dastakli payvandlash rejimlari**

#### **3.1 Yoyli dastakli payvandlash uchun qoplamlami metall elektrodlar**

Yoy dastakli payvandlash uchun qoplamlami metall elektrodning metall o‘zagiga maxsus qoplama qoplangan bo‘ladi (3.1-rasm).



**3.1-rasm. Qoplamlami elektrod:**

1 – o‘zak; 2 – o‘tish hududi; 3 – qoplama; 4 – qoplamasiz yon tomon.

Yoy bilan qo‘lda payvandlash uchun quyidagi o‘lchamlardagi payvandlash elektrodlari tayyorlanadi.

**4.1 - jadval**

## Elektrodlar o‘lchamlari

Elektrodning diametri, mm		1,6	2,0	2,5	3,0	4,0	5,0	6,0	8,0	10,0	12,0
Elektrodning uzunligi, mm	Uglerodli va legirlangan elektrodlar	200, 250	250	250, 300	300, 350	350, 450			450		
	Yuqori legirlangan elektrodlar	150, 200	200, 250	250	300, 350	350			350, 450		

Barcha turdagи elektrodlarga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- yoyning turg‘un yonishini va chokning yaxshi shakllanishini ta’minlash;
- payvand chok metalini berilgan kimyoviy tarkibda olish;
- elektrod sterjeni va qoplamaning bir tekis hamda sokin suyuqlanishini ta’minlash;
- elektrod metalini minimal sachratish va payvandlashning yuqori unumdorligini ta’minlash;
- shlakning oson ajralishi va qoplamalarning yetarlicha mustahkam bo‘lishi;
- ma’lum vaqt oralig‘ida elektrodlarning fizik-kimyoviy va texnologik xossalaringin saqlanishi;
- tayyorlash va payvandlash vaqtida zaharliligi minimal bo‘lishi kerak.

Elektrodlar xususiyati elektrod o‘zagi va qoplamasining kimyoviy tarkibiga qarab aniqlanadi. Erigan metall kimyoviy tarkibiga va uning mexanik xususiyatlariga, elektrod o‘zagining kimyoviy tarkibi yanada kuchliroq ta’sir etadi.

Elektrodlarning qoplamalari shlak hosil qiluvchi, gaz hosil qiluvchi, oksidsizlantiruvchi, legirlovchi, turg‘unlashtiruvchi va bog‘lovchi komponentlardan tashkil topgan.

*Shlak hosil qiluvchi komponentlar* suyuqlangan metallni havodagi kislород va azot ta’siridan muhofaza qiladi va uni qisman tozalaydi. Ular yoy oralig‘idan o‘tayotgan elektrod metali tomchisi atrofida shlakli qobiqlar, chok metali sirtida shlakli qatlama hosil qiladi. Shlak hosil qiluvchi komponentlar metallning sovish tezligini kamaytiradi va undan metall bo‘lmagan qo‘shilmalarning ajralishiga yordam beradi. Shlak hosil qiluvchi komponentlarda titan konsentrati, marganes rudasi, dala shpati, kaolin, bo‘r, marmar, kvars qumi, dolomit bo‘lishi mumkin.

*Gaz hosil qiluvchi komponentlar* yonishida payvandlash zonasida gaz yordamida himoya hosil qiladi, gaz himoyasi ham, shuningdek, suyuqlangan metallni havodagi kislород va azotdan muhofaza qiladi. Gaz

hosil qiluvchi komponentlar yog‘och uni, ip-gazlama kalavasi, kraxmal, ozuqa uni, dekstrin, sellulozadan iborat bo‘lishi mumkin.

*Oksidsizlantiruvchi* komponentlar payvandlash vannasining suyuqlangan metalini oksidsizlantirish uchun zarur. Bularga moyil temirga nisbatan kislородга yaqinroq bo‘lgan elementlar, masalan, marganes, kremniy, titan, aluminiy va boshqalar kiradi. Ko‘pchilik oksidsizlantiruvchilar elektrod qoplamlarga ferroqotishmalar tarzida kiritiladi.

*Legirlovchi komponentlar* qoplama tarkibiga chok metaliga issiqqa bardoshli, yejilishga chidamli, korroziya bardoshli kabi mahsus xossalar berishi va mexanik xossalarini yaxshilash uchun zarur. Legirlovchi elementlarga marganes, xrom, titan, vanadiy, molibden, volfram va ba’zi bir boshqa elementlar kiradi.

*Turg ‘unlashtiruvchi komponentlar* ionlanish potensiali uncha katta bo‘lmagan elementlar, masalan, kaliy, natriy va kalsiyalar kiradi.

*Bog‘lovchi komponentlar* qoplamlarning boshqa tarkiblarini o‘zaro va sterjen bilan bog‘lash uchun ishlataladi. Bunday tarkiblar sifatida kaliy yoki natriyli suyuq shisha, dekstrin, jelatin va boshqalar ishlataladi. Suyuq shisha asosiy bog‘lovchi moddadir. Suyuq shisha silikat, ya’ni ishqor metall (natriy yoki kaliy) larning kremniy kislotalari tuzi hisoblanadi. Asosan natriyli suyuq shisha – natriy silikati ishlataladi. Uning kimyoviy formulasi  $\text{Na}_2\text{O} \cdot \text{SiO}_2$ .  $m = \frac{\text{SiO}_2}{\text{Na}_2\text{O}}$  Bu nisbat suyuq shisha moduli deb ataladi. Modul qanchalik yuqori bo‘lsa, suyuq shisha shunchalik yopishqoq bo‘ladi. Elektrod qoplamlarida moduli 2,2 dan 8 gacha bo‘lgan suyuq shisha ishlataladi. Yoy yanada barqaror yonishi uchun ba’zi bir qoplamlarga kaliyli suyuq shisha qo‘shiladi.

Barcha qoplamlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- yoyning turg‘un yonishini ta’minalash;
- elektrod suyuqlanganida hosil bo‘ladigan shlaklarning fizikaviy xossalari chokning normal shakllanishiga va elektrod bilan qulay harakat qilishga to‘sinqinlik qilmasligi kerak;
- shlaklar, gazlar va metall orasida, payvand choclarida g‘ovaklar hosil qiluvchi reaksiyalar bo‘lmasligi kerak;
- qoplama materiallari yaxshi maydalanuvchan bo‘lishi hamda suyuq shisha bilan va uzaro reaksiyalarga kirishmaydigan bo‘lishi kerak;
- qoplamlarning tarkibi ularni tayyorlashda va ularning yonish jarayonida zarur bo‘lgan mehnat sharoiti sanitariya-gigiyena talablariga javob berishi kerak.

Hosil bo‘layotgan shlaklarning fizikaviy xossalari payvandlash jarayoni va payvand chocining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Barcha elektrod qoplamlarida ularning suyuqlanishi natijasida shlakning zichligi payvandlash vannasining metali zichligidan kam bo‘lishi kerak, bu shlakning payvandlash vannasidan qalqib chiqishini ta’minlaydi. Shlakning qotish harorat intervali payvandlash vannasi metalining kristallanish

haroratidan past bo‘lishi kerak, aks holda shlak qatlami payvand vannasida ajralayotgan gazlarni o‘tkazmay qo‘yadi. Shlak payvand chokini butun sirti bo‘ylab tekis qoplashi kerak.

Elektrod qoplamlarining suyuqlanishida hosil bo‘lgan shlaklar «uzun» va «qisqa» bo‘ladi. Tarkibida ko‘p miqdorda qumtuproq bo‘lgan shlaklar «uzun» shlak deb ataladi. Ularning yopishqoqligi harorat pasayishi bilan sekin ortadi. Suyuqlanganda «uzun» shlaklar hosil qiladigan qoplamlari elektrodlar bilan, vertikal va ship holatda payvandlash ishlarini bajarib bo‘lmaydi, chunki bunda payvandlash vannasi uzoq muddat suyuq holatda bo‘ladi. Fazoning barcha vaziyatlaridagi payvandlash ishlarini bajarish uchun qoplamlari suyuqlanganida «qisqa» shlaklar hosil qiluvchi elektrodlar ishlataladi; suyuqlangan shlakning yopishqoqligi harorat pasayishi bilan tez ortadi, shuning uchun kristallanib ulgurgan shlak hali suyuq holatda bo‘lgan chok metalining oqib ketishiga to‘sinqinlik qiladi. «Qisqa» shlaklar rutil va asos qoplamlari elektrodlar ishlatalganda hosil bo‘ladi.

Chiziqli kengayish koeffitsienti metallning chiziqli kengayish koeffitsientidan farqli bo‘lgan shlaklar ishlatalganda shlak pustlog‘i metall sirtidan yaxshi ajraladi.

Muhofazlovchi va legirlovchi qoplamlarni, ular tarkibida bo‘lgan hamda ularning payvandlash vannasining metaliga ta’sirini belgilovchi asosiy moddalar turiga qarab klassifikatsiyalash tartibi qabul qilingan. Ana shu xususiyatlarga qarab barcha qoplamlar to‘rt guruhga bo‘linadi: kislotali, asosli, rutilli va sellulozali.

### **3. 2 Yoyli dastakli payvandlash rejimlari**

Payvandlash rejimi deganda payvandlash jarayonida bajariladigan shartlar yig‘indisi tushuniladi. Payvandlash rejimi parametrlari asosiy va qo‘srimcha parametrleriga bo‘linadi. Payvandlash rejimining asosiy parametrleriga tokning kattaligi, turi va qutbi; elektrodning diametri, kuchlanish, payvandlash tezligi va elektrod uchining ko‘ndalang tebranish kattaligi kiradi, qo‘srimcha parametrleriga – elektrod qulochining kattaligi, elektrod qoplamasining tarkibi va qalinligi, asosiy metallning boshlang‘ich harorati, elektrodning fazodagi vaziyati (vertikal, qiya) va payvandlash vaqtida buyumning holati kiradi.

Elektrod simining diametri payvandlanadigan metall qalinligiga qarab tanlanadi (3.2-jadval).

*3.2-jadval*

#### **Uchma-uch birikmalarni payvandlashda payvand-lanayotgan metall qalinligiga nisbatan elektrod simi diametri**

Payvandlanadigan metall qalinligi, mm	0,5–1,5	1,5–3	3–5	6–8	9–12	13–20
Elektrod simining diametri, mm	1,5–2,0	2–3	3–4	4–5	4–6	5–6

Elektrod diametri katta bo'lsa, payvandlashda ish unumi oshadi, lekin payvandlanadigan metall erishi va oqib ketishi mumkin, vertikal va ship holatdagi choklarni ishlash qiyinlashadi, chok tubi chala erishi mumkin. Shuning uchun ham ko'p qatlamlı chokning birinchi qatlami har doim diametri 4 – 5 mm elektrod bilan payvandlanadi. U-simon ishlangan chokning barcha qatlamlarini bir xil (maksimal yo'1 qo'yilgan diametrli) elektrod bilan payvandlash mumkin.

Vertikal va ship choklar diametri 5 mm dan ortiq bo'lмаган elektrodlar bilan payvandlanadi. Chatim (har joydan tutashtirish) choklar va eritib yotqiziladigan kichik kesimli valiklar diametri 5 mm dan ortmaydigan elektrodlar bilan bajariladi.

Tok kuchi kam bo'lsa, issiqlik payvandlash vannasiga yetarli darajada kelmaydi va asosiy metall bilan eritilgan metall yaxshi birikmasligi mumkin. Natijada payvand birikmaning mustahkamligi keskin kamayadi. Tok haddan tashqari kuchli bo'lganida, payvandlashni boshlagandan keyin sal vaqt o'tishi bilan elektrod qizib ketadi, uning metali tez erib chokka oqib tushadi. Natijada chokka erib tushayotgan metall ko'proq tushadi hamda elektrodning suyuq metali erimagan asosiy metallga tushib qolgudek bo'lsa, chala payvandlangan joylar hosil bo'lish xavfi tug'iladi.

Kam uglerodli po'latlarni pastki holatda uchma-uch payvandlash uchun tok miqdorini tanlashda akad. K. K. Xrenovning quyidagi formulasidan foydalanish mumkin:

$$I_{\text{pay}} = (20 + 6d)d,$$

bunda  $I_{\text{pay}}$  – tok, A;

$d$  – elektrod metall sterjenining diametri, mm.

Vertikal va ship choklarni payvandlashda pastki holatda choklarni payvandlashga nisbatan tok qiymati 10–20 % kam bo'ladi.

Birikmalarini ustma-ust va tavr shaklida payvandlashda katta tok ishlatilishi mumkin. Chunki bunday hollarda erib teshilish hollari kam bo'ladi.

Tokning turi va qutbi, chokning shakli hamda o'lchamlariga ta'sir qiladi. Teskari qutbli o'zgarmas tok bilan payvandlashda suyuqlanib quyilish uzunligi to'g'ri qutbli o'zgarmas tok bilan payvandlashga nisbatan 40–50% ga ko'proq bo'ladi, chunki anod va katodda ajralayotgan issiqlik miqdori har-xil bo'ladi. O'zgaruvchan tok bilan payvandlashda to'la payvandlash chuqurligi teskari qutbli o'zgarmas tok bilan payvandlashga nisbatan 15–20% kam bo'ladi.

Yoy bilan dastakli payvandlashda kuchlanish metallning to'la payvandlash chuqurligiga kam ta'sir qiladi, hatto bu ta'sirni nazarga olmasa ham bo'ladi. Chokning kengligi elektrod kuchlanishiga bog'liq. Kuchlanish ortganida chokning kengligi ortadi.

### Nazoratsavolları

1. Sanoat va qurilishda qanday tur payvandlash postlaridan foydalaniлади?

2. Elektr tarmog‘iga ulanadigan payvandlash simlari qanday tanlanadi?
3. Elektr payvandchi ishlayotganda qanday maxsus kiymlarini kiyishi kerak?
4. Chokning ochilishi burchagi nimaga xizmat qiladi?
5. Payvandlash rejimi qanday parametlarda beriladi?

#### **4- ma’ruza. Himoya gazlari muhitida yoy bilan payvandlash**

**Reja:**

- 4.1. Himoya gazlar muhitida payvandlashning mohiyati
- 4.2. Erimaydigan elektrodlar bilan payvandlash
- 4.3. Eriydigan elektrodlar bilan payvandlash
- 4.4. Himoya gazlari

#### **4.1. Himoya gazlar muhitida payvandlashning mohiyati**

Himoya gazlar muhitida payvandlash – bu yoyli payvandlash bo‘lib, bunda yoy va erigan metall, ayrim hollarda esasovuyotgan chok, payvandlash zonasiga maxsus qurilma bilan yetkazib berilayotgan himoya gazlar ta’sirida bo‘ladi, ya’ni havo ta’siridan himoyalananadi. Himoya gazlar muhitida payvandlash g‘oyasini XIX asr oxirida N.N. Benardos taklif etdi. XX asrning 20-yillarida AQSHda muhandis Aleksander va fizik Lengmyurlar gaz aralashmalarida o‘zakli elektrod bilan payvandlashni amalga oshirdilar. 1925-yilda Lengmyur erimaydigan volfram elektrod bilan va himoya muhiti sifatida vodorodni, ya’ni atom-vodorodli payvandlash usuli sifatida yoyli payvandlashning bilvosita ta’siri orqali payvandlashni ishlab chiqdi. XX asrning 40-yillarida Aviatsion Texnikasi Ilmiy Tadqiqot Institutida inert gaz muhitida volfram elektrod bilan payvandlash ishlab chiqildi. 1949-yilda elektr payvandlash institutida ko‘mir elektrodi bilan karbonat angidrid gazi muhitida payvandlash ishlab chiqildi.


Himoya gazlar muhitida yoy bilan payvandlashda ish unumi yuqori bo‘ladi, bu ishni oson avtomatlashdirish mumkin va metallarni elektrod qoplamlari hamda flyuslar ishlatmasdan payvandlashga imkon beradi.

Payvandlashning bu usuli, po‘lat, rangli metallar va ularning qotishmalaridan konstruksiyalar yashashda keng qo‘llanila boshladi.

Himoya gazlar muhitida payvandlashning afzalliklari quyidagilardir:

- flyus yoki qoplamlar ishlatishga hojat yo‘q, binobarin, choklarni shlakdan tozalashga ham;
- yuqori ish unumi va manba issiqligining yuqori darajada konsentratsiyalanishi, strukturaviy o‘zgarishlar zonasini ancha qisqartirishga imkon beradi;
- chok metali havodagi kislород va azot bilan kam ta’sirlashadi;
- payvandlash jarayonini kuzatib turish qulay;
- jarayonlarni mexanizatsiyalashdirish va avtomatizatsiyalash imkonibor.

Himoya gazlar muhitida yoy bilan payvandlash usullarining klassifikatsiyasi 4.1-rasmida ko'rsatilgan.




**4.1-rasm.** *Himoya gazlar muhitida yoy bilan payvandlash usullarining klassifikatsiyasi.*

Himoya gazlar muhitida payvandlashni eriydigan va erimaydigan (volfram) elektrodlar bilan bajarish mumkin.

Payvand zonasini himoyalash uchun geliy va argon kabi inert gazlar, ba'zan azot, vodorod va karbonat angidrid kabi faol gazlardan foydalaniadi.

## 4.2. Erimaydigan elektrodlar bilan payvandlash

O'zgarmas tok bilan inert gazlar muhitida yoyli payvandlashda yoyning turg'un yonish sharti – qutblilikni o'zgartirishda zaryadsizlanishning muntazam ravishda tiklanib turishidir. Argon va geliy kabi inert gazlarining yowni yondirish va ionizatsiyalash potensiali kislorod, azot va metall bug'lariga qaraganda yuqori, shuning uchun o'zgaruvchan tok yoyini yondirish uchun salt yurish kuchlanishi oshirilgan ta'minlash manbayi talab etiladi. Payvandlash yoyi inert gazlar (argon yoki geliy) muhitida turg'un yonadi va uni tutib turish uncha katta kuchlanish talab etilmaydi. Elektronlarning yuqori darajadagi qo'zg'aluvchanligi neytral atomlarning ular bilan elektronlar to'qnashganda yetarlicha uyg'onishi va ionizatsiyalanishini ta'minlaydi.



**4.2-rasm.** *Erimaydigan elektrod bilan himoya gazlar muhitida payvandlash jarayonining chizmasi:*

1 –elektrod; 2 –soplo; 3 – yoy; 4 – chok metali; 5 – buyum.


Volfram katod bo‘lgan holda yoy zaryadsizlanishi asosan, suyuqlanish haroratining yuqoriligi va volframning nisbatan kam issiq o‘tkazuvchanligi tufayli sodir bo‘ladigan termoelektron emissiya hisobiga yuz beradi, bu esa to‘g‘ri va teskari qutblilikda yoyning bir xilda yonmasligiga sabab bo‘ladi. Teskari qutblikda (buyum katod rolini o‘ynaydi – minus) yoyni yondirishdagi kuchlanish to‘g‘ri qutbga nisbatan katta bo‘lishi kerak. Shuning uchun volfram elektrodi bilan payvandlashda metall hossalari bir-biridan ancha farq qiladi, yoy kuchlanishining egri chizig‘i simmetrik shaklga ega bo‘lmaydi, balki unda doimiy tashkil etuvchi paydo bo‘lib, u payvandlash zanjirida tokning doimiy tashkil etuvchisining hosil bo‘lishini yuzaga keltiradi. Tokning doimiy tashkil etuvchisi o‘z navbatida transformator o‘zagi va drosselda o‘zgarmas magnit maydonni hosil qiladi, bu hol esa payvandlash yoyi quvvatining kamayishiga va yoyning barqaror bo‘lmasligiga olib keladi. Zanjirda tokning doimiy tashkil etuvchisining yuzaga kelishi payvandlash jarayonining, ayniqsa, aluminiy qotishmalarini payvandlashning normal olib borilishini ta’minlamaydi, chunki payvandlash vannasi, hatto kislorod hamda azot miqdori kam bo‘lganida ham, oksid va nitridlarning qiyin eriydigan pardasi bilan qoplanadi, ular esa qirralarning suyuqlanishiga va chok hosil bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi.

O‘zgaruvchan tok bilan payvandlashda yoyning tozalash ta’siri katodning yonishi tufayli buyum katod rolini o‘ynagan hollardagi yarim davrida namoyon bo‘ladi, chunki bunda oksid va nitrid pardalarining yemirilishi sodir bo‘ladi.

Teskari qutbda zichligi kam tokdan foydalilanadi, lekin amalda bunday yoy ishlatilmaydi. To‘g‘ri qutbda issiqlik elektrodda kam ajraladi, chunki uning ko‘p qismi payvandlanadigan metallni suyuqlantirishga sarflanadi.

#### 4.3. Eriydigan elektrod bilan payvandlash

Eriydigan elektrod bilan yoyli himoya gazlar muhitida payvandlashda payvand chokning geometrik shakli va uning o‘lchamlari payvandlash yoyning quvvatiga, metallni yoy oraliqlaridan olib o‘tish xarakteriga, shuningdek, yoy oralig‘ini kesib o‘tuvchi gaz oqimi va metall zarrachalarining suyuqlangan metall vannasi bilan ta’sirlanishiga bog‘liq.



#### **4.3-rasm. Eriydigan elektrod bilan himoya gazlar muhitida payvandlash jarayonining chizmasi:**

1 – elektrod; 3 – soplo; 4 – yoy; 5 – buyum.

Payvandlash jarayonida payvandlash vannasining sirtiga gaz, bug‘ va metall zarrachalari oqimining hisobiga yoy ustuni bosimi ta’sir qiladi, buning natijasida yoy ustuni asosiy metallga botib kirib, suyuqlanish chuqurligini oshiradi. Elektroddan payvandlash vannasiga qarab yo‘nalgan metall gazi va bug‘larining oqimi elektromagnit kuchlarning siqish ta’siri tufayli hosil bo‘ladi. Payvandlash yoyining erigan metall vannasiga ta’sir kuchi uning bosimi bilan tavsiflanadi, gaz va metall oqimi qancha konsentratsiyalashgan bo‘lsa, bu bosim shuncha yuqori bo‘ladi. Metall oqimining konsentratsiyasi tomchilarning o‘lchami kamayishi bilan ortadi, tomchilarning o‘lchami esa metallning, himoya gazi tarkibiga, shuningdek, payvandlash tokining yo‘nalishi va kattaligiga bog‘liq.

Inert gazlar muhitida elektrodnинг erishi natijasida hosil bo‘lgan payvandlash yoyi konus shaklida bo‘lib, uning ustuni ichki va tashqi zonalaridan iborat. Ichki zona ravshan yorug‘likka va katta haroratga ega bo‘ladi.

Ichki zonada metallning ko‘chirilishi sodir bo‘ladi va uning atmosferasi metallning shu’lalanuvchi bug‘lari bilan to‘lgan bo‘ladi. Tashqi hudud yorug‘linining ravshanligi kamroq bo‘ladi va ionlashgan gazzdan iborat bo‘ladi.

#### **4.4. Himoya gazlari**

Himoya gazlari o‘z navbatida faol va inert himoya gazlariga bo‘linadi.

**Inert himoya gazlari.** Inert gazlar suyuqlangan va qizigan metall bilan reaksiyaga kirishmaydi va unga singimaydi. Shuning uchun payvandlashning keng tarqalgan turlaridan biri bu inert himoya gazlari muhitida payvandlashdir.

Payvandlashda himoyalovchi inert gazlar sifatida, asosan, argon va geliy gazlari ishlatiladi. Argon asosan havo tarkibidan rektifikatsiya usuli bilan olinadi. U havo tarkibining taxminan 0,9325% ni tashkil etadi. Geliy tabiiy gazlar tarkibidan ularni suyuklantirish usuli bilan ajratib olinadi.

Argon ГOCT 10157-79 asosida 2 ta navda tayyorланади:

- oliv nav - argon tozaligi 99,993% dan kam emas;
- birinchi nav - argon tozaligi 99,98% dan kam emas.

Toza argon tarkibida ifloslantiruvchi qoldiq gazlar sifatida azot, kislород va qisman namlik uchraydi. Oliy navli argon asosan faolligi yuqori bo‘lgan qiyin eriydigan metallarni payvandlashda ishlatiladi (jumladan titan, sirkoniy, niobiy). Birinchi navli argon asosan alyuminiy va magniy qotishmalarini eritadigan volfram elektrodi yordamida payvandlashda hamda maxsus po‘lat va qotishmalarini payvandlashda ishlatiladi.

Geliy gazi texnik shartnomasi TU 51-689-79 asosida tayyorланади va 2 ta navda yetkazib beriladi.

- maxsus tozalikdagi geliy – geliy tozaligi 99,98% dan kam emas.

– oliv tozalikdagi geliy – geliy tozaligi 99,00% kam emas.

Geliy gazining tarkibida ifloslantiruvchi gazlar sifatida karbonat angidrid, is gazi, metan va boshqa uglevodorodlar uchraydi.

Geliyni himoyalovchi gaz sifatida ishlatganda payvandlash yoyining metall erish chuqurligiga ta'siri oshadi.

Argon va geliy gazlarining suv sig'imi 40 litr bo'lgan ballonlarda 15 MPa bosim ostida saqlanadi. Argon ballonlarning rangi "kul rang" rangda bo'lib undagi "Sof argon" yozuvi esa yashil rangda bo'ladi. Gelij ballonlarning rangi "ko'ng'ir" rangda bo'lib, undagi "Geliy" yozuvi esa oq rangda bo'ladi.

Har ikkala gaz uchun ballonlarning tepe qismidan joyi bo'yalmaydi, u yerga ballonlarning pasport ko'rsatgichlari o'yiq yozuv bilan yozilgan bo'ladi.

**Faol himoyalovchi gazlar.** Faol himoyalovchi gazlar qizigan va suyuq metallda yoki singiydi, yoki ular bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadi. Faol himoyalovchi gazlar sifatida po'latlar uchun karbonat angidrid gazi va mis qotishmalarini payvandlashda azot gazi ishlatiladi.

Karbonat angidrid gazining solishtirma og'irligi havo solishtirma og'irligidan taxminan 1,5 marta og'ir bo'lgani uchun himoyalash jarayoni birmuncha oson kechadi.

Karbonat angidrid himoyalovchi gazining sarf miqdori mo'ljaldagidan ko'proq olinadi.

Karbonat angidrid gazi quyidagi xususiyatlarga ega:

- bosim oshganida suyuqliqka aylanadi;
- bosimsiz sovitilganida qattiq holatga – quruq muzga aylanadi;
- quruq muz harorat oshganida suyuq holatga o'tmasdan, to'g'ridan-to'g'ri gazga aylanadi.

$\text{CO}_2$  gazi ГОCT 8050-85 asosan tayyorlanadi va 3 ta navda yetkazib beriladi:

- oliv navli –  $\text{CO}_2$  tozaligi 99,8%;
- 1 nav –  $\text{CO}_2$  tozaligi 99,5%;
- 2 nav –  $\text{CO}_2$  tozaligi 98,8%.

Payvandlash ishlari uchun  $\text{CO}_2$  gaz yoki suyuq holatda keltiriladi. Suyuq holatdagi  $\text{CO}_2$  maxsus qurilma yordamida gaz holatiga o'tkazilib so'ng payvandlash joyiga quvur o'tkazgichlar yordamida yetkazib beriladi.

0°C va 760 mm simob ustuni bosimida 1 kg suyuq karbonat angidrid bug'langanida 506,8  $\text{dm}^3$  gaz hosil bo'ladi.

Suyuq  $\text{CO}_2$  40 litr suv sig'imiga ega bo'lgan ballonda 25 kg og'irlikda bo'ladi va gaz holatiga o'tganda 12,6  $\text{m}^3$  hajmni egallaydi.

### Nazorat savollari

1. Himoya gazlar muhitida payvandlashning mohiyati nimadan iborat?
2. Himoya gazlar muhitida payvandlash usullari qanday klassifikasiyalanadi?
3. Himoya gazlar muhitida payvandlash jihozlari jamlanmasiga nimalar qiradi?

## **5- ma’ruza. Himoya gazlari muhitida yoy bilan payvandlash texnologiyasi**

**Reja:**

### **5.1. Turli metall va qotishmalarni payvandlash**

### **5.2. Himoya gazlar muhitida payvandlash uchun jihozlar**

Payavand ishlab chiqarishini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun yuqori unumdarlikka ega bo‘lgan payvandlash mashinalariva jihozlarini qo‘llashga asoslangan avtomatik boshqariladigan mukammal tizimlarni yaratishni tezlashtirish zarur.

Zamonaviy mashinasozlik, ayniqsa uning maxsus sohalari foydalilanladigan materiallar va qotishmalarga yukori talablarni qo‘ymoqda. Payvand birikmalarga va konstruktsiyalarga talablar sezilarli ravishda murakkablashdi. Payvandlash texnologiyasi konstruktsiyalarni murakkab geometrik shakllarini va o‘lchamlarini va dastlabki materialni asosiy xossalarini saqlanishini tahminlashi zarur.

Konstruktsion materiallar orasida xromonikelli qotishmalar muhim o‘rin egallaydi. Yuqori legirlangan po‘latlar va qotishmalar yuqori sovuqqa jidamlilik, issiqlik mustahkamlik, karroziyaga bardoshlilik va issiqbardoshlik xossalariga ega. Bu o‘ta muhim materiallar kimyo, neft, energetik mashinasozligi va sanoatning qator boshqa tarmoqlari uchun haroratning keng diapozonida: salbiydan ijobiygacha ishlovchi konstruktsiyalarni tayyorlashda foydalilanildi.

Yuqori legirlangan austenitli po‘latlardan quvurlar va idishlarni aggressiv muhitlarda ishlash uchun qo‘llaniladi.

Po‘latning payvandlanuvchanligiga undagi uglerodni va legirlovchi elementlarni tarkibi asosiy tahsir ko‘rsatadi.

Asosiy ligerlovchi aralashmalarning po‘latning payvandlanuvchanligiga tahsiri:

- Uglerod (S) – po‘latning mustahkamlik, plastiklik, toplanuvchanlik va boshqa xarakteristikalarini aniqlovchi muhim aralashmalardan biri.

Po‘latlarda uglerodning miqdori 0,25% gacha bo‘lganda payvandlanuvchanligini kamaytirmaydi.

“S” ning ancha yuqori miqdori metallda termik tahsir zonasini va yoriqlarni hosil bo‘lishiga olib keladi.

- Oltingugurt (S) va fosfor (R) – zararli aralashmalar. “S” oshirilgan miqdori qaynoq yoriqlarni hosil bo‘lishiga olib keladi, “P” ning oshib ketishi esa sovuqdan sinishga olib keladi. SHuning uchun oddiy sifatli past uglerodli pÿlatlarda “S” va “P” ning miqdorini 0,4-0,5% gacha chegaralanadi.

- Kremniy (Si) po‘latlarda aralashma ko‘rinishida 0,3% gacha miqdorda erituvchi sifatida ishtirot etadi. Legirlovchi element sifatida “Si” ni 0,8- 1,0% gacha (xususan 1,5% gacha) miqdorda bo‘lganda po‘latni payvandlanuvchanligini yomonlashtiruvchi “Si” ning qiyin eriydigan oksidlari hosil bo‘lishi mumkin.

•Marganets (Mp) po'latda 1,0% gacha miqdorda bo'lganda payvandlash jarayonini qiyinlashtirmaydi. Po'latlarni 1,8-2,5% miqdordagi "Mp" tarkibi metalldagi termik ta'sir zonasida toplaydigan strukturalarni va yoriqlarni paydo bo'lishiga olib keladi.

•Xrom (Sg) kam uglerodli po'latlarda aralashma sifatida 0,3% gacha miqdorda chegaralanadi. Kam legirlangan po'latlarda xromning miqdori 0,7-3,5% chegarasida bo'lishi mumkin. Legirlangan po'latlarda uning miqdori 12% dan 18% gacha tebranib turadi, yuqori xromli po'latlarda esa 35% ga yetadi. Payvandlashda xrom karbidlarni hosil qiladi, bu po'latni zanglashga chidamlilagini oshiradi.

•Nikelg' (Ni) xromga o'xshab kam legirlangan po'latlarda 0,3% gacha miqdorda bo'ladi. O'rtacha legirlangan Po'latlarda uning miqdori 5% gacha oshadi, yuqori legirlangan po'latlarda esa 35% gacha. Nikel po'latni mustahkamlik va plastiklik xossalarini oshiradi, payvandlanuvchanlikka ijobiy tahsir ko'rsatadi.

•Vanadiy (V) legirlangan po'latlarda 0,2- 0,8% miqdorda bo'ladi. U po'latning qovushqoqligini va pastikligini oshiradi, uning strukturasini yaxshilaydi, qizdirilishini oshirishga imkon yaratadi.


•Molibden (Mo) po'latlarda 0,8% da chegaralanadi. Bunday miqdorda u po'latning mustahkamlik ko'rsatkichlariga ijobiy tahsir ko'rsatadi va uning strukturasini maydalaydi. Binobarin u payvandlashda u yonadi va erigan metallda yoriqlarni hosil bj'lishiga imkon yaratadi.

•Mis (Si) po'latlarda aralashma sifatida (0,3% gacha), kam legirlangan po'latlarda qo'shimcha sifatida (0,15 dan 0,5%gacha) va legirlovchi element sifatida ( 0,8-1% gacha). U po'latni payvandlanuvchanligini yomonlamagan holda korroziya xususiyatlarini oshiradi.

## 5.2. Himoya gazlar muhitida payvandlash uchun jihozlar

Eriydigan elektrod bilan himoya gazlarda payvandlash avtomatik yoki yarim avtomatik usulda bajariladi.


Shlangli yarim avtomatlар, himoya gazlarda payvandlash uchun mo'ljallangan (5.1-rasm), ular quyidagi asosiy elementlardan iborat: gorelka 1 tutqichi bilan, elektrod simini gorelkaga uzatish uchun shlang, g'altakdan (3) sim uzatish mexanizmi (2) va yarim avtomatni boshqarish blok (5) laridan iborat. Shu elementlar hamma yarim avtomatlarning turli xil modellarida mavjuddir, lekin konstruksiyasi boshqacharoq bo'lishi mumkin.



**5.1-rasm. Shlangli yarim avtomat chizmasi:**

1 – gorelka; 2 – sim uzatish mexanizmi; 3 – g‘altak; 4 – elekrod simi; 5 – yarim avtomatni boshqarish bloki.

Yarim avtomatning ishchi qismi – bu gorelka. Gorelkaning konstruksiyasi misolida Yarim avtomat gorelkasi (5.2-rasm) xizmat qilishi mumkin, ular kukunli simlar va yaxlit kesimli simlar bilan payvandlash uchun mo‘ljallangan. Gorelka, o‘tish vtulkasi (2) va uchlik (6) bilan egilgan mundshtukdan, ishga tushirish tugmasi bilan dasta (1), himoya qalqoncha (7) va soplo (8) dan tashkil topgan. Soplo payvandlash zonasini atrofida himoya atmosferasini tashkil etadi.



**5.2-rasm. A-1197 shlangli yarim avtomat gorelkasi chizmasi:**

1 – dastak; 2 – o‘tish vtulkasi; 3 – soploga gaz o‘tish uchun tirqish; 4 – ishga tushirish tugmasi; 5 – mundshtuk; 6 – uchlik; 7 – himoya qalqoncha; 8 – soplo; 9 – himoya atmosferasi.

## **6- ma’ruza. Flyus ostida yoyli payvandlash texnologiyasi Reja:**

### **6.1. Flyus ostida payvandlash mohiyati**

### **6.2. Flyus ostida payvandlashda ishlataladigan payvandlash materiallari**


#### **6.1. Flyus ostida payvandlash mohiyati**

Flyus ostida yoyli payvandlash – bu yoyli eritib payvandlashdir, bunda yoy, payvandlash flyusi ostida yonadi.

Flyus ostida payvandlash usuli 1939-yilda Ukraina Fanlar Akademiyasining Elektr payvandlash institutida E.O. Paton ishtiroki bilan,

N.G. Slavyanov g‘oyasi asosida ishlab chiqildi va o‘shanda bu usulga «flyus ostida qoplamasiz elektrod bilan tezkor avtomatik payvandlash» nomi berilgan.

Flyus ostida payvandlashda payvand yoy buyum va payvandlash simi orasida yonadi. Yoy ta’sirida sim eriydi va erish tezligiga nisbatan payvandlash zonasiga uzatiladi. Yoy flyus qatlami bilan qoplangan bo‘ladi. Payvandlash simi (yoy bilan birga) maxsus mexanizm yordamida (avtomatik payvandlash) yoki qo‘lda (yarim avtomatik payvandlash) payvandlash yo‘nalishiga qarab siljitaladi. Yoy issiqligi ta’sirida asosiy metall va flyus eriydi. Erigan simlar, flyus va asosiy metall payvandlash vannasini hosil qiladi. Flyus suyuq parda ko‘rinishida payvandlash zonasini havodan himoyalaydi. Yoy yordamida erigan payvandlash simining metali payvandlash vannasiga tomchilab o‘tadi, u yerda erigan asosiy metall bilan aralashadi. Yoyni uzoqlashtirgan sari payvandlash vannasining metali sovushni boshlaydi, chunki issiqlik yo‘qala boshlaydi, so‘ng qotib chok hosil qiladi. Erigan flyus (shlak), chok yuzasida shlakli qatlama hosil qilib qotadi. Erimagan ortiqcha flyus qismi sovutilib qayta ishlatiladi.



*Payvandlash  
yo‘nalishi*

#### **6.1-rasm. Flyus ostida payvandlash chizmasi:**

- 1 – payvandlanayotgan detal; 2 – flyus qatlami; 3 – payvandlash simi;
- 4 – payvandlash yoyi; 5 – erigan flyus; 6 – shlak qatlami; 7 – flyus qoldig‘i; 8 – payvand chok; 9 – payvandlash vannasi.

#### **6.2. Flyus ostida payvandlashda ishlatiladigan payvandlash materiallari**

**Payvandlash simi.** Payvanllash simidan qoplamlari elektrondlarning eriydigan o‘zaklari yasaladi. Flyus ostida va himoya gazlari muhitida payvandlashda payvand sim eriydigan qoplamasiz elektrod sifatida ishlatiladi.

ГОСТ 2246-70 "Payvandlash po‘lat simi" ga ko‘ra payvandlash simi 0,3; 0,5; 0,8; 1; 1,2; 1,4; 1,6; 2; 2,5; 3,0; 4; 5; 6; 8; 10 va 12 mm diametrda ishlab chiqariladi. Birinchi yettita diametrli simlar asosan himoya gazlari muhitida yarim avtomatik va avtomatik payvandlashga mo‘ljallangan. Flyus ostida yarim avtomatik va avtomatik payvandlash uchun 2–6 mm diametrli sim ishlatiladi. Diametri 1,6–12,0 mm bo‘lgan simdan

elektrodlarning o‘zaklari tayyorlanadi. Sim og‘irligi ko‘pi bilan 40 kg gacha buxta-o‘ram sifatida ishlab chiqariladi.

**ГОСТ 2246-70** kimyoviy tarkibi turlicha bo‘lgan po‘lat simlarning quyidagi 77 ta markasini ishlab chiqarishni nazarda tutadi:

a) tarkibida 0,12% gacha uglerod bo‘lgan hamda kam va o‘rtacha uglerodli, shuningdek ba’zi bir kam legirlangan po‘latlarni payvandlashga mo‘ljallangan kam uglerodli simlar, ular jumlasiga, Св-08, СВ-08А, Св-08АА Св-08ГА, Св-10ГА, Св-10Г2 lar kiradi;

b) tegishli markalardagi kam legirlangan po‘latlarni payvandlashda ishlatiladigan marganes, kremniy, xrom, nikel, molibden va titan bilan legirlangan simlar; bunday simlarga jami 30 ta rusumli simlarni tashkil etadi, shu jumladan simlar Св-08ГС, Св-08Г2С, Св-12ГС ва boshqalar kiradi;

d) maxsus po‘latlarni payvandlash va eritib qoplash uchun mo‘ljallangan ko‘p legirlangan Св-12Х11НМФ, Св-12Х13, Св-08Х14ГНТ ва boshqa markadagi simlar; jami 41 ta markani tashkil etadi.

### **6.1- jadval**

#### **Legirlovchi elementlarning belgilanishi**

Nomi	Elementning Mendeleyev davriy sistemasidagi shartli belgisi	Metallni markalashdagi belgisi
Azot	N	А*
Niobiy	Nb	Б
Volfram	W	В
Marganes	Mn	Г
Mis	Cu	Д
Kobalt	Co	К
Molibden	Mo	М
Nikel	Ni	Н
Bor	B	Р
Kremniy	Si	С
Titan	Ti	Т
Vanadiy	V	Φ
Xrom	Cr	Х
Aluminiy	Al	Ю

\* Yuqori legirlangan po‘latlarni markalashda belgini oxirida qo‘yish mumkin emas.

Payvandlash simining belgisi Св (payvandlash) harfi bilan va uning tarkibini bildiruvchi harfiy-raqamli belgi bilan belgilanadi. Birinchi ikki raqam simda uglerodning foizining yuzdan bir qismi miqdorini ko‘rsatadi. So‘ngra harf va raqam (raqamlar) bilan navbatli bilan legirlovchi elementlarning nomi va foizlarda miqdori ko‘rsatilgan bo‘ladi. Legirlovchi

element miqdori 1 % dan kam bo'lsa, bu elementning nomini bildiruvchi harfning o'ziga qo'yiladi.

Po'lat markasi oxiridagi A harfi uning yuqori sifatli ekanligini va unda oltingugurt hamda fosfor miqdori nisbatan kam ekanligini bildiradi.

Payvandlash simlarining diametrlari esa raqam bilan ularning markalari oldiga yozib ko'rsatiladi.

Ko'p hollarda payvandlash simlarining markalar oxirida quydagি harflarni uchratishimiz mumkin:

"О" – simning sirti mis qatlami bilan qoplanganini bilidiradi.

"Э" – qoplamali elektrod tayyorlashga ishlatilishini bildiradi.

"Ш" – elektr-shlak usulida eritilgan po'latdan tayyorlangan.

"ВД" – vakuum-yoyli usulida eritilgan po'latdan tayyorlangan.

"ВИ" – vakuum-induksion usulida eritilgan po'latdan tayyorlangan.

Simning sirti toza va silliq, kuyindisiz, zanglamagan va moysiz bo'lishi kerak. Payvandlashning mexanizatsiyalashtirilgan usullarida ishlatiladigan sim sirtiga mis qoplab chiqarilishi mumkin.

**Payvandlash flyuslari.** Payvandlash flyuslari – metall bo'limgan harxil elementlardan tayyorlangan bo'lib, uning donachalarni 0,25 dan 4mm gacha bo'ladi. Payvandlashning mexanizatsiyalashtirilgan usuli bilan ishlashda flyuslardan foydalaniladi. Flyuslar yoy ta'siri ostida eriydi, gazli va shlakli himoyalovchi fazalarni hosil qiladi, payvandlash vannasini ifloslantiruvchi qo'shimchalardan tozalaydi hamda oltingugurt va fosforni biriktirib olgan holda choc yuzida shlak ko'rinishda qotadi.

Payvandlashda ishlatiladigan flyuslarga bir qator talablar qo'yiladi:

1. Payvandlash vaqtida yoyni barqaror yonishini ta'minlash.  
2. Ko'zda tutilgan kimyoviy tarkibli va kerakli xususiyatga ega bo'lgan payvand chokini ta'minlash.

3. Yaxshi shakllangan payvand chokini ta'minlash.

4. Payvand chokini nuqson siz bajarilishini ta'minlash.

5. Chok yuzasidan shlakning oson ko'chishini ta'minlash.

Yoyni barqaror yonishi flyus tarkibida yengil ionlashuvchi komponentlar qo'shish bilan ta'minlanadi. Payvand chokining tarkibi asosan payvandlanayotgan metall va elektrod simlarining flyus bilan ta'sirlashishni hisobga olgan holda ta'minlanadi. Chokning yaxshi shakllanishi va choc sirtidan shlakni oson ko'chishi flyusning fizik-kimyoviy xususiyatlarini boshqarish usuli bilan amalga oshiriladi, flyusning erish harorati, suyuqlayin oqish darajasi, metall-shlak qo'shimchalari, g'ovaklar bo'imasligi asosan flyus tarkibiga kiritiluvchi legirlovchi va oksidsizlantiruvchi komponentlar ta'minlaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar nazarda tutilsa, flyuslar juda xilma-xil hamda turlicha bo'ladi va ularning bir necha belgilari bilan klassifikatsiyalash mumkin.

**Flyuslarni klassifikatsiyalash.** Flyuslarni quyidagi asosiy belgilari bo'yicha klassifikatsiyalash mumkin:

1. Flyuslarni tayyorlash usuli bo'yicha:

- a) eritib tayyorlangan flyuslar.
- b) eritmasdan tayyorlangan (sopol) flyuslar.
- d) flyus-pastalar.

2. Mo‘ljallanishi bo‘yicha:

a) ma’lum bir payvandlash usuliga mo‘ljallangan (yoysi payvandlash uchun, elektr-shlak usulida payvandlash uchun).

b) ma’lum bir metallni payvandlash uchun (po‘latlarni payvandlash uchun, aluminiyini, titanni, misni, magniyini, bronzani va hokazolarni payvandlash uchun).

3. Kimyoviy tarkibi bo‘yicha:

a) Oksidlovchi flyuslar. Ular o‘zlarini tarkiblariga marganes va kremniy oksidlarini ko‘p miqdorda qiritgan bo‘lib payvandlash jarayonida vanna metallini qisman oksidlaydi va o‘zları toza marganes va kremniy ko‘rinishida chok tarkibiga o‘tib, ular bilan chokni boyitadi. Oksidlovchi flyuslar asosan uglerodli va kamlegirlangan po‘latlarni payvandlashda ishlatiladi.

b) Oksidlamaydigan flyuslar. Ularni tarkibida marganes va kremniy oksidlari deyarli bo‘lmaydi, asosan barqaror bog‘lamli oksidlardan tashkil topgan bo‘ladi. Jumladan kalsiy oksidi, magniy oksidi, aluminiy oksidi va ulardan tashqari kalsiy ftoridi qo‘shilgan bo‘ladi.

Bunday flyuslar asosan o‘rta va yuqori legirlangan po‘latlarni payvandlashda ishlatiladi.

d) Kislorodsiz flyuslar. Ularning tarkibi ishqoriy va yer-ishqoriy metallarining ftorli hamda xlorli tuzlaridan va tarkibida kislorod bo‘limgan boshqa birikmalardan tashkil topgan bo‘ladi. Bunday flyuslar kimyoviy faolligi yuqori bo‘lgan rangli metallarni payvandlashda ishlatiladi. Jumladan aluminiy, magniy, titan va boshqalar.

### **Nazorat savollari**

1. Flyus ostida yoyli payvandlash jarayonining mohiyati nimada?
2. Flyus qanday maqsadlarda ishlatiladi?
3. Flyuslar tayyorlanish usuli va qo‘llanishiga nisbatan qanday ajratiladi?

## **7- ma’ruza. Flyus ostida yoyli payvandlashning usullari va rejim parametrlari**

### **Reja:**

#### **7.1. Flyus ostida payvandlash uchun jihozlar**


#### **7.2. Flyus ostida payvandlash rejimi hisobi**

Mexanizatsiyalashgan flyus ostida yoyli payvandlashni bajarish uchun jihozlar jamlanmasi kerak bo‘ladi, bular: ta’minalash manbayi, payvandlash apparati, mexanik jihozlar va qurilmalar bular buyumni yig‘ishda aniqlik uchun va sifatli payvand birikmani hosil qilish uchun kerakdir. Ushbu texnologik jihatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan jihozlar jamlanmasi *payvandlash uskunalarini* deb ataladi.

*Payvandlash apparati* deb payvand birikmani bajarishda operatsiya va usullarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish uchun kerak bo‘ladigan elektr asboblar hamda mexanizmlar jamlanmasiga aytildi. Payvand birikmaning bajarish jarayoni uchun operatsiya va usullarni quyidagicha ajratish mumkin: payvand yoyini qo‘zg‘atish va talab etilgan rejimlarda yoy yonishinining turg‘unligini ta‘minlash, payvandlash zonasiga elektrodnii uzatish, chok o‘qi bo‘ylab elektrodnii yo‘naltirish, talab etilgan tezlik bilan yo‘naltirilgan yo‘nalish bo‘yicha yoy siljishini payvandlanayotgan qirralar bo‘yicha siljitish, payvandlash zonasiga flyusni uzatish, ishlatilmagan flyusni yig‘ish, payvandlash jarayonini to‘xtatish va kraterni payvandlab to‘ldirish.

Yoyni qo‘zg‘atish, elektrod simini uzatish rejimni ushlab turish va payvandlash jarayonini to‘xtatish qurilmasiga *payvandlash kallagi* deyiladi.

Agar payvandlash kallagi to‘g‘rilash mexanizmi tizimi bilan, flyus uchun bunker, sim uchun kassetalar o‘zi yurar aravachaga biriktirilgan bo‘lsa u o‘zi yurar *payvandlash avtomati* deyildi (8.1-rasm). O‘zi yurar payvandlash avtomati maxsus o‘rnatilgan yo‘naltirgichlar bo‘ylab harakatlanadi va bir yoki bir turli buyumlarni payvandlash uchun mo‘ljallangan.




**7.2 - rasm. Elektr yoyli flyus ostida payvandlash uchun avtomat:**

1 – ishlatilmagan flyusni tortuvchi qurilma; 2 – elektrod uzatish mexanizmi; 3 – uzatish mexanizmining yuritgichi; 4 – reduktor; 5 – ko‘ndalang korrektor; 6 – ko‘tarish mexanizmi; 7 – yuruvchi mexanizm; 8 – flyus-apparat; 9 – relsli yo‘l; 10 – krestovina; 11 – simni to‘g‘rilash mexanizmi; 12 – uzatuvchi rolik; 13 – mundshtuk; 14 – yoritgichli ko‘rsatgich; 15 – flyus uchun o‘ra.

Payvand birikmani bajarish jarayonida payvandlash qirralari yo‘nalishi bo‘yicha, bevosita buyum yuzasi bo‘yicha yoki rels yo‘li bo‘yicha

harakatlanuvchi payvandlash apparatiga *payvandlash traktori* deyiladi (8.2-rasm).



**7.3-rasm. Payvandlash traktori:**

1 – aravacha; 2 – ko'ndalang korrektor; 3 – ustun; 4 – mufta dastasi; 5 – fiksator maxovigi; 6 – boshqaruv pulti; 7 – g'altak; 8 – dastak; 9 – shayin; 10 – flyus uchun bunker; 11 – dasta; 12 – vertikal korrektor; 13 – payvandlash kallagi.

## 7.2. Flyus ostida payvandlash rejimi hisobi

Flyus ostida payvandlash rejimi asosiy parametrlariga quyidagilar kiradi: payvandlash toki, yoydagи kuchlanish, payvandlash tezligi, payvandlash simining uzatish tezligi.

1. Payvandlash toki kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_{\text{pay}} = (80 - 100)h_1.$$

Bunda  $h_1$  – erish chuqurligi, mm.

Bir o'tishli bir tomonli payvandlashda  $h_1 = s$  qabul qilinadi, ikki tomonli payvandlashda  $h_1 = (0,6 - 0,7)s$  (tirqishsiz yig'ish, payvandlash chetlarini tayyorlab), bunda  $s$  – payvandlanayotgan detal qalinligi. Burchak choklarni payvandlashda uchma-uch birikmalarni payvandlashdagi hisoblashlar bajariladi, payvandlash qirralari  $90^\circ$  ga ochiladi.

2. Elektrod simi diametri, mm

$$d_e = 1,13 \sqrt{I_{\text{pay}} / j}.$$

Bunda  $j$  – tok zichligi,  $\text{A/mm}^2$ .

Tok zichligi chegarasi turli diametrli elektrodlar uchun turlidir (8.1-jadval).

## 7.1- jadval

### Elektrod diametriga nisbatan tok zichligi chegarasiga bog'liqligi

$d_E, \text{mm}$	2	3	4	5	6
------------------	---	---	---	---	---

j, A/mm <sup>2</sup>	65–200	45–90	35–60	30–50	25–45
-------------------------	--------	-------	-------	-------	-------

3. Payvandlash tezligi:

$$v_{\text{pay}} = A/I_{\text{pay}}, \text{ m/soat.}$$

A koeffitsienti bu yerda elektrod diametriga nisbatan tanlanadi (8.2-jadval):

### 7.2-jadval

**A koeffitsientini elektrod diametriga nisbatan bog'liqlik chegarasi**

d <sub>E</sub> , mm	2	3	4	5	6
A · 10 <sup>-3</sup> , A · m / soat	8–12	12–16	16–20	20–25	25–30

4. Yoydag'i kuchlanish:

$$U_{\text{yoy}} = 20 + \frac{50 \cdot 10^{-3}}{\sqrt{d_e}} \pm 1, \text{ V.}$$

### Nazorat savollari

1. Payvandlash avtomati deb nimagaaytiladi?
2. Payvandlash traktori deb nimagaaytiladi?
3. Payvandlash rejimining asosiy parametrlariga nimalar kiradi?

## 8- ma'ruba. Elektr-shlak payvandlash Reja

### 8.1. Elektr-shlak payvandlash mohiyati


### 8.2. Elektr-shlak payvandlash usullari

### 8.1. Elektr-shlak payvandlash mohiyati

Elektr-shlak payvandlash – bu eritib payvandlash usuli bo'lib, bunda chokni qizdirish uchun issiqlik, erigan shlak orqali o'tayotgan elektr tok yordamida ta'minlanadi.

Elektr-shlak payvandlash usuli XX asrning 50-yillarida Ukraina fanlar akademiyasining elektr payvandlash institutida ishlab chiqildi. 1949-yilda G.Z. Voloshkevich birinchi bo'lib elektrod simlari bilan elektr-shlak payvandlashni amalga oshirdi. 1955-yilda Novokramator mashinasozlik zavodida sanoat sharoitida yassi elektrodlar bilan elektr-shlak payvandlashni birinchi bo'lib Yu.A. Sterenbogen amalga oshira oldi.

Elektr-shlak payvandlashda elektr toki shlakli vannadan o'tayotib asosiy va qo'shimcha metallni eritadi va eritmaning yuqori haroratini ushlab turadi.



### 8.1-rasm. Elektr-shlak payvandlash chizmasi:


1 – s qalinlikdagi payvandlanayotgan detal; 2 – elektrod uzatish uchun mundshtuk; 3 – elektrod; 4 – shlak vannasining h chuqurligi; 5 – metall vannasining  $h_m$  chuqurligi; 6 – qoliplaydigan polzun. Detallar  $b_{pay}$  oraliqda tanlangan;  $l_{pay}$  – elektrod chiqishi.

Elektr-shlak jarayon, shlak vannasining 35–60 mm chuqurligida turg‘indir, bu uchun esa chok o‘zagining joylashishi vertikal holatda bo‘lishi kerak. Chok yuzasini majburiy sovitish uchun misdan yasalgan qurilma yordamidan foydalananiladi. Bu qurilma qizib ketmasligi uchun undan suv o‘tib turadi. Elektr-shlak payvandlashda elektr quvvatning hammasi shlak vannasiga o‘tadi undan esa elektroddga va payvandlanayotgan qirralarga o‘tadi. Jarayon turg‘un kechishi uchun shlak vannasida doimiy harorat 1900–2000°C bo‘lishi kerak. Payvandlanayotgan metallar qalinlik diapazoni 20–3000 mm.

### 8.2. Elektr-shlak payvandlash usullari

Elektr-shlak payvandlashni uch usul bilan bajarish mumkin, har bir usul o‘z mohiyati va qo‘llanish sohasiga ega.

**1) Simli elektroddlar bilan payvandlash,** diametri 3...5 mm bo‘lgan payvandlash tirkishiga tok uzatuvchi misli maxsus mundshtuklar uzatiladi (8.2- a rasm). Shu bilan birga shlak vannasiga uchtagacha elektrod simi uzatiladi, bu bilan uch fazali ta’minlash manbalarini ishlatish mumkin bo‘ladi. Shlak vannasida issiqlik ajralishi asosan elektrod atrofida bo‘lganligi uchun, bitta elektrod simini ishlatilganda payvandlanayotgan metallning maksimal qalinligi 60 mm ni tashkil etadi, uchta sim bilan bajarilganda – 200 mm gacha. Agar mundshtuklarga tirkishda  $v_k$  tezlik bilan qaytma-ilgarilanma harakat bilan ta’sir etsa, payvandlanayotgan qirralar qalinligi 2,5 baravar katta bo‘lishi mumkin.



**8.2-rasm. Elektr-shlak payvandlash usullari:**

a – simli elektrodlar bilan; b – plastinali elektrodlar bilan; d – eriydigan mundshtuk bilan: 1 – elektrod simi; 2 – plastinali elektrod; 3 – eriydigan mundshtuk; 4 – uzatish mexanizmi; 5 – qoliplovchi qurilma; 6 – shlakli vanna; 7 – erigan metall vannasi; 8 – payvandlanayotgan metall.

**2) Katta kesimli elektrodlar bilan payvandlash,** payvandlashda tirkishiga uzatib bajariladi (9.2- b rasm). Elektrod sifatida 1...1,2 mm qalinlikdagi tasmalar yoki 10...12 mm qalinlikdagi va uzunligi chok uzunligining uch baravariga teng bo‘lgan plastinalar qo‘llanilishi mumkin. Bitta plastinali elektrod bilan 200 mm gacha qalin bo‘lgan metallar payvandlanadi, uchta elektrod bilan esa 800 mm gacha,  $v_e = 1,2 \dots 3,5 \text{ m/soat}$  bilan payvandlanadi.

Yuqoridagi ikki usul ham nisbatan uncha qalin bo‘lmagan metallarni payvandlashda ishlatiladi. Payvandlash tirkishida mavjud harakatdagi mundshtuklar yoki plastinalar detallar qirralarida qisqa tutashuvlarga olib kelishi mumkin, bu o‘z navbatida payvandlash jarayoni stabil kechishiga xalaqt beradi. Tok o‘tkazuvchi mundshtuklarning quvurchalari tez yeyilishi payvandlash qurilmalariga xizmat ko‘rsatish qiyinlashtiradi va narxi baland bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin hamda jarayon stabil kechishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Plastinali elektrodlarning uncha katta bo‘lmagan uzunligi payvand choklarni uzunligini cheklab qo‘yyadi.

**3) Eriydigan mundshtuklar bilan payvandlash.** Eriydigan mundshtuklar bilan payvandlash, tirkishda harakatsiz joylashish holatida payvandlashni bajarilishi (9.2- d rasm) ko‘rsatilgan. Payvandlash uchun qo‘sishmcha ashyo yetmay qolganda payvandlash simidan tayyorlangan 3 mm diametrli elektrod simlarini ingichka quvurchali yoki spiralsimon o‘ralgan kanallar orqali uzatish natijasida qo‘sishmcha ashyo yetkazib beriladi. Bitta mundshtuk orqali elektrod simini baravariga oltitagacha uzatish mumkin. Bunday mundshtuklar bilan metallarni 500 mm qalinligigacha payvandlash mumkin, ikkita mundshtuklar bilan – 1000 mm gacha, uchta mundshtuklar bilan – 1500 mm gacha bo‘lgan qalin metallar payvandlanadi. Bu usul elektr-shlak payvandlashni oldingi ikki usulining kamchiliklarini bartaraf etib imkoniyatlarini kengaytiradi. Eriydigan mundshtuklar bilan elektr-shlak payvandlashni qo‘llash bilan turli qalinlikda va murakkab kesim shakllarda bo‘lgan metallarni payvandlash mumkin.

## 9- ma’ruza. Elektr-shlak payvandlashning texnologiyasi


Reja:

### 9.1. Elektrshlak payvandlashning jihozlari

### 9.2. Elektr-shlak payvandlash rejimlari

#### 9.1. Elektr-shlak payvandlashning jihozlari


Chok tashqi yuzasini shaklga keltirish uchun misdan tayyorlangan suv bilan sovituvchi polzunlar yoki qo‘zg‘almas qoplamlalar ishlataladi (10.1-rasm).



**9.1-rasm.** Elektr-shlak payvandlash uchun harakatlanuvchi va qo‘zg‘almas shakllantiruvchi qurilmalar (polzun):

a – qattiq; b – sharnirli; d – ustkesma; e – tarkibiy; f – burchak birikmalar uchun; g, h – egiluvchan tagliklar; i, j – erigan qatlam uchun.

Chok shaklini majburiy shakllantirish usuliga nisbatan payvandlash apparatlari sirpanuvchi polzunlar bilan yoki almashtiruvchi qoplamlalar bilan bo‘ladi. Masalan, relsli payvandlash apparati (9.2-rasm) chok hosil bo‘lishiga qarab shakllantiruvchi polzunlarni vertikal siljishini ta’minlaydi va payvandlash vannasida elektrodlarning ko‘ndalang harakatini ta’minlaydi. Ushbu rusumli payvandlash apparatlarini simli va plastinali elektrodlar bilan to‘g‘ri chiziqli va halqali choklarni uchma-uch va burchak birikmalar hosil qilish uchun mo‘ljallangan.



**9.2-rasm. Universal relsli apparat:**

1 – boshqaruv pulti; 2 – tebranish mexanizmi; 3 – harakatlanuvchi aravacha; 4 – rels; 5 – bunker; 6 – mundshtuklarning holatini to‘g‘rilovchi korrektor; 7 – planka; 8 – mundshtuklar; 9 – tortqi; 10, 11 – polzunlar; 12 – kallak; 13 – g‘altak.

## 9.2. Elektr-shlak payvandlash rejimlari

Metallurgik jarayonlarning jadalligi elektr-shlak payvandlash rejimiga bog‘liq. Elektr-shlak payvandlashda payvandlash rejimiga quyidagilar qiradi: payvandlash vannasi va elektrod hududidagi kuchlanish  $U_{\text{pay}}$ , elektrod simini uzatish tezligi  $v_e$ , payvandlash toki  $I_{\text{pay}}$ , payvandlash tezligi  $v_{\text{pay}}$ , shlak vannasining chuqurligi  $h_s$ , elektrod simini quruq chiqish (mundshtukdan shlak vannasigacha bo‘lgan oraliq) uzunligi  $l_s$ , elektrodlar soni  $n$ , qirralar orasidagi tirkish  $b$ , payvandlanayotgan metall qalinligi  $s$ .

Elektr-shlak payvandlashning parametrlarini to‘g‘ri tanlash va qo‘yilgan darajada ushlab turish sifatli payvand birikmani hosil qilishni ta’minlaydi.

Payvandlash toki  $A$  qiymatini, quyidagi formula bo‘yicha taxminiy hisoblash mumkin:

$$I_{\text{pay}} = (0,022v_c + 90)n + 1,2(v_{\text{pay}} + 0,48 v_u)\delta_p b_p,$$

bunda  $v_u$  – plastina uzatish tezligi, sm/s;  $b_p$  va  $\delta_p$  – eni va qalinligi sm. Ushbu formula sim elektrodlar bilan payvandlashda (ikkinchi qo‘shilayotgan son nolga aylanadi, chunki plastinalar yo‘q) qo‘l keladi va plastinali elektrodlar bilan payvandlashda ham (birinchi qo‘shilayotgan son nolga aylanadi, chunki sim elektrod yo‘q) qo‘l keladi.

Elektrod simini uzatish tezligi:

$$v_c = v_{\text{pay}} F_q / F_e,$$

bunda  $F_q = b_{ss} \cdot sm^2$ ;  $\sum F_c = 0,071n \cdot sm^2$ .

Tajriba shuni ko'rsatdiki, shlak vannasining chuqurligi  $h_s$  va elektrod simining quruq chiqishi  $l_s$  kabi rejim elementlari metall qalinligiga bog'liq emas va quyidagi qiymatga egadir:

$$h_s=40-50 \text{ mm}, \quad l_s=80-90 \text{ mm}.$$

## 10- ma'ruza. Elektron-nurli payvandlash

Reja:

### 10.1. Elektron-nurli payvandlash mohiyati


### 10.2. Elektron nurli payvandlashda qo'llaniladigan jihozlar

#### 10.1. Elektron-nurli payvandlash mohiyati

Elektron-nurli payvandlash – bu eritib payvandlash usuli bo'lib, bunda metall qizishi elektr maydon ta'sirida tez harakatlanuvchi elektron nurlar oqimi natijasida qiziydi. Elektronlar buyum yuzasiga tegib o'zining kinetik energiyasini berib issiqqliq energiyasiga aylanadi va metallni 5000–6000°C gacha qizdiradi. Ushbu jarayon, odatda, germetik yopiq kamerada bajariladi (vakuum ushlanib turilishi kerak). Elektron nur yordamida payvandlashda buyumlar qalinligi 0,01 dan 100 mm va bundan ham qalinroq bo'lishi mumkin.

1879-yilda Kruks, katodli nurlar yordamida platinani qizdirishni ko'rsatdi. Tompson katod nurlari elektr zaryadlangan zarralarni tashkil etishini aniqladi. Milliken 1905 – 1917-yillarda elektronlarni o'ziga xos tabiyatini va zaryadini aniqladi hamda isbotladi. Elektron-nurli payvandlash texnika va texnologiyasi D.A Stor nomi bilan bog'liq, u fransuz atom energiyasi komissiyasida ishlab o'zining tadqiqot natijalarini 1957-yilda chop etdi.

Elektron nurli payvandlash jarayoni, odatda, germetik yopiq kamerada bajariladi, ushbu kamerada vakuum  $10^{-1}-10^{-3}$ Pa ni tashkil etadi. Vakuum elektronlarning erkin harakati uchun, ionizatsiya jarayonidagi gazsimon molekulalar bilan to'qnashishini kamaytirish uchun juda muhimdir. Hamda vakuum eritib qoplanayotgan metallning tozaligini ta'minlash uchun, uni oksidlanishi va azotlanishining oldini olish uchun undagi bug'langan gazlarning miqdorini kamaytirish uchun ham muhim rol o'ynadi. Vakuum, to'xtovsiz ishlatiladigan vakuum nasoslari yordamida ta'minlanadi. Elektronlar manbayi sifatida nakallanayotgan katod xizmat qiladi, katod esa past voltli transformatoridan manbalanadi. Elektronlar past voltli transformatoridan yuqori kuchlanishlarga 10–100 kV aylanadi, odatda, 30 kV kuchlanish qo'llaniladi, chunki yanada yuqori kuchlanishlarda rentgen nurlari hosil boladi va payvandchiga maxsus himoya talab etiladi.




### 10.1-rasm. Elektron-nurli payvandlash sxemasi:

1 – payvandlanayotgan detallar; 2 – kamera; 3 – siljuvchi mexanizm;  
4 – elektron-nur.

Taxminan 99% li yuqori vakuumda, yuqori tezlik bilan harakatlanayotgan elektronlar bilan metallni yoki boshqa bir materialni intensiv ravishda bombardirovka qilinsa, uning kinetik energiyasi issiqlik energiyasiga o'tadi va buyumni qizdirishga sarf bo'ladi.


Yupqa tunukali metallni payvandlash ( $s \leq 1-3$  mm), odatda, fokusi yoyilgan elektronlar to'dasi bilan bajariladi (11.2- a rasm). Qalin tunukali metallarni payvandlashda uchqir fokuslangan elektronlar to'dasi yordamida bajariladi (11.2- b rasm).



### 10.2-rasm. Elektron nurli payvandlashning sxematik ko'rinishi:

a – yupqa metallarni payvandlashda, b – qalin metallarni payvandlashda:

1 – buyumni harakatlanish yo'nalishi; 2 – kristallizatsiyalanish fronti; 3 – elektronlar to'dasi; 4 – metallning bug'lanish yo'nialishi; 5 – payvandlash vannasining yuqori qismida metallni tashqariga chiqish yo'nalishi; 6 – payvand chokning ko'ndalang cho'kishi.



### **10.3-rasm. Elektron nurli payvandlashda ayrim birikmalarning turlari:**

a – payvandlash qiyin bo‘lgan joylarni payvandlash; b – nur bilan kesib o‘tib bir o‘tishli payvandlash; d – mustahkamlikni ta’min etuvchi qovurg‘a orqali payvandlash; e – to’siqlarni payvandlash.

#### *Elektron nurli payvandlashning avzalliklari:*

- 1) Elektron nurli payvandlash uchun energiyaning yuqori konsentratsiyasi talab etiladi, shuning uchun boshqa usullarga nisbatan sarf bo‘layotgan issiqlik miqdori o‘n marta kam sarf bo‘ladi.
- 2) Elektron nurli payvandlashda erigan metall xududi cho‘ziq pona ko‘rinishida bo‘ladi, erish chuqurligi eniga nisbatan 26:1 qiymatlarda bo‘lishi mumkin. Bu hodisa xanjarli eritish deb ataladi.
- 3) Chok atrof -muhitdan tushadigan kirlardan holi.
- 4) Turli xil qalinlikda bo‘lgan har xil metallarni payvandlash imkoniyatiga ega.

## **11- ma’ruza. Elektron-nurli payvandlash uchun jihozlar**

### **Reja:**

#### **11. 1. Elektron nurli payvandlashda qo‘llaniladigan jihozlar**


##### **11. 1. Elektron nurli payvandlashda qo‘llaniladigan jihozlar**

Elektron nurni, shakllantirish va fokuslash uchun kompleks qurilmalarini elektron payvandlash zambaragi deb ataladi.

Elektronlarni emissiyalash uchun qurilma (1) quyidagilardan tashkil topgan; halqa simon shakllantiruvchi elektrodga biriktirilgan volframli katoddan (Venelta silindri) va uning ostida markaziy tirqishga ega bo‘lgan diskli anod joylashgan.

Katodni qizdirish natijasida uning yuzasidan elektronlar nurlanadi, bu elektronlar qurilmaning elektrodi yordamida bir nuqtaga shakllanadi, elektrod katod orqasida joylashgan. Katod va anod orasidagi potensiallarning yuqori ayirmasi oqibatida vujudga kelgan elektr maydon ta’sirida aniq yo‘nalish bo‘yicha tezlashadi.

Uzluksiz rostlanuvchi tok bilan ta'minlanayotgan g'altaklarning magnit maydoni (3), nurni g'altak o'qi bo'ylab yo'naltiradi. Diafragma (4) nurni energetik kam effektiv bo'lgan atrof -hududlarini kesib tashlaydi, magnit linza (5) esa ishlov berilayotgan buyum yuzasida dumaloq nuqtaga fokuslaydi. Elektron nur yordamida payvandlash va termik ishlov berish uchun zamonaviy qurilmalarda, elektron nur diametri 0,001 sm dan kam bo'lgan yuzaga fokuslaydi. Og'uvchi g'altaklar (6) yordamida vakuum kamerasiga joylashtirilgan ishlov berilayotgan buyum yuzasi bo'ylab nurni harakatlantirsa bo'ladi. Ko'zgu, o'q bo'ylab tirqishga ega bo'lgan obyektiv va mikroskopdan iborat optik tizim (7), payvandlash jarayonini bir necha bor yiriklashtirilgan holda nazarat qilish imkonini beradi, Ishlov berilayotgan buyum (8), stolga (9) joylashtiriladi va bir xil tezlikda harakatlantiriladi.



### **11.1 - rasm. Elektron nurli qurilmaning ko'rinishi:**

1 – volframli katod; 2 – diskli anod; 3 – o'zak bo'ylab elektron-nurni fokuslovchi g'altaklar; 4 – nurning energetik kam effektivli chekka maydonlari; 5 – detal yuzasida dumaloq dog' fokuslovchi nur magnit linzasi; 6 – detal yuzasi bo'yicha siljuvchi nur og'ish g'altagi; 7 – payvandlash jarayonini kuzatuvchi tizim; 8 – payvandlanayotgan detallar; 9 – detallarni siljituvgchi va fiksasiyalovchi stol.

Elektron nurli qurilmaning muhim qismi kamera hisoblanadi, chunki payvandlash ishi shu joyda bajariladi. Kameraning konstruksiyasi va

o‘lchamlari qurilmaning mo‘ljallanishiga bog‘liq. Universal payvandlash kameralar nisbatan uncha katta bo‘lmagan hajmga egadir va ular quvur hamda tunuka metallarni payvandlash uchun uzatuvchi qurilmalar bilan jihozlangandir. Ushbu qurilmalar bir tekis ravon rostlanishi, ishchi stolining bir tekis tezlikda turg‘un harakatlanishi hamda quvur uzatmalarni pavandlashda quvurlarni gorizontal va vertikal tekisliklarda bemalol harakatlanishini ta’min etishi kerak. Ayrim kameralarda elektron zambarakni gorizontal va vertikal yo‘nalish bo‘ylab harakatlanishi inobatga olingan.

Kameraga payvandlanayotgan buyumni joylash vakuum holatini buzib yoki uzlusiz ravishda shlyuz kameralar orqali joylashtirish mumkin.

Katod va anod orasidagi kuchlanish qiymatiga nisbatan ikki tur elektron nurli zambarak farqlanadi: past voltli kuchlanish tezligi  $10\div30$  kV va yuqori voltli kuchlanish tezligi 150 kV gacha. Elektron nurli payvandlash uchun qurilmalarda elektron nurning toki katta emas, tok bir necha milliamperdan bir ampergacha bo‘ladi.


## 12- ma’ruza. Lazerli payvandlash Reja

- 12.1. Lazerli payvandlashning mohiyati
- 12.2. Texnologik lazerlarning klassifikatsiyasi.
- 12.3. Lazerli payvandlash uchun jihozlar

**Lazerli payvandlash** – bu eritib payvandlash usuli bo‘lib, bunda detalni qizdirish uchun lazer nurlanish energiyasi qo‘llaniladi.

XX asrning 60-yillarida rus fiziklari N.G. Basov va A.M. Proxorov va amerikalik fizik Ch. Taunslarning ishlari asosida optik kvant generatorlar yoki lazerlar ishlab chiqildi. Birinchi bo‘lib metallarni lazerli payvandlash ma’lumotlari 1962-yilga tegishli. 1964–1966-yillarda rubinli qattiq jismi lazerlar ishlab chiqilgandan so‘ng, lazer qurilmalari ishlab chiqildi.

Lazerli payvandlashda issiqqliq manbayi sifatida, maxsus qurilmadan olinadigan texnologik lazer deb ataluvchi kuchli konsentratlashgan yorug‘lik nuri ishlatiladi.




### 12.1-rasm. Lazerli payvandlash chizmasi:

1 – faol muhit o‘zagi; 2 – damlash lampasi; 3 – rezonator ko‘zgulari; 4 – yoritgichning ko‘zguli silindri; 5 – payvandlanayotgan detalning fokuslash tizimi va payvandlash jarayonini nazorat qilish.

Qattiq jismli texnologik lazer – bu silindrik o‘zak shaklidagi rubin kristall; yaltiratib kumushlangan yuzalari optik nur qaytargichlar bo‘lib hisoblanadi. O‘zakning chiqib turuvchi qismi yorug‘lik nurlari uchun qisman shofof. Pushti rangli rubin  $\text{Al}_2\text{O}_3$ , xrom atomlarini tashkil etadi, ularning har birini uchta energetik darajasi mavjud.

Nurlanuvchi trubkaning ksenon lampa chaqnashida xrom atomlari yonib yuqori energetik darajasi bilan tavsiflanadi. Taxminan 0,05 mikro sekunddan keyin qizil rangli fotonlarni tartibsiz nurlatib uyg‘ongan atomlarning bir qismi avvalgi energetik holatiga qaytadi. Kristall bo‘ylab nurlayotgan bu fotonlarning ayrim qismlari, yangi fotonlarning nurlanishini qo‘zg‘atadi. Boshqa yo‘nalish bo‘ylab tushayotgan fotonlar yon tekisliklar orqali kristallni tark etadi. Qizil fotonlar oqimi kristall o‘zagi bo‘ylab oshib boradi. Ular navbatma navbat shishali yon tomonlar chegarasida aks etadi, toki ularning tezligi kristallning yarim shafof yon tekisligi chegarasidan o‘tib tashqariga chiqishga yetarli bo‘lmagancha. Natijada kristallning chiqish tomonidan kogerent monoxromatik nurlanish ko‘rinishida qizil yorug‘lik oqimi nurlanadi (12.2-rasm).



13.2-rasm. Tashqi qo‘zg‘atish ta’sirida rubin kristalida fotonlar sharrasini ko‘chkisimon o‘sish sxemasi.

### 12.2. Texnologik lazerlarning klassifikaysiyasi

Texnologik lazerlar quyidagi jihatlariga ko‘ra klassifikatsiyalandi:

1) nurlanish to‘lqini uzunligi bo‘yicha:

a) 740 nm dan (qizil nur) 400 nm gacha (binavsha nur) – elektrmagnit spektrning ko‘rinadigan qismi hududi;

b) 740 nm kam – radio chastota yoki infra qizil hududlar;

2) ta’sir uzluksizligi bo‘yicha:

a) impulsli – davriy;

b) uzluksiz;

3) agregat holati bo‘yicha:

a) qattiq jismli:

– sun’iy rubindan yasalgan o‘zak ko‘rinishidagi faol elementi bilan,  $\lambda = 0,69$  mkm to‘lqin uzunligiga impulsli-davriy nurlanish, impuls chastotasi  $F_i = 10\text{Hz}$  va elektr optik FIK taxminan 3%;


– neodim aralashgan shishadan tayyorlangan o‘zak ko‘ri-nishidagi faol elementi bilan,  $\lambda = 1,06$  mkm to‘lqin uzunligiga impulsli-davriy nurlanish, impuls chastotasi  $F_i = 0,05\text{--}50\text{ kHz}$ ;

b) gazli

- ishchi jismi karbonat angidrid gazi, 2,66–13,3 kPa, bosimda azot va geliy qo‘sishimchasi bilan,  $\lambda = 10,6$  mkm to‘lqin uzunligiga impulsli-davriy to‘xtovsiz nurlanish, elektr optik FIK 5–15% tashkil etadi. Ishchi jismni qo‘zg‘atish elektr razryad yordamida bajariladi.

### 12.1. Lazerli payvandlash uchun jihozlar

Lazerli payvandlash uchun jihozlar quyidagilardan iborat: texnologik lazerdan, nurni transportirovkalash va fokuslash tizimi, buyumni gazli himoya qilish tizimi, nur va buyumni nisbatan harakatlantiradigan tizim.



**12.1-rasm.** Qattiq jismli lazer bilan lazerli payvandlash uchun qurilmaning ko‘rinishi:


1 – ishchi jism; 2 – damlash lampasi; 3 – optik tizim.

Texnologik lazer, «ishchi jism» dan, «damlash» tizimidan va sovutish tizimidan iboratdir.

Nurni transportirovkalash va fokuslash tizimi, himoya nur o‘tkazgichlardan, nurni sindiruvchi ko‘zgudan va fokuslovchi qurilmadan tashkil topgan. Nurni sindiruvchi ko‘zgu nur yo‘nalishini o‘zgartirib, ishlov berilayotgan hududga yo‘naltiradi. Qattiq jismli lazerlarda shu maqsad uchun to‘liq ichki aks ta’sirni bajarish uchun prizmalar va ko‘p qatlamlili dielektrik qoplamlari interferension ko‘zgular qo‘llaniladi. Gazsimon

lazerlar uchun suv bilan sovutiladigan misdan yasalgan ko‘zgular ishlataladi.

Fokuslovchi qurilma – tubus, ishlov berilayotgan yuzaga nisbatan harakatlanish imkoniyati mavjud qilib o‘rnatilgan, unda optik shishadan yasalgan linza o‘rnatilgan, bu qattiq jismli lazerlar uchundir. Interferension yorituvchi qoplamlari kaliy xloridi yoki sink selenidi  $\text{CO}_2$  lazerlar uchun. Buyumlarni ishlov berish vaqtida ulardan ajralib chiqayotgan zararli mahsulotlardan linzalarni himoyalash uchun shtorka qo‘llaniladi, shtorka tozalangan quritilgan havodan hosil bo‘lgan.



**12.2-rasm.** Gazsimon lazer bilan lazerli payvandlash uchun qurilmaning ko‘rinishi:

1 – sferik ko‘zgular; 2 – rezonator bo‘shlig‘i; 3 – chiqish naychasi; 4 – lazer nuri; 5 – lazer nurining sinishi.

Gazli himoya tizimi payvand chok metalining oksidlanishining oldini olish uchun mo‘ljallangan hamda chok o‘zagini himoyalaydi. Lazerli payvandlashda hosil bo‘ladigan erigan metall sachrashlarini ajralayotgan bug‘larni lazer nuridan boshqa tarafga tarqatish uchun sopolarining turli xil konstruksiyalari ishlab chiqilgan.

Nur va buyumni nisbatan harakatlantiradigan tizim detal harakatlanishi hisobiga amalga oshiriladi, detalni esa manipulyator harakatga keltiradi. Harakatlanish tezligi 40 – 400 m/soatni tashkil etadi. Massivli yirik gabaritli buyumlarni payvandlashda nurni harakatlantirish maxsus siljuvchi harakatlanuvchi ko‘zgular yordamida amalga oshiriladi.

### 13- ma’ruza. Lazerli payvandlash uchun jihozlar Reja:


#### 13.1.Lazerli payvandlash uchun jihozla

#### 13.2. Qattiq jismli lazer bilan lazerli payvandlash uchun qurilma

#### 14.3.Gazsimon lazer bilan lazerli payvandlash uchun qurilma

### 13.1. Lazerli payvandlash uchun jihozlar

Lazerli payvandlash uchun jihozlar quyidagilardan iborat: texnologik lazerdan, nurni transportirovkalash va fokuslash tizimi, buyumni gazli himoya qilish tizimi, nur va buyumni nisbatan harakatlantiradigan tizim.



13.1-rasm. *Qattiq jismli lazer bilan lazerli payvandlash uchun qurilmaning ko‘rinishi:*

1 – ishchi jism; 2 – damlash lampasi; 3 – optik tizim.

### 13.2. Qattiq jismli lazer bilan lazerli payvandlash uchun qurilma

Texnologik lazer, «ishchi jism» dan, «damlash» tizimidan va sovutish tizimidan iboratdir.


Nurni transportirovkalash va fokuslash tizimi, himoya nur o‘tkazgichlardan, nurni sindiruvchi ko‘zgudan va fokuslovchi qurilmadan tashkil topgan. Nurni sindiruvchi ko‘zgu nur yo‘nalishini o‘zgartirib, ishlov berilayotgan hududga yo‘naltiradi. Qattiq jismli lazerlarda shu maqsad uchun to‘liq ichki aks ta’sirni bajarish uchun prizmalar va ko‘p qatlamlili dielektrik qoplamlari interferension ko‘zgular qo’llaniladi.

### 13.3. Gazsimon lazer bilan lazerli payvandlash uchun qurilma

Gazsimon lazerlar uchun suv bilan sovutiladigan misdan yasalgan ko‘zgular ishlatiladi.

Fokuslovchi qurilma – tubus, ishlov berilayotgan yuzaga nisbatan harakatlanish imkoniyati mavjud qilib o‘rnatilgan, unda optik shishadan yasalgan linza o‘rnatilgan, bu qattiq jismli lazerlar uchundir. Interferension yorituvchi qoplamlari kaliy xloridi yoki sink selenidi  $\text{CO}_2$  lazerlar uchun.

Buyumlarni ishlov berish vaqtida ulardan ajralib chiqayotgan zararli mahsulotlardan linzalarni himoyalash uchun shtorka qo'llaniladi, shtorka tozalangan quritilgan havodan hosil bo'lgan.



13.2-rasm. *Gazsimon lazer bilan payvandlash uchun qurilmaning ko'rinishi:*

1 – sferik ko‘zgular; 2 – rezonator bo‘shlig‘i; 3 – chiqish naychasi; 4 – lazer nuri; 5 – lazer nurining sinishi.

Gazli himoya tizimi payvand chok metalining oksidlanishining oldini olish uchun mo‘ljallangan hamda chok o‘zagini himoyalaydi. Lazerli payvandlashda hosil bo‘ladigan erigan metall sachrashlarini ajralayotgan bug‘larni lazer nuridan boshqa tarafga tarqatish uchun sopolarining turli xil konstruksiyalari ishlab chiqilgan.

Nur va buyumni nisbatan harakatlantiradigan tizim detal harakatlanishi hisobiga amalga oshiriladi, detalni esa manipulyator harakatga keltiradi. Harakatlanish tezligi 40 – 400 m/soatni tashkil etadi. Massivli yirik gabaritli buyumlarni payvandlashda nurni harakatlantirish maxsus siljuvchi harakatlanuvchi ko‘zgular yordamida amalga oshiriladi.

## 14- ma’ruza. Plazmali payvandlash Reja:

### 14.1. Materiallarga plazmali ishlov berishning mohiyati

### 14.2. Plazmali payvandlash

#### **14.1. Materiallarga plazmali ishlov berishning mohiyati.**

**Plázma** (grekcha πλάσμα so‘zidan olingan «yasalgan, bezatilgan» mahnosini bildiradi) — ionlashtirilgan gaz bo‘lib, moddalarning to‘rtta asosiy agregat holatining biridir.

Plazmali texnologiya oddiy fizikaviy printsipga asoslangan. Energiyani uzatish hisobiga agregatli holat o‘zgaradi: qattiq holat suyuq bo‘lib qoladi, suyuq holat esa gazsimon bo‘lib qoladi. Agarda gazga qo‘srimcha ravishda energiyani qўshsak, u ionlashadi va tўyingan energiyada plazma holatiga – to‘rtinchi agregat holatiga ýtadi.

Plazma 1928 yildagina Irving Lengmyur tomonidan kashf etilgan. Aslini olganda plazma – unchalik kam uchraydigan hodisa hisoblanmaydi, hattoki aksincha: koinotdagi behisob materiyaning 99% dan ortifi plazma holatida bo‘ladi. Yerda u ýzining tabiiy shaklida bo‘ladi, masalan, chaqmoqlarda yoki Arktika i Antarktikadagi shimoliy yoғduda. Quyosh tutilgan paytda plazmani quyosh atrofida yorqin toj shulasi kўrinishida kuzatish mumkin.

Energiyani qo‘sish qattiq, suyuq va gazsimon agregat holatlar orqali amalga oshiriladi. Agar elektr zaryadsizlanish yo‘li bilan gazsimon materiyaga qo‘srimcha energiyani uzatilsa plazma hosil bo‘ladi (15.1 - rasm).



14.1 - rasm. Moddalarning agregat holatlari sxemasi

Plazma yuqori, o‘zgaruvchan energetik darajada bo‘lgan materiyani tavsiflaydi. Qattiq materiallar bilan kontaktda bўlganda, masalan plastmassa va metall bilan plazma energiyasi yuzaga tushib uning muhim xossasi bo‘lgan yuza energiyasini ýzgartiradi.

Ishlab chiqarishda ushbu printsip material xossalarni aniq bir maqsadga qaratilgan modifikatsiyalash uchun foydalaniladi. Plazma energiyasi bilan oldindan ishlov berish yuzalarni jiddiy ravishda va aniq rostlanadigan adgeziya qobiliyatini va suyuqlik emdirilishini oshirishga imkon tuғdiradi. SHunday qilib, sanoat miqyosida printsip jihatidan yangi (jumladan qutbsiz) materiallardan, shuningdek ekologik xavfsiz, tarkibida eritgichlar, laklar va yelimlar bўlmagan materiallardan foydalanish mumkin. Ko‘plab oldindan ishlov berishga mўljallangan kimyoviy

texnologiyalarini bugungi kunda plazmali ishlov berish texnologiyasi bilan almashtirish mumkin.

Qo'llanilishining oddiyligi va oqimli integratsiyalash imkoniyati tufayli plazmali ishlov berish bir necha yillar davomida sanoatning barcha sohalarida, jumladan mashinasozlikda, transportda, elektronika, qadoqlash **texnikalari**, istehmol tovarlari, týqimachilik ishlab chiqarishlarida va energiyaning yangi shakllarida foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa plazma yordamida metallarni payvandlash, kesish, detallarni yejilishga chidamli qilishda va ishdan chiqqan joylarini zarur metallar bilan eritib qoplab tiklashda keng qýllanilmoqda. Bunda issiqlik manbai sifatida katta zahirali elektr energiyaga ega býlgan yoy bilan ionlashgan gazlar (argon, geliy, azot va boshqalar) oqimi (plazma) dan foydalilanadi.

#### **14.2. Plazmali payvandlash**

Plazmali payvandlashda yuqori haroratga ega býlgan plazmani olish uchun volg'framli elektroddan, suv bilan sovutish, gaz uzatish quvurlaridan va plazma soplosidan iborat býlgan plazma gorelkasi (plazmatron) qýllaniladi. Plazma yoyining harorati  $30000^{\circ}\text{S}$  gacha yetadi, elektr yoyining harorati esa –  $5000-7000^{\circ}\text{S}$  ni tashkil qiladi.

Plazmatronda plazma yoyi zonasiga plazma hosil qiluvchi gaz yuboriladi. Gaz yoy tafsirida qiziydi va ionlashadi. Gazning issiqlikdan kengayib hajmini 50-100 marta ortishi evaziga uni plazmatron soplosining kanalidan tezlik bilan uchib chiqib yuqori haroratli tiniq, yarqiragan plazmaga aylantiradi. Gazning ionlashgan zarralarini kinetik energiyasi va issiqlik energiyasi payvandlash uchun energiyaning asosiy manbai hisoblanadi. Plazma yoy bilan birgalikda payvandlash joyini bir lahzada eritadi, chunki uning harorati  $10000-20000^{\circ}\text{S}$  oralifida býladi. SHuni aytish joizki, issiqlik elektrod uchidan uzoqlashgan sari harorati pasayadi. Masalan, bu oraliq 6-8 mm býlganda harorati  $6000-8000^{\circ}\text{S}$  býladi. Bunday gorelkalardan tok ýtkazadigan materiallarni payvandlashda foydalilanadi. Payvandlashning ushbu usuli boshqa usullarga qaraganda energiya kontsentratsiyasining kýpligi, plazma yoyining barqarorligi, kichik 0,5-10 A li tokda qalinligi 0,025-0,8 mm býlgan metallarni payvandlash mumkinligi, tok kuchi va gaz sarfi hisobiga yoy quvvatini rostlash imkoniyati mavjudligi kabi afzalliklarga ega.

Keyingi vaqtarda plazma holatidagi moddalarning xossalariiga katta ehtibor berilmokda. Zaryadlangan va neytral zarrachalar tizimi **plazma** deb ataladi, ularda týla zaryad nolga teng. Plazmada zaryadilarni eltuvchilar sifatida elektronlar, musbat va manfiy ionlar xizmat qiladi. Ular bilan birgalikda plazmada neytral atomlar va molekulalar ham býlishi mumkin. Gazning plazma holiga ýtishi ionizatsiya (ionlanish) jarayoni, yahni elektronning gaz atomi yoki molekuladan uzilib chiqishi bilan bofqiliq. Ionlanish gazni yuqori haroratgacha kizdirish yordamida doimiy maydonda va past ( $10 - 10\text{Gts}$ ) hamda yuqori ( $10 - 10\text{Gts}$ ) chastotali maydonda, shuningdek, optik diapazondaga ( $10 - 10\text{Gts}$ ) elektromagnit maydonlarda elektr razryadi bilan yuzaga keltiriladi.

Ionlanish darjasini ionlanish koeffitsienti  $a_u = n_i / n_{00}$  bilan ifodalanadi, (bu yerda  $n_i$  - plazmadagi zaryadlangan zarrachalarning kontsentratsiyasi,  $n_{00}$  - ionlanishga qadar neytral zarrachalarning kontsentratsiyasi).

Plazma elektronlari yuqori ýrtacha  $Y_e = 2 * \underline{2 * !0^{19}} * - \underline{2 * 10^{18}}$  J (1...12EV) energiyaga ega, u  $\underline{T=10^4...10^5 K}$  haroratga mos keladi, bunda ularning zichligi  $10^9...10^{12} \text{sm}^{-3}$  qiymatga yetadi.

Atom va molekulyar zarrachalar 600K dan oshmaydigan haroratga mos keluvchi issiqlik energiyasiga ega.  $10^4 K$  haroratda plazmani past vdyuratli plazm alan ( $1000-100$  ming K) farqli ravishda yuqori haroratli plazma deb ataladi. Plazmali ishlov berish uchun maxsus qurilmalar - *plazmatronlarda* hosil qilinadigan past haroratlari plazmadan foydalaniladi.

Plazmali ishlov berish payvandlash, metallarni kesish, qoplamlarni eritish va changlatib koplashdan iborat va plazma oqimining issiqlik va kinetik energiyasidan foydalanishga asoslangan. Plazmali changlatishda shuningdek, plazmaning foydali uchuvchi xossalardan foydalaniladi: uning issiqliknini va kinetik energiyani changlatiladigan zarrachalarga uzatish xossasi mavjud.

CHanglatiladigan material zarrachalarining qizish va erish samaradorligini oshirish uchun yukori entalg'piyali plazma hosil kiluvchi gazlar kyllaniladi. Ikki atomli gazlar katta issiqlik saqlamiga ega býladi, chunki ularda katta miqdordagi energiya kýshimcha ravishda molekulalarning atomlarga dissetsiatsiyalanishi hisobiga olinadi. Zarrachalar plazmadan issiklikni oladi va ayni bir vaqqda uni sovutadi. Plazmaning sovush zonasida ionlar va elektronlarning bir atomli gazga rekombinatsiyalanishi natijasida oldin ionlanishga sarflangan energiya ajralib chiqadi. Ikki atomli gaz ishlatalgan takdirda yana dissotsiatsiyalanish energiyasi ham ajralib chikadi.


Past haroratlari plazma hosil kilishda asosan elektr-yoy razryadi qo'llanniladi, u katta tokka egaligi va katodda kuchlanish tushushi uncha katta emasligi bilan ajralib turadi. Yoy razryadi uchta sxema: týfridan-týfri (bevosita), bilvosita va kombinatsiyalangan sxemalar buyicha uyfotiladi.

Bevosita sxemada (14.2-rasm, a) yoy plazmotronning katodi va detal orasida yonadi hamda energiyaning kÿp kismi detalga berilib, uni yuqori haroratgacha qizdiradi. Bevosita sxema metallarni payvandlash va kesishda foydalaniladi.

Bilvosita sxemada (14.2-rasm, b) yoy plazmotronning katodi va anodi orasida berk fazada yonadi va bu detal bilan boflanmagan. Bilvosita sxema koplamlarni eritish va changitib qoplashda qo'llaniladi.

Kombinatsiyalangan sxemada (14.2-rasm, v) ayni vir vaktida ikkita yoy yonadi: bilvosita taysir etuvchi yordamchi yoy katod bilan anod - plazmotron soplosi orasida va asosiy yoy katod bilan detal orasida yonadi. Bu xolda detalga beriladigan energiya miqdorini, binobarin, uning qizish haroratini rostlash imkoniyati tufiladi. Bu sxema metallarni

eritish, payvandlash va kesishda kÿllaniladi.



14.2 - rasm. Yoy plazmasi hosil bo‘lishining sxemasi:

a-bevosita; b-bilvosita; v-aratash; 1-katod; 2-anod; 3-ishlov

beriladigan detal; PG-plazma hosil qiluvchi gaz.

Plazma oqimini hosil qilish **uchun** turli elektr sxemalardan foydalanish, turli eritib yotqiziladigan materiallar (sim, chiviq, kukun va hokazolar) dan foydalanishga, eritib yotqiziladigan va asosiy materialning erishini alohida-alohida rostlashga, turli materiallarning qatlamlarini erish chuqirligi kam bo‘ladigan kilib eritshga imkon beradi.

## 15- ma’ruza. Plazmali payvandlash uchun jihozlar

### Reja:

- 15.1. Materialarga plazmali ishlov berish jihozlari.
- 15.2. Plazmatronning tuzilishi va ishlash printsipi.

### 15.1. Plazmatronning tuzilishi va ishlash printsipi.

Mashina detallarini palazmayoy usulida tiklash qurilmasining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida mavjud elektroyoyli plazmatron 5 - rasmda ko‘rsatilgandek modernizatsiya qilindi. Yangi plazmatron qurilmasida metall yoki polimer ashyolarining kukunlari yoki elektrod simlari eritib qoplash ko‘zda tutilgan. Undan mashinasozlik va tahlirlash-servis korxonalarida keng foydalanish mumkin.

Ko‘pfunktionalli plazmatronning asosiy energitik va issiqlik xarakteristikalarini quyidagi formulalar yordamida bapolashimiz mumkin (15,b-rasm):

$$U = 4,55 \left( 1 + 4,60 \cdot 10^{-5} \frac{J}{d_2} \right) \left( \frac{G}{d_2} \right)^{0,22} \left( \frac{l_2}{d_2} \right)^{0,95} \quad \boxed{J \cdot d_2}^{0,23}; \quad (1)$$

$$\eta = 5,85 \cdot 10^{-5} \left( \frac{J^2}{Gd_2} \right)^{0,27} \left( \frac{l_2}{d_2} + \frac{l_3}{d_3} \right) \cdot d_2^{-0,3} \left( \frac{G}{d_2} \right)^{-0,27}; \quad (2)$$

$$N_a = UJ; (3)$$


$$q_{cp} = U \cdot J \cdot \eta = G \leftarrow i_H \rightarrow \eta , \quad (4)$$

bu yerda G - pavo yoki buf sarfi, kg/s;

12 i d2 –qavariq joygacha bo‘lgan yoy quvvatining so‘ndirish ariqchasingin  
uzunligi va diametri (3mm);

13 d3- qavariq joydan keyin bo‘lgan yoy quvvatining so‘ndirish ariqchasining uzunligi va diametri, mm;

‘ - plazmatrondan chiqayotgan ishchi gaz (pavo yoki buf) oqimining bosimi, Pa.




## **15.2-rasm. Ko‘pfunktzionalli plazmatron:**

1- plazmatron kallagi; 2- elektrod; 3- sovutish bloki; 4- soplo; 5- kukun uzatish ariqchasi; 6- kukun naychasi; 7, 8, 9,16- suv va gaz uzatish naychalari; 10- generator; 11- sharnirli kronshteyn; 12- mundshtuk; 13- sim uzatish mexanizmi; 14- elektrod simi; 15- buf kollektori; 17- bug' uzatish naychasi; 18- plazma fakeli; 19- gaz (pavo) uzatish ariqchasi; 20- qo'yunlatish kamerasi; 21- jumrak; 22- kengaytirilgan soploli ariqcha; 23- tiklanadigan detal; 24- metall (polimer) qoplami; 25- ishchi suyuqligi (buf mipiti); 26- kronshteyn; 27- rostlash vinti.

### **Shartli belgilar:**

- sovituvchi-pimoyalovchi muxit tarkibidagi yuqori dispersli tomchilar;
  - plazma tezligi;

- gaz (pavo) tezligi;
- kukunlar tezligi;
- aerosol tomchilarining tezligi;
- e- ekstsentriskit



**15.3-rasm. Plazmatronning texnologik va pisoblast sxemasi (a) va uning qo‘yunlatish kamerasida buf zarrachalariga tahsir etuvchi kuchlar sxemasi (b):** a : 1-buf uzatish naychasi; 2- buf posil qilish kollektori; 3 - gaz-kukun uzatish ariqchasi; 4- gaz yoki buf uzatish palqasi; 5- buflatkgich naychasi; 6 - volg‘framli elektrod; 7- sovutish bloki; 8- soplo; 9-rostlovchi vint; 10 - kukun zarrachalari; 11- plazmayoy; 12- metall yoki polimer tomchisi; 13- tiklanadigan detal; 14-metall yoki polimer qoplami; 15-sharnirli kronshteyn; 16- uzatish mexanizmi; 17- elektrod simi; 18-mundshuk; b: 1-detral; 2- metall yoki polimer qoplami; 3- buf mupiti; 4-soplo; 5- qo‘yunlatish kamerasi; 6-plazma fakeli; 7- gazkukunli xalqa o‘rami.


Plazmatron kallagini detal 13 (16,a-rasm) sirtiga nisbatan o‘rnatish balandligini N o‘zgartirish hamda plazmatronning qo‘yunlatish kamerasiga gaz o‘rniga pavo oqimini uzatish pisobiga qurilmaning optimal energetik va issiqlik xarakteristikalarini tanlash imkoniga ega bo‘lamiz. Qo‘yunlatish kamerasining soplo qismiga buf mupitini uzatish yordamida plazma paroratini jilovlash orqali tiklanayotgan detallarning ishchi yuzalarini metall yoki polimer kukuni yoki elektrod simlarini pam eritib qoplashga erishamiz.

## 17- ma’ruza. Gaz alangasida ishlov berishning mohiyati va tasnifi Reja

- 16.1. Gaz alangasida ishlov berish usullarining tasnifi
- 16.2. Gaz alangasida ishlov berish usullarining mohiyati
- 16.3. Yonish jarayoni
- 16.4. Payvandlash alangasining tuzilishi

### 16.1. Gaz alangasida ishlov berish usullarining tasnifi

Gaz alangasida ishlov berish metall va nometall materiallarga gaz alangasi yordamida yuqori haroratda ishlov berish kabi bir qator texnologik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. 16.1-rasmida materiallarga gaz alangasida ishlov berish usullarining klassifikatsiyasi ko‘rsatilgan.




### 16.1-rasm. Metall va nometall materiallarga gaz alangasida ishlov berish usullarining klassifikatsiyasi.

Materiallarga gaz alangasida ishlov berishning boshqa usullarining avzalliklariga qaramasdan, yuqori iqtisodiy tejamkorligi va texnologik usulari ko‘pligini hisobga olgan holda gaz alangasida ishlov berish qurilish, kimyo, energetik mashinasozlik va boshqa sanoat sohalarida qo‘llanishini topmoqda.

### 16.2. Gaz alangasida ishlov berishning usullarining mohiyati

**Gaz bilan payvandlash.** Payvandlashning bu turi asosiy metall (1) ning biriktiriladigan qirralarini payvandlash gorelkasi (3) alangasi (2) bilan qizdirishdan iboratdir. Chok metallini hosil qilish uchun payvandlash vannasiga eritib qo‘shiladigan chiviq (4) ning oqib eritilgan metali qo‘shiladi.




### 16.2-rasm. Gaz bilan dastakli payvandlash.

Issiqlik manbayi sifatida atsetilenning kislorod bilan aralashmasini yoqqanda hosil bo‘ladigan va harorati  $3000 - 3150^{\circ}\text{C}$  ga boradigan payvandlash alangasi ishlataladi.

**Gaz-press bilan payvandlash.** Payvandlanadigan detallar (1) va (2) ning biriktiriladigan joylari maxsus ko‘p alangali gorelka (3) bilan plastik holatgacha yoki qirralari eriguniga qadar qizdiriladi, shundan keyin tashqi kuch bilan siqiladi va payvandlanadi (1.3-rasm). Bu usulda po‘lat o‘zaklar,


polosalar, quvurlar va boshqa  $12000 \text{ mm}^2$  gacha kesim yuzali detallar payvandlanadi.



**16.3-rasm. Gaz-press bilan payvandlash.**

**Gaz bilan changlatish.** Gaz bilan changlatish jarayoni quyidagicha bajariladi. Metallizasiyalaydigan apparatning changlatish kallagiga changlatuvchi metallning simi to‘xtovsiz uzatilib turiladi, ular atsetilen-kislorod yoki propan-kislorod alangasi yordamida eritiladi.

Erigan metall katta tezlik bilan kallag soplosidan chiqayotgan havo va yonuvchi mahsulotlar sharrasi ta’sirida mayda zarrachalar ko‘rinishida detal yuzasiga changlatiladi. Gaz sharrasida zarrachalar tezligi  $200 \text{ m/sec}$  gacha yetadi. Zarrachalar o‘lchami  $10 - 150 \text{ mkm}$  ni tashkil etadi. Katta tezlik natijasida zarrachalar detal yuzasiga suyuk yoki plastik holatida yetib kelib kirishib ketib metallizasiyalashgan (changlatilgan) qatlama hosil qiladi. Shu bilan bir qatorda zarrachalar zarb ta’sirida deformatsiyalanadi, tangachalar sifatida shakllanib bir-biriga yopishib qoplamani qatlamlı tuzilishini tashkil etadi. Changlatiladigan detal metallizasion apparatning soplosidan  $75 - 250 \text{ mm}$  masofada joylashgan bo‘ladi.



**16.7-rasm. Gaz bilan changlatish sxemasi:**

1 – havo yetkazib berish uchun tashqi soplo; 2 – gaz uzatish uchun mundshtuk; 3 – sim; 4 – sim uzatish uchun soplo; 5 – detal.

### 16.3. Yonish jarayoni

Gaz yonishi – bu aerodinamik, kimyoviy va issiqlik jarayonlarining yig‘indisidir. Yonish reaksiyasi, odatda, qattiq, suyuq yoki gazsimon moddalarning kislorod bilan birikishi natijasida kechadi.


Gaz aralashmasining yonishi aniq bir haroratda alanganishi bilan boshlanadi, buni alanganish harorati deyiladi. Yonish boshlanishi bilan gazni tashqi issiqlik manbayi bilan qizdirish kerak bo‘lmaydi.

Gazni kislorod yoki havoda yonishining sharti – aralashmada yonuvchi gazning miqdori aniq chegaralarda bo‘lishi kerak, buni alangalanish chegarasi deyiladi.

Gaz alangasida ishlov berishda ishlatiladigan yonuvchi gazlar va suyuqliklar – bu uglevodorodlar hamda ularning boshqa gazlar (atsetilen, metan, propan, butan, tabiiy gaz, neft gazi, piroliz gazi va boshqalar) bilan aralashmalaridir. Faqat kislorod sof holida ishlatiladi. Vodorod-kislorod alangasining rangi ko‘k (havorang) bo‘ladi, unda yaqqol ko‘zga tashlanadigan zonalar yo‘q. Bunday alangani rostlash qiyin, unda o‘zgarishlar ko‘rinmaydi.

#### 16.4. Payvandlash alangasining tuzilishi


Tarkibida uglevodorodlar bo‘lgan hamma yonuvchi gazlar alanga hosil qiladi, bu alangada uchta zona yaqqol farq qilinadi: yadro (o‘zak), o‘rtaqaytarish (tiklash) zonasini va mash’ala (9.8-rasm). Yonuvchi gaz tarkibida uglerod qancha ko‘p bo‘lsa, alanganing nur sochuvchi yadrosh shuncha yaqqol shaklda bo‘ladi.



**16.8-rasm.** Atsetilen-kislorod (a), metan-kislorod (b) propan-butan-kislorod (c) payvandlash alangasining tuzilishi va haroratning alanga uzunligi bo‘yicha taqsimlanishi:


A – alanga yadrosi; B – o‘rtqa (qaytarish) zonasini; C – mash’ala; D – payvandlanadigan detalning alangadagi vaziyati;  $l$  – yadroning uzunligi.

Atsetilen-kislorod alangasi misolida bu zonalarda sodir bo‘ladigan jarayonlarni ko‘rib chiqamiz. Atsetilen gorelka soplosidan chiga turib qiziydi va qisman parchalanadi:



Bunda uglerodning qattiq zarralari hosil bo‘ladi, ular chug‘lanib, yorqin nur sochadi. Shuning uchun, yadroning qobig‘i – harorati nisbatan yuqori bo‘lmasa ham ( $1500^{\circ}C$  ga yaqin), alanganing eng yorqin zonasidir. Eng

yuqori harorat alanganing ikkinchi, o‘rta zonasida hosil bo‘ladi. Bu yerda ballondan keladigan birlamchi kislorod hisobiga atsetilenning birinchi yonish bosqichi o‘tadi:



Bu reaksiya natijasida uchdan biri, is gazidan va uchdan biri vodoroddan iborat bo‘lgan aralashma olinadi. Bu kislorodga nisbatan faol bo‘lgan, metallni oksidlarda qaytara oladigan komponentlarning aralashmasidir. Shuning uchun ikkinchi zona qaytarish zonasini deb ataladi.


Uchinchi zonada, alanga mash’alasida, havo kislorodi hisobiga atsetilenning ikkinchi yonish bosqichi o‘tadi:



Uglerod oksidi (is gazi) va suv bug‘lari yuqori haroratda qisman dissotsiatsiyalanadi (parchalanadi). Bunda ajralib chiqadigan kislorod, shuningdek, bevosita CO va suv bug‘lari payvandlanadigan metallni oksidlashi mumkin. Shuning uchun alanga mash’alasi – oksidlanuvchi zonadir.

Masalan, bir hajm atsetilen to‘la yonishi uchun ikki yarim hajm kislorod kerak bo‘ladi: buning bir hajmi kislorod ballonidan va bir yarim hajmi havodan alangaga kiradi. Atsetilen va kislorod gorelkaga 1:1 nisbatda berilganida ularning yonishidan hosil bo‘lgan alanga normal alanga deb ataladi (17.9-b rasm). Biroq amalda normal alanga hosil qilish uchun 1,05:1,2 bo‘lishi kerak, chunki gorelkaga beriladigan kislorod hisobiga vodorodning bir qismi yonib ketadi va bundan tashqari, kislorodda aralashmalar bo‘ladi.

Normal alanganing yadroси silindr shakliga yaqin bo‘lgan yaqqol shaklda tasvirlanadi, oxirida ravon yumaloqlanadi, qobig‘i yorqin nur sochib turadi. Yadroning o‘lchamlari yonilg‘i aralashmasining sarfiga va uning oqib chiqish tezligiga bog‘liq. Uning diametri mundshtuk kanalining diametri bilan belgilanadi, kanalning diametri payvandlanadigan materialning qalinligiga mutanosib. Kislorodning bosimi ortganida yonilg‘i aralashmasining oqib chiqish tezligi ortadi va payvandlash alangasining yadroси uzunlashadi, va aksincha oqib chiqish tezligi kamayganida – yadro qisqaradi.




**16.9-rasm. Payvandlash alangasining sxemalari:**  
 a – uglerodlashtiruvchi; b – normal; d – oksidlanuvchi.

Normal alanganing o‘rta – qaytarish – zonasi (ish zonasi) yadroning rangiga qaraganda qoramtiroq bo‘ladi. Uning uzunligi mundshtukning raqamiga (yonilg‘i aralashmasining sarfiga) bog‘liq va 20 mm ga yetadi. Yadroning oxiriga yadro uzunligining 1,5...2 qismi qadar yetmay turgan nuqtada alanganing eng yuqori haroratiga erishiladi – 3150°C gacha (9.8- a rasmga qarang).

Atsetilenning kislrororra yonishining yuqorida ko‘rib o‘tilgan reaksiysi normal alangada yuz beradi. Agar O<sub>2</sub>/C<sub>2</sub>N<sub>2</sub> nisbat oshirilsa, masalan, 1,5 marta oshirilsa (aralashmada kislrorod ortiqcha ko‘p bo‘ladi), u holda alanganing o‘rtasida o‘tadigan birinchi yonish bosqichi quyidagi reaksiya bilan ifodalanishi mumkin:



Bu holda alanganing o‘rta (ish) zonasi qaytarish xossasini yo‘qotadi va oksidlovchi bo‘lib qoladi. Vaholanki bu alanga oksidlovchi alanga deb nomlanadi (17.9 - d rasm). Oksidlovchi alanganing yadrosi konussimon shaklga ega bo‘ladi va rangi oq bo‘ladi, uning uzunligi qisqaradi, ko‘rinish yaqqolligi kamrok bo‘lib qoladi. Alanganing hammasi ko‘k-binafsha bo‘lib qoladi, shovqin chiqarib yonadi. O‘rta zonaning va mash’alaning uzunligi qisqaradi. Oksidlovchi alanganing harorati, odatda, me’yordagi alangadan yuqori bo‘ladi, biroq kislrorodning ortiqchasi payvandlashda metallning oksidlanishiga olib keladi, chok g‘ovakli va mo‘rt bo‘lib chiqadi (17.10-rasm). Oksidlovchi alangadan issiqlik o‘tkazuvchanligi katta bo‘lgan rangli metallarni va ularning qotishmalarini payvandlashda, shuningdek, qiyin eriydigan kavsharlar bilan kavsharlashda foydalanish mumkin.



**16.10-rasm.** Atsetilen-kislород алганни о'q bo'ylab haroratni o'zgarishi oksidlovchi (a), normal (b) va uglerodlashtiruvchi (d).

Kislород ва atsetilenning hajmlari nisbati 0,95 va undan kam bo'lganida alanga yadrosida erkin uglerod miqdori ko'payadi. Bunday alanga yadrosi yaqqol ko'rinishini yo'qotadi, uning uchida yashilroq chambarakcha hosil bo'ladi. O'rta (qaytarish) zonasi yorqinroq bo'lib qoladi va deyarli yadro bilan qo'shiladi, mash'ala esa sariqroq rangga kiradi. Bunday alanga uglerodlashtiruvchi alanga deb ataladi. (16.10-a rasm). Atsetilen xaddan ziyod ko'p bo'lsa, uglerodlashtiruvchi alanga tutay boshlaydi. Alangada mavjud bo'lgan ortiqcha uglerodni erigan metall osongina yutadi va shu sababli chok sifati yomonlashadi. Uglerodlashtiruvchi alanganing harorati oksidlovchi va normal alanganikidan kamroq. Uglerodga kamroq boyituvchi alangadan cho'yanni payvandlashda va qattiq qotishmalar bilan eritib qoplashda qo'llash mumkin.

Alangani rostlashda kislород bosimi bilan alanga yadrosining o'lchami to'g'ri bo'lishiga e'tibor berish zarur. Kislород bosimi juda oshib ketsa, mundshtukdan chiqayotgan aralashmaning tezligi oshadi va alanga "bikrlashadi", ya'ni payvandlash vannasidagi metallni sachratib yuboradi va shu bilan payvandlash qiyinlashadi. Aralashmaning chiqish tezligi xaddan tashqari katta bo'lganida alanga mundshtukdan ajralib qolishi mumkin. Kislород bosimi juda past bo'lganida esa alanga ancha qisqaradi va mundshtukning uchini metallga yaqinlashtirganda gorelka paqillay boshlaydi.

Kislородда atsetilenning o'rnini bosuvchi gazlar yonganida hosil bo'lgan alanga atsetilen singari shunday tuzilishga va turli xil xususiyatlarga ega bo'ladi. Farqi shundaki, normal alanga olish uchun kislород hajmining yonuvchi gaz hajmiga nisbatan (atsetilen va kislород aralashmasinikidan) katta bo'lishi kerak. Shunga mos ravishda alanga zonasining o'lchamlari ham o'zgaradi (16.11-rasm, b va d ga qarang).

Payvandlash alangasining issiqlik quvvati katta bo‘lishi, ya’ni asosiy va qo‘shimcha materialni eritish, vannani suyuq holatda tutib turish uchun va atmosferaga sarflanayotgan issiqlikning o‘rnini to‘ldiradish uchun payvandlash zonasiga yetarli miqdorda issiqlik kiritishi kerak. Alanganing issiqlik quvvati gorelkadagi atsetilen sarfi ( $\text{dm}^3/\text{soat}$ ) bilan aniqlanadi.

Payvandlashda alanganing issiqlik quvvati, payvandlanadigan metall qalinligi va uning fizik xossalariqa qarab tanlanadi. Ancha qalin va issiqni juda yaxshi o‘tkazadigan yupqa metallar va issiqliqni yomonroq o‘tkazadigan hamda ancha oson eriydigan metallga qaraganda issiqlik quvvati baland payvandlash alangasi talab etadi. Alanganing issiqlik quvvatini o‘zgartirish bilan metallning qizdirish va eritish tezligini keng miqyosda rostlash mumkin. Bu esa gaz yordamida payvandlashga xos yaxshi xususiyatlardan biridir.

Amalda alanga harorati metall eriydigan haroratdan  $250 - 300^\circ\text{C}$  ga baland bo‘lishi kerak. Masalan, atsetilen-kislorod alangasining harorati  $3100^\circ\text{C}$  ni, metallning erish harorati  $1500^\circ\text{C}$  atrofida bo‘lsa, u holda haroratlar orasidagi farq  $3100 - (1500 + 300) = 1300^\circ\text{C}$  ni tashkil etadi.

Propan-kislorod alangasi uchun bu farq  $2500 - (1500+300) = 700^\circ\text{C}$  ni tashkil qiladi. Bu propan-kislorod alangasi yordamida bir xil miqdordagi po‘latni payvandlash uchun atsetilen-kislorod alangasi bilan payvandlashga qaraganda 1,85 ( $1300/700$ ) marotaba ortiq issiqlik miqdori kerakligini bildiradi; mos ravishda cho‘yan uchun (suyuqlanish harorati  $1200^\circ\text{C}$  ga teng) — 1,6 va latun uchun (suyuqlanish harorati  $900^\circ\text{C}$  ga teng) 1,46 marta ortiqcha issiqlik talab etiladi.

Birlik vaqt ichida kiritiladigan issiqlik miqdori, ya’ni alanganing effektiv quvvati yonuvchi gaz sarfiga, metall yuzasiga nisbatan alangani og‘dirish burchagiga, uni siljitish tezligiga va alanga tarkibidagi yonuvchi gaz va kislorod nisbatiga bog‘liq.

## 17- ma’ruza.

### Mavzu: Metallarni gaz-kislorodli alangada kesish Reja:


#### **18.1 Kislorod bilan kesish.**

#### **18.2 Kislorod-flyusli kesish.**

#### **18.3 Nayzali kesish**

#### **18.1Kislorod bilan kesish.**

Po‘latni kislorod bilan kesish temirning sof kislorod oqimida yonish xossasiga asoslangan, bunda temir po‘latning erish haroratiga yaqin, ya’ni  $1200 - 1400^\circ\text{C}$  haroratga qadar qizdiriladi (18.1-rasm). Kesayotganda metall gaz-kislorod alangasida qizdiriladi. Yonilg‘i sifatida atsetilen, propan-butan, piroliz, tabiiy, koks va shahar gazlari hamda kerosin bug‘lari ishlatiladi.




**18.1-rasm.** Kislород bilan kesish sxemasi:

1 – mundshtuk; 2 – kesuvchi kislород; 3 – kesilayotgan metall; 4 – qizdiruvchi alanga; 5 – shlak.

Metall kesishdan oldin qizdiriladi. So‘ngra qizdirilgan joyga kesuvchi kislород oqimi yo‘naltiriladi hamda kesgich rejalangan kesish chizig‘i bo‘yicha surib boriladi. Metall butun tunuka qalinligi baravarida yonib, orada tor tirkish hosil qiladi. Temir kislорodda kislорodning kesuvchi oqimi yuzasiga chegaradosh bo‘lgan qatlamlaridagina jadal yonadi. Kislород oqimi metall orasiga juda kam chuqurlikda kiradi.

## 18.2 Kislород-flyusli kesish.

Yuqori legirlangan xromli va xrom-nikelli po‘latlar kislород bilan odatdagidek kesilganda qiyin eriydigan xrom oksidlarini hosil qiladi. Bu oksidlarning pardalari metall zarrachalarini qoplab olib, metallning kislород oqimida yonishiga to‘sinqilik qiladi. Shuning uchun ham bunday po‘latlar kislород-flyusli kesiladi.



**18.2-rasm.** Kislород-flyusli kesish sxemasi.

Flyus o‘rniga donalari 0,1 – 0,2 mm bo‘lgan temir kukun ishlatiladi. Kesishda temir kukunning kislородда yonish natijasida qo‘srimcha issiqlik ajralib chiqadi va kesiladigan joy harorati oshadi. Natijada hosil bo‘lgan qiyin eruvchan oksidlar suyuq holatda qoladi va temirning yonish mahsulotlariga qo‘silib, osongina chiqarib tashlanadigan oquvchan suyuq

shlaklar hosil qiladi. Kesish jarayoni normal tezlikda o‘tadi, kesilgan joy yuzasi toza chiqadi.

Cho‘yanni kislorod bilan flyussiz kesish ham ancha qiyin, chunki cho‘yanning erish harorati temirning kislorodda yonish haroratidan past va cho‘yan kislorodda yonmasdan oldin eriy boshlaydi. Cho‘yan tarkibidagi kremniy qiyin eriydigan oksid pardal hosil qiladi. Bu pardal kesish jarayonining normal o‘tishiga to‘sinqilik qiladi. Uglerod yonganida uglerodning gazsimon oksidi hosil bo‘ladi. Bu oksid kesuvchi kislorodni ifoslantiradi va kesish joyida temirning yonishiga to‘sinqilik qiladi.


Rangli metallar (mis, latun, bronza) ning issiqlik o‘tkazuvchanligi nihoyatda yuqori bo‘lib, kislorod bilan oksidlanganida kesilayotgan joyda metallning yonishini davom ettirish uchun yetarli bo‘lmagan issiqlik ajralib chiqadi. Bunday metallarni kislorod yordamida kesganda ham kesish jarayoniga to‘sinqilik qiluvchi qiyin eriydigan oksidlar hosil bo‘ladi. Shu sababli cho‘yan, bronza va latunni flyuslar yordamidagina kesish mumkin.

Cho‘yanni kesishda kukunga ferrofosfor qo‘shiladi. Cho‘yanni kesish tezligi zanglamaydigan po‘latni kesish tezligidan 50 – 55% kam bo‘ladi. Mis va bronzani kesishda flyusga ferrofosfor va aluminiy qo‘shiladi, metall esa 200 – 400°C ga qadar qizdirib kesiladi.

### 18.3 Nayzali kesish.

Nayzali kesish 800 – 1200 mm qalinlikdagi po‘lat detallarni hamda temir betonlarni kesishda qo‘llaniladi. Kislorodli nayza – po‘lat quvurcha orqali kislorod o‘tadi. Nayzaning ishchi qismini 1350 – 1400°C haroratgacha oldindan qizdirilgandan so‘ng kislorod uzatilsa asta-sekin oksidlanishni (yonishni) boshlaydi, shu tariqa yonish harorati 2000°C gacha oshirib boriladi. Nayzani yoqishdan oldin kislorod bosimi uncha katta olinmaydi. Nayzaning ishchi qismi alanganishidan so‘ng uni kesiladigan metall yuzasiga yaqinlashtiriladi va alangani metallga to‘liq botirgandan so‘ng kislorod bosimini talab etilgan ishchi qiymatigacha ko‘tariladi. Shu tariqa davriy ravishda qaytma-ilgarilanma (100 – 200mm amplituda bilan) va aylanma (ikki tomoniga 10 – 15° burchakka) harakat bajariladi. Metallda teshik ochish jarayonida nayzaning yon tomonini doimo ishlov berilayotgan metallga bosib turish kerak, faqat qaytma-ilgarilanma harakatda qisqa vaqtga ajratib turiladi. Yonish jarayonida nayza borgan sari kaltalashib boradi.

Teshik ochish jarayonida hosil bo‘lgan shlaklar kislorod va gaz bosimi bilan nayza quvurchasi va ochilayotgan teshik devori orasidan tirkishga chiqariladi (18.3-rasm).



18.3-rasm. Nayzali kesish jarayoni sxemasi:

1 – ishlov berilayotgan material; 2 – nayzaning quvurchasi; 3 – himoya ekrani; 4 – nayza ushlagich.

Hosil bo‘lgan teshik taxminan dumaloq shaklga ega bo‘ladi.

## **19- ma’ruza. Mavzu: Kontaktli payvandlash**

**Reja:**

### **18.1. Kontaktli payvandlashning moyiyati 18.2. Kontaktli payvandlashning tasni**

#### **18.1. Kontaktli payvandlashning moyiyati**

Kontaktli payvandlash detallarni ular orqali o‘tuvchi elektr toki bilan qisqa muddat qizdirish va siqish kuchi yordamida plastik deformatsiyalash natijasida detallarning ajralmas birikmalarini hosil qilish texnologik jarayonidir.

Kontaktli payvandlash biriktiriladigan detallarni payvand-lanayotgan materialning erish nuqtasidan pastda yoki yuqorida yotuvchi haroratgacha mahalliy qizdirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Kontaktli payvandlashda detallar atomlararo ilashish kuchlari ta’sir qilishi hisobiga birikadi. Ushbu kuchlar ikkita metall detal orasida namoyon bo‘lishi uchun yoki ular payvandlanishi uchun ular kristall panjara parametri bilan taqqoslanadigan masofada yaqinlashtirilishi lozim. Masalan, yuqori darajada plastik metallar – aluminiy, mis yoki ular qotishmalarini sovuq holatda payvandlash bunga misol bo‘la oladi. Plastikligi pastroq materiallar, masalan, po‘lat sovuq holatda deyarli payvand-lanmaydi, chunki detallar siqilganda yuzaga keluvchi ancha katta qayishqoq zo‘riqishlar tashqi kuch olinganda ayrim nuqtalarda vujudga kelgan elementar birikmalarni yemiradi.

Kontaktli payvandlash sovuq holatda payvandlashdan shunisi bilan farq qiladiki, asosan qizdirishda atomlarning harakatchanligi ortadi, payvandlash uchun zarur bo‘lgan plastik deformatsiya darajasi kamayadi. Issiq metallning deformatsiyasi kichikroq solishtirma bosimda amalga oshadi va payvandlashni qiyinlashtiruvchi qayishqoq kuchlarni bartaraf etadi.

Bosim bermasdan, hatto eritish yo‘li bilan kontaktli payvandlashni amalga oshirib bo‘lmaydi. Bosimning ahamiyati quyidagilardan iborat:

1) payvandlanayotgan detallar bir-biriga zinch tekkuncha yaqinlashadi, natijada payvandlash joyida issiqlik ajralish jadalligiga ta’sir qiluvchi, detallar orasida hosil bo‘luvchi kontaktning holatini rostlash imkoniyati paydo bo‘ladi;

2) berk hajmda krisstallanuvchi metall quymakorlik nuqsonlari (g‘ovaklik, cho‘kish bo‘shliqlari va b.) paydo bo‘lmasdan zichlanadi;

3) payvandlash joyi ifloslangan va oksidlangan metalldan holi bo‘ladi.

## **19.2. Kontaktli payvandlashning tasni**

Kontaktli payvandlashning ma'lum usullari bir qator belgilariga ko'ra tasniflanadi (FOCT 19521-74):


1. Texnologik belgilariga ko'ra:
    - nuqtali payvandlash;
    - relyefli payvandlash;
    - chokli payvandlash;
    - uchma-uch payvandlash.
  2. Birikmaning tuzilishiga ko'ra:
    - ustma-ust payvandlash;
    - uchma-uch payvandlash.
  3. Payvandlash joyida (zonasida) metallning chekli holatiga ko'ra:
    - eritib payvandlash;
    - eritmasdan payvandlash.
  4. Tokning berilish usuliga ko'ra:
    - kontaktli payvandlash;
    - induksion payvandlash;
  5. Payvandlash tokining turiga ko'ra:
    - o'zgaruvchan tok bilan payvandlash;
    - o'zgarmas tok bilan payvandlash;
  - unipolar tok, ya'ni impuls davomida kuchi o'zgaradigan bir qutbli tok bilan payvandlash.
  6. Bir yo'la bajariladigan biriktirishlar soniga ko'ra:
    - bir nuqtali va ko'p nuqtali payvandlash;
    - bir chok bilan yoki ko'p chok bilan payvandlash;
  - bitta yoki bir nechta birikish joylarini bir yo'la payvandlash;
- Kontaktli payvandlashning afzal tomonlari ushbulardan iborat:
- 1) jarayonning unumdorligi yuqori;
  - 2) payvandlash jarayonini yengil mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashirish mumkin;
  - 3) termodeformatsiya sikli qulay bo'lib, ko'pgina konstruksiyali materiallarni biriktirish sifati yuqori bo'lishini ta'minlaydi;
  - 4) texnologik jarayonning gigiyenik sharoiti yaxshi.

## **19.2. Nuqtali kontaktli payvandlash**

Nuqtali payvandlash kontakli payvandlashning bir usuli bo'lib, bunda detallar chegaralangan alohida tegish joylari bo'yicha (nuqtalar qatori bo'yicha) payvandlanadi.

Nuqtali payvandlashda detallar ustma-ust yig'ilib, elektr toki manbayi (masalan, payvandlash transformatori) ulangan elektrodlar yordamida  $F_{pay}$  kuchi bilan siqiladi. Qisqa muddatli payvandlash toki  $I_{pay}$  o'tganda detallarning o'zaro erish zonasini paydo bo'lguncha qiziydi. Bu zona o'zak (yadro) deb ataladi. Payvandlash joyi (zonasi) qiziganda detallarning bir-biriga tegish joyida (o'zak atrofida) metall plastik deformatsiyalanadi. Bu

joyda zichlovchi belbog‘ hosil bo‘lib, u suyuq metallni chayqalib to‘kilishdan va havodan himoyalaydi. Shu bois payvandlash joyini maxsus himoyalash talab qilinmaydi. Tok uzib qo‘yilgandan so‘ng, o‘zakning erigan metali tez kristallanadi va biriktirilayotgan detallar orasida metall bog‘lanishlar vujudga keladi. Shunday qilib, nuqtali payvandlashda detallarning birikishi metallning erishi bilan sodir bo‘ladi.



**19.1 - rasm. Kontaktli nuqtali payvandlash sxemasi:**

1 – payvandalanyotgan detallar; 2 – elektrodlar; 3 – transformator; 4 – o‘zak; 5 – zichlovi belbog‘.

Nuqtali payvandlashda detallar 50 Hz sanoat chastotali o‘zgaruvchan tok impulslari bilan, shuningdek o‘zgarmas yoki unipolyar tok impulslari bilan qizdiriladi.

Nuqtali payvandlashda payvand chok to‘rt bosqichda hosil bo‘ladi.

*Birinchi* tayyorgarlik (siqish) *bosqichida* payvandlanadigan yuzalar

muayyan kuch ta’sirida bir-biriga tegadi. Tegish joylaridagi

mikronotekisliklar deformatsiyalanadi va oksid pardalari yemiriladi. Tegish qarshiliklari kamayadi va barqarorlashadi, birikmani payvandlash uchun

payvandlash tokini ulashga tayyorlanadi.

*Ikkinci bosqich* payvanlash toki ulagan paytdan boshlanib, quyma o‘zakning eriy boshlashi bilan nihoyasiga yetadi. Mazkur bosqich vaqtida metall qiziydi va birikish joyida kengayadi. Metall qizishi bilan plastik deformatsiyalar ortadi, bu deformatsiyalar ta’sirida metall tirkishga siqib chiqariladi va belbog‘ hosil bo‘lib, u o‘zakni zichlaydi.

*Uchinchi bosqich* erigan zona paydo bo‘lishidan va uning quyma o‘zakning nominal diametrigacha kattalashish boshlanadi. Bu bosqichda oksid pardalari bo‘linib va yemirilib, o‘zakning erigan metalida aralashadi.

Elektr-dinamik kuchlarning ta’sir ko‘rsatishi ushbu jarayonga yordam beradi va suyuq metall jadal aralashishiga hamda turli xil metallarni payvandlashda o‘zakning tarkibi tekislanishiga olib keladi. Bunday aralashishida oksid pardalar va iflosliklarning erimaydigan zarralari erigan metall chetida to‘planadi.

*To‘rtinchi bosqich* tok uzib qo‘yilgan paytdan boshlanadi. Ushbu bosqich vaqtida metall soviydi va kristallanadi hamda payvandlash joyi cho‘kilanadi.


Nuqtali payvandlash shtamplab-payvandlab yasaladigan konstruksiyalarni tayyorlashda keng qo'llaniladi. Bunday konstruksiyalarda listdan shtamplab yasalgan ikki va undan ortiq detallar bikr uzellarga payvandlanadi (masalan, yengil avtomobilning poli va kuzovi, yuk avtomobilning kabinasi va b.).

Sinchli konstruksiyalar (chunonchi yo'lovchi tashish vagonining yon devorlari va tomi, kombayn bunkerleri, samolyot uzellari va b.) odatda nuqtali payvanaladi.

Nuqtali payvandlash nisbatan yupqa metalldan uzellar tayyorlashda yaxshi natijalar beradi. Nuqtali payvandlash qo'llaniladigan muhim soha bu elektr-vakuum texnikasida, asbobsozlik va boshqa sohalarda yupqa detallarni payvandlashdir.

### 19.3. Chokli kontaktli payvandlash

Chokli payvandlash bir-birini berkitib turuvchi nuqtalar qatorini hosil qilish yo'li bilan zinch birikma (chok) hosil qilish usulidir. Bunda aylanuvchi disksimon elektrodlar - roliklar yordamida tok keltiriladi va detallar siljtiladi. Nuqtali payvandlash kabi detallar ustma-ust yig'iladi va payvandlash tokining qisqa muddatli impulsleri bilan qizdiriladi. Nuqtalarning bir-birini berkitib turishiga tok impulsleri o'rtasidagi to'xtam (pauza)ni va roliklarning aylanish tezligini tegishlicha tanlash orqali erishiladi.



**10.2-rasm. Kontaktli choqli payvandlash sxemasi:**

- 1 – payvandalanayotgan detallar; 2 – roliklar; 3 – transformator;
- 4 – o'zak.

Chokli payvandlashning uzlukli, uzlusiz va qadamli turlari bo'ladi.

Roliklar yordamida uzlusiz payvandlashda payvand-lanayotgan detallar o'zgarmas tezlikda uzlusiz harakatlanadi. Bunda payvandlash toki uzlusiz ulangan bo'ladi.

Roliklar yordamida uzlukli payvandlashda qisqa muddatli tok impulsleri ( $t_i$ ) to'xtamlar ( $t_T$ ) navbatlashib keladi va detallar uzlusiz harakatlanadi.

Roliklar yordamida qadamli payvandlashda payvandlash toki ulangan paytda roliklar vaqtincha to'xtaydi - detallar harakatlanmaydi, bu esa

roliklarniig yeyilishini, qoldiq, zo‘riqishlarni va darzlar hamda kavakarlar paydo bo‘lishiga moyillikni kamaytirish imkonini yaratadi.

Chokli payvandlashda detallar ko‘pincha ustma-ust yig‘iladi va payvandlanadi. Ammo ayrim hollarda chokli uchma-uch payvandlashdan ham foydalaniladi, bu hol birikmalarning siklik mustahamligi yuqoriroq bo‘lishini ta’minlaydi. Bunda payvalanayotgan detallar to‘laroq, erishi uchun folgadan yasalgan ustqo‘ymalardan foydalaniladi.

## Nazorat savollari

1. Kontakli payvandlashning mohiyati nimadan iborat?
2. Kontaktli payvandlash jarayonlarini qaysi parametrlariga ko‘ra tasniflash mumkin?
3. Nuqtali kontaktli payvandlashning mohiyatini aytib bering.
4. Nuqtali kontaktli payvandlash qaysi sohalarda qo‘llaniladi?
5. Chokli payvandlash jarayonlarini qaysi parametrlariga ko‘ra tasniflash mumkin?

## 20-MA’RUZA.

### KONTAKTLI RELYEFLI VA UCHMA-UCH PAYVANDLASH

#### Reja

- 20.1. Relyefli payvandlash
- 20.2. Uchma-uch payvandlash

#### 20.1. Relyefli payvandlash

Relyefli payvandlashni kontaktli payvandlashning bir turi sifatida ta’riflash mumkin. Bunda bo‘lg‘usi payvand birikma joyidagi tokning zarur zichligi elektrodning ish yuzasi bilan emas, balki payvandalanadigan buyumlarning tutashadigan shakli bilan hosil qilinadi. Buyumning bu shakli sun‘iy ravishda, turli shakldagi mahalliy chiqiqlar (relyeflar) olish yo‘li bilan hosil qillinadi. Birikmaning konstruktiv xususiyatlariga muvofiq buyumning shakli tabiiy bo‘lishi ham mumkin.

Relyefli payvandlashda biriktiriladigan detallar bir vaqtning o‘zida bitta yoki bir necha nuqtada yoki butun tegish yuzasi bo‘yicha payvandlanadi, bu detallarning birida maxsus tayyorlangan chiqiqlar (relyeflar)ga yoki payvandalanadigan detallarning payvandalanadigan joyi shakliga bog‘liq.


Payvandlash toki ulangandan so‘ng payvandlash joyida tok miqdori ko‘payadi va metall tez qiziydi. Bu hol plastik deformatsiyalar jadal kattalashuviga olib keladi.

Relyefli payvandlashda payvand birikma quyma o‘zak hosil bo‘lishi bilan yoki qattiq fazada shakllanadi.

Payvandlashning mazkur usulida, qoidaga ko‘ra, agar mashinaning bir yurishida bir necha payvand birikmalar yoki katta yuzali bitta birikma hosil bo‘lsa, jarayonning unumdorligi ortadi.

Ba’zi hollarda ushbu usuldan foydalanish payvand birikmaning tashqi ko‘rininishini yaxshilash, payvandlash qo‘llaniladigan sohalarni kengaytirish, eritib payvandlashning kam tejamli usullarini boshqasi bilan almashtirish va elektrodlarning chidamliligini oshirish imkonini beradi.

Bir yo‘la bir nechta (10–15 tagacha) nuqtalar tushirib relyefli payvandlash eng samaralidir. Zalvorli elektrodlar vositasida barcha relyeflar bo‘yicha siqilgan detallar qiziydi. Siqish kuchi ta’sirida chiqiqlar bir vaqtning o‘zida cho‘kadi. Ichki tegish joyida (kontaktda) me’yoridagi o‘lchamli quyma o‘zak yuzaga keladi. Shunday qilib, bir sikl ichida qo‘srimcha belgilanmagan va nuqtalari berilgan tarzda joylashgan ko‘p nuqtali payvand chok hosil bo‘ladi.



**20.1-rasm. Relyefli payvandlash sxemasi:**

- 1 – payvandlanayotgan detallar; 2 – tok keltiruvchi elektrodlar;
- 3 – transformator; 4 – o‘zak; 5 – relyef.

Relyefli payvandlashning afzal jihatlari:

- mashinaning bir yurishida bir necha nuqtalar bir yo‘la payvandlanadi, bu esa mehnat unumdorligini oshiradi. Bir vaqtning o‘zida payvandalanadigan nuqtalar soni uskunaning elektrodlarda zarur payvandlash toki va kuchini hosil qilish imkoniyatiga bog‘liq (yupqa po‘latlarda bir yo‘la 20 tagacha relyef payvandlanadi);

- payvand birikmlar ko‘p elektroqli mashinanalarda nuqtali payvandlashga list metallardan yasalgan kichikroq o‘lchamli detallarni payvandlashga qaraganda ixchamroq joylashadi;


- relyeflar nuqtali payvandlashga nisbatan kichikroq oraliqda (kichikroq qadam bilan) va payvandlanayotgan detallarning chetiga yaqinroq joylashadi. Shu tufayli tayanch yuzasi kichik bo‘lgan, list po‘latdan tayyorlangan detallarga turli mahkamlash detallarini bir necha joyidan payvandlab qo‘yish (privarka) uchun relyefli payvandlashdan foydalanish imkonini bo‘ladi;

- nuqtalar oldindan relyeflar bilan belgilab qo‘yilgan joylarda joylashadi. Payvandlash izlarining kamligi (kichikligi) birikmaning tashqi ko‘rinishini yaxshilaydi;
- 1:6 va bundan katta nisbatli list metallarni payvandlash mumkin;
- yuzasi oksidlangan list po‘latlar ham yaxshi payvandlanadi, chunki relyeflarni shtamplash va katta bosim oksid pardalarini qisman yemiradi, tegish (kontakt) qarshiliginini kamaytiradi hamda barqarorlashtiradi;
- relyefli payvandlash uskunalarini ko‘p elektrodli nuqtali payvandlash mashinalariga nisbatan soddarоq.

Relyefi payvandlash har xil mayda mahkamlash detallari, vtulkalar, skobalar, o‘qlar va shu kabilarni list po‘latdan yasalgan yirikroq buyumlar bilan biriktirish uchun eng ko‘p qo‘llaniladi. Relyeflar, odatda, mayda detallarda ularni tayyorlash jarayoni bilan bir vaqtida sovuqlayin hosil qilinadi. Ularning umumiyligi yuzasi kattalashishi bilan payvand birikmaning mustahkamligi ham mos ravishda ortadi. Halqasimon relyefli buyumlarda zinch (germetik) birikmalar hosil qilish mumkin.

## 20.2. Uchma-uch payvandlash

Uchma-uch payvandlash deb, kontaktli payvandlashning shunday turiga aytiladiki, bunda payvandlanadigan detallarning birlashtiriladigan butun yuzasi, butun uchma-uch birikish joyi bo‘yicha amalga oshiriladi.



**20.2-rasm.** *Uchma-uch payvandlash sxemasi.*


Payvandlash uchun detallar qisish qurilmasi yordamida pastki tok o‘tkazuvchi elektrodlarga siqiladi. Bu elektrodlar kontaktli payvandlash mashinasini transformatorining ikkilamchi cho‘lg‘amini har xil ishorali qutblari hisoblanadi. Tokni almashtirib ulagich yordamida transformatorning ikkilamchi chulg‘amining zanjirini tutashtirib, qarshilikka keltirilgan detallar orqali katta kuchli tok o‘tkaziladi. Shunda ikki detalning tegish qarshiligi evaziga jadal ajralib chiqayotgan issiqlik payvandlanayotgan yuzalarning metallning erish haroratigacha tez qizishini ta’minlaydi. Detallar talab etilgan darajada qizigandan keyin cho‘ktirish qurilmasi yordamida bosiladi.

Yuqori harorat va bosimning bирgalikdagi ta’siri, payvandlanayotgan qismlar materialidan umumiyligi kristall panjara hosil bo‘lishi tufayli detallar payvandlanadi.

Uchma-uch payvandlash, bajarilish usuliga qarab ikki asosiy turga ajratiladi:

*1) Qarshilik bilan uchma-uch payvandlash.*

Qarshilik bilan uchma-uch payvandlashda detallar avval  $F_b$  kuch bilan siqiladi va payvandlash transformatori tarmoqqa ulanadi. Detallar orqali payvandlash toki  $I_{pay}$  o'tadi va detallarning uchma-uch birikish joylari erish haroratiga yaqin haroratgacha asta-sekin qiziydi. Keyin payvandlash toki uzib qo'yiladi va cho'ktirish kuchi keskin oshiriladi, shunda ular uchma-uch birikish joyida deformatsiyalanadi. Bunda payvandlash joyidan sirdagi pardalarning bir qismi siqilib chiqadi, fizik kontakt shakllanadi va birikma hosil bo'ladi.



**20.3-rasm. Qarshilik bilan uchma-uch payvandlashda birikma hosil bo'lish sxemasi ( $F_b$  – boshlangich kuch;  $F_{cho'kt}$  – cho'ktirish kuchi).**

Qarshilik bilan uchma-uch payvandlashda birinchi tayyorgarlik bosqichida detallar katta kuch ta'sirida bir-biriga tegadi.


Ikkinchi bosqichda tok ulanib, birikmaning yon yuzalari asosiy metallning erish harorati  $T_{erish}$  ning (0,8–0,9) qismi qadar qizdiriladi. Metallning tutash qismlari ma'lum chuqurlikkacha qiziydi va birligida plastik deformatsiyalanadi. Payvandlashning ayni usulida plastik deformatsiya vaqtida yon yuzalardan oksidlarning bir qismi siqilib chiqadi. Bu paytda atomlarning termik faollashuvi o'zaro ta'sirining aktiv markazi yuzaga kelishiga va qattiq fazada payvand birikmaning uzil-kesil shakllanishiga yordam beradi.

Detallarni uchidagi pardalari payvand birikma hosil bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qizdirish vaqtida havo qizdirilayotgan uchlarga deyarli qarshiliksiz kirib, ularni oksidlaydi va atomlararo bog'lanishlar yuzaga kelishiga to'sqinlik qiladi. Mazkur usulning ayrim turlarida qo'llaniluvchi payvandlash joyini himoyalash oksidlanish jarayonlarini sekinlashtiradi. Qarshilik bilan uchma-uch payvandlashda birikish joyida, odatda, oksidlarning bir qismi qolib ketadi, ular birikmaning sifatini yomonlashtiradi;

*2) Eritib uchma-uch payvandlash.*

Eritib uchma-uch payvandlashda dastlab detallarga pay-vandlash transformatoridan kuchlanish beriladi, keyin ular bir-biriga yaqinlashtiriladi. Detallar bir-biriga tekkanda tokning zinchligi kattalagi tufayli tegish joyining ayrim joylaridagi metall tez qiziydi va portlashsimon

yemiriladi. Tegish joylari, ya’ni ulagichlar uzlusiz hosil bo‘lishi va yemirilishi, ya’ni uchlarning erishi hisobiga detallarning uchlari qiziydi. Jarayon oxiriga kelib, uchlarda uzlusiz suyuq, metall qatlami yuzaga keladi. Bu paytda yaqinlashtirish tezligi va cho‘ktirish kuchi keskin oshiriladi; uchlар bir-biriga tutashadi, suyuq metallning ko‘p qismi sirdagi pardalar bilan birga payvandlash joyidan siqilib chiqib, (qalinlashgan joyi) grat hosil qiladi. Payvandlash toki cho‘ktirish vaqtida o‘z-o‘zidan uziladi.



**20.4-rasm.** Eritib uchma-uch payvandlashda birikma hosil bo‘lish sxemasi ( $F_b$  – boshlangich kuch;  $F_{cho'kt.}$  – cho‘ktirish kuchi;  $\delta_{er}$  – erigan metall qatlami).

Eritib uchma-uch payvandlashda birinchi bosqichda detal-larning uchlari faqat elektr kontakt uchun yetarli bo‘lgan kichikroq kuch bilan bir-biriga tekkiziladi. Ikkinci bosqichda payvandlash joyi qizdiriladi va eritiladi. Uchlар avval qattiq holatda tekkiziladi, keyin esa eritilgan metall ulagichlar ko‘rinishda tegadi, bu ulagichlar vaqtı-vaqtida yemiriladi. Eritib qizdirishda uchlarning harorati erish haroratiga yaqin bo‘ladi. Katta kesimli detallar bu bosqichdan oldin uchlарini qisqa muddat tutashriish yo‘li bilan yoki torets induktori orqali yuqori chatotali tok (YUCHT) bilan biroz qizdiriladi. Uchinchi bosqichda cho‘ktirish amalga oshiriladi. Uchlар bir-biriga tez yaqinlashtirilganda uchlarni berkitib turuvchi erigan metall pardalari umumiy suyuq yupqa qatlamga birlashadi va suyuq fazada umumiy bog‘lanishlar vujudga keladi. Cho‘ktirish va plastik deformatsiyalash davom ettirilganda suyuq metall tirkishdan siqilib chiqadi hamda birikma qattiq fazada uzil-kesil shakllanadi. Erigan metallning bir qismi siqilib chiqmasdan qolib ketishi mumkin va bu joyda payvand birikma birgalikda kristallanish natijasida hosil bo‘ladi. Eritib payvandlashda oksid pardalarini yo‘qotish ancha oson. Ularning ko‘p qismi yuzada erigan metall holatida bo‘lib, detallar uchlарini qoplab turadi va cho‘ktirish chog‘ida erigan metall bilan birga chiqib ketadi.

Eritib uchma-uch payvandlash usuli payvanlalanadigan detallar ko‘ndalang kesimining materiali, o‘lchами va shakliga qarab, shuningdek mayjud uskunalarni hamda birikmaning sifatiga qo‘yiladigan talablarni inobatga olgan holda tanlanadi:

- qarshilik bilan payvandlash orqali asosan kichikroq kesimli (ko‘pi bilan  $250 \text{ mm}^2$ ) detallar biriktiriladi;

– kesimi  $1000 \text{ mm}^2$  gacha bo‘lgan detallar uzliksiz eritib payvandlanadi (erish jarayonining o‘z-o‘zidan rostlanishi yomon bo‘lgani uchun bundan katta kesimli detallarni bu usulda payvandlab bo‘lmaydi);

– biroz qizdirgan holda eritib qarshilik bilan payvandlash 5000–10000  $\text{mm}^2$  li kesimlar bilan chegaralanadi. Kesimi  $10000 \text{ mm}^2$  dan katta detallar payvandlash transformatorining kuchlanishi va harakatlanuvchi qisqichni uzatish tezligi dastur bilan boshqariluvchi mashinalarda uzliksiz eritib payvandlanadi.

Kontaktli uchma-uch payvandlash quyidagi hollarda keng qo‘llaniladi:

– prokatdan uzun buyumlar (qozonlarning qizish yuzasidagi quvurdan ishlangan zmeyeviklar, temir yo‘l reqlari, temir-beton armaturasi, uzliksiz prokatlash sharoitida tanavorlar) olish uchun;

– oddiy tanavorlardan murakkab detallar (uchish apparatlari shassilarining qismlari, tortqilar, vallar, avtomobilarning kardan vallari va b.) tayyorlash uchun;

– tutash shakldagi murakkab detallar (avtomobil g‘ildiraklarining bo‘g‘inlari, reaktiv dvigatellarning bikrlik chambaraklari, shpangoutlar, zanjirlar bo‘g‘inlari va b.) yasash uchun;

– legirlangan po‘latlarni tejash maqsadida (asbobning ish qismi tezkesar po‘latdan, quyiroq qismi esa uglerodli yoki kam legirlangan po‘latdan ishlanadi).

## Nazorat savollari

1. Relyefi payvandlashning mohiyati nimadan iborat?
2. Relyefli payvandlash qaysi sohalarda qo‘llaniladi?
3. Relyefli payvandlashning qanday afzalliklari bor?
4. Qarshilik bilan uchma-uch payvandlashda birikma hosil qilish qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
5. Eritib uchma-uch payvandlashning mohiyatini aytib bering.
6. Uchma-uch payvandlash usuli qanday parametrлarga qarab tanlanadi?
7. Uchma-uch payvandlash qaysi sohalarda qo‘llaniladi?

## 22-MA’RUZA. SOVUQ HOLATDA VA DIFFUZION PAYVANDLASH Reja:

22.1. Sovuq holatda payvandlash

22.2. Diffuzion payvandlash

### 22.1. Sovuq holatda payvandlash

Metallarni sovuq holatda payvandlash chuqr o‘tmishdan beri qo‘llanilib kelmoqda. Sovuq holatda payvandlash tarixining zamонавиј davri 1948-yilda Angliyada bajarilgan tadqiqotlardan boshlanadi.

Sovuq holatda payvandlash – payvandlanadigan qismlarni anchagina plastik deformatsiyalagan holda, tashqi issiqlik manbalari bilan qizdirmasdan bosim ostida payvandlash.

Sovuq holatda payvandlash usuli plastik deformatsiyalashdan foydalanishga asoslangan. Plastik deformatsiyalash yordamida, payvandlanayotgan yuzadagi mo‘rt oksid pardasi, ya’ni metallarning birikishiga halaqit beruvchi asosiy to‘sinq parchalab tashlanadi. Biriktirilayotgan metallar orasida metalli boglanishlar yuzaga kelishi hisobiga yaxlit metall birikma hosil bo‘ladi. Ushbu bog‘lanishlar biriktirilayotgan metallar yuzalari  $(2-8) \cdot 10^{-7}$  mm atrofida yaqinlashtirilganda elektron bulut hosil bo‘lishi natijasida atomlar orasida yuzaga keladi. By bulut ikkala metall yuzanining ionlashgan atomlari bilan o‘zaro ta’sirlashadi.

Sovuq holatda payvandlashning avzalliklari:

- narxi arzonligi;
- unumidorligi yuqori;
- yong‘in portlash xavfsizligi muhitida ishlarni avto-matizasiyalash imkonini mavjudligi;
- izolyatsiyalangan detallarni payvandlash imkonini borligi.


Sovuq holatda payvandlash bilan yuqori plastik xususiyatga ega metallarni payvandlash mumkin masalan: aluminiy va uning qotishmalari, mis va uning qotishmalari, kadmiy, nikel, qo‘r-g‘oshin, qalay, sink, titan, kumush va boshqalar. Bu payvandlash usuli turli xil metallarni payvandlashda ishlatiladi, masalan, misni aluminning bilan payvandlashda.

Sanoatda asosan ikki tur payvvandlash usuli ishlatiladi: ustma-ust payvandlash va uchma-uch payvandlash.

Ustma-ust payvandlashda payvaandlanayotgan detallarni ustma-ust taxlab press ostiga qo‘yiladi. Payvand birikma detallarni plastik deformasiyalish hisobiga bo‘ladi.

Amaliyotda quyidagi payvandlash usullari ishlatiladi: payvandlanayotgan detalni oldindan qismasdan, payvand-lanayotgan detallarni oldindan qisib, payvandlanayotgan detallarni bir tomonini deformatsiyalab.

1) Detallarni oldindan qismasdan nuqtali payvandlash (12.1-rasm).




**22.1-rasm.** Payvandlanayotgan detallarni oldindan qismasdan sovuq holatda nuqtali payvandlash sxemasi:

1 – payvandlanayotgan detallar; 2 – puanson.

Payvandlashga taylorlangan detallar (1), o‘qdoshli joylashgan puansonlar orasida o‘rnatiladi (2). Kuchlanish ta’sir etganda puansonlarning ishchi do‘ngliklari payvandlash uchun ma’lum deformasiyaga ega bo‘lguncha metallni ezadi. Puansonlarning ishchi do‘ngliklarining eng ratsional shakli – bu to‘g‘ri burchakli va dumaloq. Puansonning ishchi do‘ngligining eni va diametrini payvandlanayotgan detal qalinligi 1–3 ga teng qilib olinadi.

2) Detalni oldindan qisib bajariladigan nuqtali payvandlash. (12.2-rasm).




**12.2-rasm.** Payvandlanayotgan detallarni oldindan qisib bajariladigan sovuq holatda nuqtali payvandlash chizmasi.

Qisqichlar (2) orasidagi detalni puansonning ishchi do‘ngliklarigacha (3) eziladi. Shuni hisobiga payvandlanayotgan detallar qiyshayishi bartaraf etiladi va payvand birikmaning mustahkamligi oshiriladi. Bu usulda payvandlashda qisqichda bosimni 29,4–49MPa qilib olish tavsiya etiladi. Qisqich yuzasi puansonning ishchi do‘nglik yuzasidan 15–20 martaga ortiq bo‘lishi kerak.

3) Bir tomonli deformatsiyalash bilan nuqtali payvandlash.

Bunday payvandlash usuli bilan, payvand birikmaning yuzasi o‘ta tekis bo‘lgan detallar payvandlanadi.



**12.3-rasm.** Payvandlanayotgan detalni bir tomonli deformatsiyalash bilan sovuq holatda nuqtali payvandlash chizmasi.

Bu holatda ustma-ust payvandlanayotgan detallar (1) tekis asosda (4) joylashadi, ishchi puanson (3) esa talab etilgan shakl va o‘lcham bo‘yicha shu detalga bosiladi.

Bir tomonli deformatsiyalashda payvand birikmaning mustah-kamligi payvandlanayotgan detalning qalinligiga nisbatan puanson bilan bosish chuqurligi chamasi 60% bo‘lganda maksimal darajaga yetadi.

## 22.2. Diffuzion payvandlash

Diffuzion payvandlash usuli N.F. Kazakov tomonidan 1953-yilda ishlab chiqilgan edi. Diffuzionpayvandlashbosimostidapayvandlashusullariguruhiqakiradi, bundapayvandlanayotganqismlarningplastikdeformatsiyalanishevazigabirkishi, erishharoratidanpastharoratda, ya'niqattiqfazadaamalgaoshadi. Mazkurusulningo'zigaxosxususiyatishundaki, qoldiqdeformatsiyasinisbatankattabo'limgan, yuqoriharoratdabajarijadi.

Payvandlashjarayonidama'lumbo'lganko'pginaissiqlikmanbalaridanfoydalanibamalgaoshirishmumki n. Induksion, radiatsion, elektron-nuryordamidaqizdirish, shuningdeko'tuvchitokbilanqizdirishhamdatuzlareritmasidaqizdirishdanamaldaengko'pfoydalilanidi.

Payvandlash paytida biriktirilayotgan detallar bir-biriga to'gridan-to'gri yoki qatlamlar (folga yoki kukun qistirmalar, qoplasmalar) orqali tekkiziladi.

Diffuzion payvandlash ko'pincha vakuumda olib boriladi. Ammo jarayonni himoya yoki tiklash gazlari yoki ularning aralashmalari muhitida amalga oshirish ham mumkin (nazorat qilinadigan muhitda diffuzion payvandlash). Kislrorodga uncha yaqin bo'limgan materiallarni payvandlashda jarayonni hatto himoyasiz, havoda ham olib borish mumkin. Diffuzion payvandlash uchun muhit sifatida tuzlar eritmalaridan ham foydalansa bo'ladi, ular ayni paytda issiqlik manbalari vazifasini ham bajaradi.

Diffuzion biriktirish orqali payvandlash jarayoni shartli ravishda ikki bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqichda materiallarni yuqori haroratgacha qizdiriladi va bosim beriladi, natijada bir-biriga tegib turgan yuzalardagi mikrochiqiqlar plastik deformatsiyalanadi turli pardalar yemiriladi hamda yo'qoladi. Bunda metali bir-biriga to'g'ridan to'g'ri tegib turuvchi (kontakt) ko'plab qismalar (metall bog'lar) hosil bo'ladi.


Ikkinci bosqichda qolib ketgan mikronotekisliklar yo'qotiladi va singish (diffuziya) ta'sirida o'zaro birikish hajmiy zonasini yuzaga keladi.

Diffuzion payvandlashning avzalliklari:

- kiyinchiliksiz turli materiallarni payvandlash imkoniyati mavjud (po'lat bilan cho'yanni, po'lat bilan titanni, po'lat bilan niobiyni, po'lat bilan volframni, po'latni metall-keramika bilan, platinani titan bilan, oltinni bronza bilan va hokazo.);
- turli qalinlikdagi detallarni payvandlash imkoniyati mavjudligi;
- asosiy metall va payvand birikma metallarini mustahkamligini bir tekis ta'minlaydi;
- payvandlash jarayonida metall erishi yo'q, vaholangki payvand birikmaga yomon ta'sir etuvchi metallurgik ta'sir etmaydi, konstruksiyani ishlab chiqarish arzonlashadi.

Diffuzion payvandlashning kamchiliklari:


- payvandlash siklining davomiyligi uchun ishlab chiqarish jarayoni unumdorligi past;
  - jihozlar va texnologik moslamalarning murakkabligi, bir vaqtning o'zida qizish va yuklamaga ta'sirlanishi;
  - kontakt yuza sifatiga yuqori talablar qo'yilishi.
- Diffuzion payvandlash amaliyotida ikkita texnologik jarayon qo'llanilishi ma'lum:
- 1) Erkin deformatsiyalash sxemasi bo'yicha diffuzion payvandlash – bundaoquvchanlik chegarasidan past bo'lgan doimiy kuchlanish ishlatiladi.



**22.4-rasm.** Erkin deformatsiyalash sxemasi bo'yicha diffuzion payvandlash:

1 – yuklash tizimi; 2 – qizdirgich; 3 – detallar.

2) Majburiy deformatsiyalash sxemasi bo'yicha diffuzion payvandlash – bunda kuchlanish va plastik deformatsiyalanish payvandlash jarayonida rostlanuvchi tezlik bilan harakatlanuvchi maxsus qurilma bilan ta'minlanadi.



**22.5-rasm.** Majburiy deformatsiyalash sxemasi bo'yicha diffuzion payvandlash:  
1 – yuklash tizimi; 2 – qizdirgich; 3 – detallar.

## Nazoratsavollari

1. Sovuqholatda va diffuzionpayvandlashning mohiyatinimadaniborat?
2. Sovuqholatda payvandlashqaysisohalarda qo'llaniladi?
3. Diffuzion payvandlashning qanday avzalliklari bor?

## 23-MA'RUZA.

### ULTRA TOVUSH YORDAMIDA VA ISHQALAB PAYVANDLASH Reja


- 23.1. Ultratovush yordamida payvandlash
- 23.2. Ishqalab payvandlash

#### 23.1. Ultratovush yordamida payvandlash

Ultratovush yordamida payvandlash – bu tadqiqotning rivojlanish davri XX asning 30–40-yillaridan boshlangan. Ushbu jarayonning ochilishiga sabab kontaktli payvandlash bilan bog'liq bo'lgan yuzalarni tozalashda qo'llaniladigan ultratovush to'lqinlar bilan bog'liqdir.

Ultratovush yordamida payvandlash – ultratovush tebranishlari ta'sirida amalga oshiriluvchi bosim ostida payvandlashdir. Metallarni ultratovush yordamida payvandlashda ajralmas birikma hosil qilish, biriktiriladigan qismlarni nisbatan kichik (mikrosxemalar va yarim o'tkazgichli asboblar qismlarini biriktirishda nyutonning o'ndan bir qismi yoki birligiga teng hamda nisbatan qalin tunukalarni biriktirishda  $10^4$  N dan katta bo'limgan) kuch bilan siqish va ayni vaqtida tutash (kontakt) joyiga 15–80 kHz chastotali mechanik tebranishlar ta'sir ettirish jarayonida hosil bo'ladi.

Ultratovush yordamida payvandlashda, birikma hosil bo'lishi uchun zaror sharoit, biriktirilayotgan qismlarning bir-biriga tutash joyida mexanik tebranishlar mavjudligi natijasida yuzaga keladi. Tebranish energiyasi murakkab cho'zilish, siqilish va kesilish zo'riqilshlarini hosil qiladi. Biriktirilayotgan metallarning egiluvchanlik chegarasidan oshib ketganda ularning tutash joyida plastik deformatsiya sodir bo'ladi. Plastik deformatsiya va ultratovushning ajratuvchi (disperslovchi) ta'siri natijasida turli xil sirtqi pardalar yemiriladi va yo'qoladi hamda payvand birikma hosil bo'ladi. Tutash joyidagi harorat, odatda, biriktirilayotgan metallar erish haroratinining 0,3 – 0,5 qismidan ortiq bo'lmaydi.



**23.1-rasm.** Ultratovush yordamida metallarni payvandlash uchun namunaviy tebranish tizimlari sxemasi:

a – bo‘ylama; b – bo‘ylama-ko‘ndalang; d – bo‘ylama-vertikal; e – buralma;

1 – uzgartirgich; 2 – to‘lqin o‘tkazuvchi bo‘g‘in; 3 – akustik bo‘shatkich; 4 – payvandlash uchligi; 5 – payvandlanayotgan detallar.

Ultratovushyordamida payvandlashning avzalliklari:

– payvandlash, metallniqattiqholatida qizdirmasdanbajariladi, natijada birikma hududida mo‘rtintermetallidlarhosilbo‘lishiga moyilbo‘lgankimyoviyfaolmetallarva turlijinslimetallarnibirkirishimkoniniberadi;

– ingichka detallarnipayvandlashimkoniniberadi;

– payvandbirikma yuzalariga tozaliktalablariuncha yuqoriemasligi, qoplangan, oksidlashgandetalyuzalarida, hamda turliizolatsionqatlamimayjudyuzalarnipayvandlashimkoniniberadi;

– pastpayvandlashkuchlanishlariishlatilishihihisobiga detalyuzalarikamdeformasiyalanadi;

– payvandlashjarayonining avtomatlashtirilishioddha.

Ultratovushyordamida payvandlashbuyumlarningturlielementlarini 0,005 – 3,0 mmqalinlikda yoki 0,01 – 0,5 mmdiametrda bo‘lgano‘lchamlarnipayvandlashimkoniniberadi. Ultratovushyordamida payvandlashningqo‘llashsohasiquyidagilardir: yarimo‘tkazgichlar, elektronika uchunmikro-asbobva mikro-elementlar, kondensatorlar, rele, saqlagichlarva boshqalarniishlabchiqarishda qo‘llaniladi.

## 23.2. Ishqalab payvandlash

Ishqalab payvandlash dastgohchi A.I. Chudikov tomonidan nashr etilgan oddiy tokarlik dastgohida kam uglerodli po‘latdan taylorlangan ikkita o‘zakni uchma-uch biriktirib ishqalash natijasida payvandlashni bajarish mumkinligini ilgari surish bilan vujudga keldi. Ishqalabpayvandlashdeb, birbirigasiqilibturganvanisbiyharakatdaishtiroketadiganikkitatavanorningtegishyuzasidahosilbo‘luvchiissiqli kdanfoydanishhisobigaamalgao shiriladiganajralmasbirikmahosilqilishtexnologikjarayonigaaytiladi. Nisbiyharakatuzilgandayokibatamomto‘xtagandaishqalabpayvandashcho‘kichkuchiniqo‘yishbilannihoya sigayetkaziladi.

Payvandbirikma, payvandlanayotgantananavorlarningbir-birigate gibituvchihajmlariplastikdeformatsiyalanishinatijasidayuzagakeladi. bosim bilan payvandlashning boshqa sullarikabi,


Ishqalabpayvandlashning farqli xususiyatishundaniboratki, ishqalanuvchiyuzalaro‘zaroharakatlangandavujudgakeluvchiishqalanishkuchlariniyengishgasarflanuvchiis hningto‘g‘ridanto‘g‘rio‘zgarishisobigahosilbo‘ladi. bunda issiqlik,

Ishqalabpayvandlashning avzalliklari:

- payvandbirikmaningyuqorisifatlibajarilishi;
- jarayonningyuqoriunum dorligi;
- turlijinslimetallarnipayvandlashimkonimavjudligi.

Ishqalabpayvandlashning kamchiliklari:

- mavjudishqalabpayvandlash mashinalariko‘ndalang kesim yuzalar 150 mm<sup>2</sup> dankattabo‘lgantano varlarnibirkira olmaydi.



**23.2-rasm.** Uzluksiz yurg‘izib ishqalab payvandlash sxemasi:

1 – tormoz; 2 – payvandlanayotgan tanavor-detallar.

### Nazorat savollari

1. Ultratovush va ishqalab payvandlashning mohiyati nimadan iborat?
2. Ishqalab payvandlash qaysi sohalarda qo‘llaniladi?
3. Ultratovush payvandlashning qanday avzallikkleri bor?

## 24-MA’RUZA.

### TERMO-KOMPRESHION VA PROKATLAB PAYVANDLASH

#### Reja


- 24.1. Termo-kompression payvandlash
- 24.2. Prokatlab payvandlash

### 24.1. Termo-kompression payvandlash

Termo-kompression payvandlash – biriktirilayotgan detallarni qizdirib bosim ostida mikro payvandlashdir. Termo-kompression payvandlash yarim o’tkazgichli mikro uskunalarni va simli o’tkazgichli turli korpusli integral sxemalarni yig‘ishda juda keng qo‘llaniladi.

Termo-kompression payvandlashning usullari asosiy uchta jihatlari bilan tavsiflanadi:


- 1) qizdirish usuli bo‘yicha (14.1-rasm);



#### **24.1-rasm.Qizdirish usuliga nisbatan termokompressiyaning turliligi:**

a – faqatgina ishchi stolining qizdirilishi; b – ishchi asbobning qizdirilishi; d – ishchi stol va asbobni baravar qizdirish; 1 – ishchi asbob; 2 – ulanuvchi sim; 3 – yarim o'tkazgichli asbobning kristali; 4 – ishchi stolcha; 5 – qizdirish uchun o'rama sim.


#### **2) birikmani bajarish usuli bo'yicha (14.2 - rasm);**



#### **24.2-rasm.Birikma bajarish usuli bo'yicha termokompression payvandlash usullari:**

a – ustma-ust; b – uchma-uch.

#### **3) hosil bo'lgan birikma turi bo'yicha, ishlatilayotgan asbob shakliga bog'liq bo'lgan (14.3-rasm).**



#### **24.3-rasm.Ishlatilayotgan asbob shakli bo'yicha termokompression birikmalarning asosiy turlari:**

a – tekis payvand nuqta qo'rinishida (pona simon termokompressiya);  
 b - mix qalpoq qo'rinishida; d – mustaxkam qirra bilan; e – "baliq ko'zi" turli.


### **24.2. Prokatlab payvandlash**

Prokatlab payvandlash yo'li bilan turli vazifalarni bajaruvchi ikki va undan ortiq qatlamlar (tarkibiy qismlar)dan tashkil topadigan metall konstruksiyalar hosil qilinadi. Kuch elementi vazifasini bajaruvchi qatlam *asosiy qatlam* deyiladi. Konstruksiyalarga qo'yiladigan talablar bilan belgilanuvchi maxsus xossalarga ega bo'lgan qatlam *qoplama qatlam* deb ataladi. Qoidaga ko'ra, asosiy qatlam qoplama qatlamga nisbatan qalinroq bo'ladi va arzonroq materialdan tayyorlanadi.

Payvandlash jarayoni plastik metallardan ko'p qatlamlili materiallar olishda biriktiriladigan materiallarni qizdirgan holda (issiq usulda prokatlab

payvandlash) va sovuq holatda (sovuglayin prokatlab payvandlash) amalga oshirilishi mumkin.


Prokatlab payvanllash bosim bilan payvandlashning bir turi bo'lib, bunda payvand birikma o'zaro ta'sirlashuv vaqtida kam bo'lgani holda majburiy deformatsiyalash sharoitida hosil qilinadi.



**24.4-rasm.** Prokatlab payvandlash sxemasi:

1 – valik; 2 – payvandlanayotgan tanavorlar.

Prokatlab payvandlash bilan korroziya bardosh, antifriksion, olov bardosh va dekorativ ko'p qatlamlili konstruksiyalarni payvandlash mumkin, ularning ko'ndalang kesim yuzalari 14.5 – rasmida ko'rsatilgan.



**24.5-rasm.** Payvand birikmalarning ko'ndalang kesim profillari:

1 – qalin tunukali korroziya bardosh po'lat; 2 – qalin tunukali uch qatlamlili ishqalanishga chidamli; 3 – mahalliy qoplash bilan kesuvchi asbob uchun tunukali; 4 – 10 – fasonli korroziya bardosh; 11 – Fe-Ni ikki qatlimali tasma; 12 – Al-Fe-Ni uch qatlamlili tasma.

### Nazorat savollar

1. Termo-kompression va prokatlab payvandlashning mohiyati nimadan iborat?
2. Termo-kompression payvandlash qaysi sohalarda qo'llaniladi?
3. Prokatlab payvandlashdaasosiy va qoplama qatlamlar qanday vazifalarini bajaradi?

**25-MA’RUZA.**  
**PORLATIB, YUQORI CHASTOTALI VA MAGNIT-IMPULSLI**  
**PAYVANDLASH**  
**Reja**

25.1. Portlatib payvandlash


25.2. Yuqori chastotali payvandlash

25.3. Magnit-impulslı payvandlash

**25.1. Portlatib payvandlash**

1944 – 1946-yillari M.A. Lavrentev va uning hamkasblari Ukraina FA ning Kiev shahridagi matematika institutida portlatib payvandlash usuli bilan bimetall namunalar olingan edi.

Portlatib payvandlash – bosim bilan payvandlashning portlovchi modda zaryadi portlaganda ajralib chiqadigan energiya ta’sirida amalga oshiriladigan texnologik jarayondir.



**25.1-rasm. Portlatib burchak ostida payvandlash sxemasi:**

1 – detanator; 2 – portlavchi modda zaryadi; 3 – harakatlanuvchi qism; 4 – qo‘zg‘almas qism; 5 – tayanch.

Portlatib payvandlashning umumiy sxemasi 15.1-rasmda keltirilgan. Qo‘zg‘almas plastina 4 va harakatlanuvchi plastina (3) burchak uchidan berilgan  $h$  masofada  $\alpha$  burchak ostida joylashtiriladi. Harakatlanuvchi plastinaga portlovchi modda zaryadi (2) qo‘yiladi. Burchak uchiga detonator 1 o‘rnatalidi. Payvandlash tayanch (5) (metall, qum) ustida bajariladi. Harakatlanuvchi plastinaning yuzi, qoidaga ko‘ra, asosiy plastinaning yuzidan katta bo‘ladi. Portlovchi moddaning tekis zaryadi juda tez portlaganda (detonatsiya), portlash mahsulotlari yon tomoniga otilish effekti ta’sirini kamaytirish uchun harakatlanuvchi plastina asosiy plastina tepasida osilib turishi zarur.

Portlatib payvandlashning avzalliklari:

- qattiq va mo‘rt intermetallidlar hosil qiluvchi metall va qotishmalarini payvandlash mumkinligi, masalan, po‘latni aluminiy yoki titan bilan;
- turli shakl va o‘lchamli buyumlarni qoplash mumkinligi.

**25.2. Yuqori chastotali payvandlash**

XX asrning 30 – 40-yillarida metallarni payvandlash uchun yuqori chastotali tok ishlatalish qo‘llanib ko‘rilgan. 1944-yilda professor V.P. Vologdin tomonidan uni laboratoriyasida quvurlani uchma-uch payvandlash uchun yuqori chastotali tok ishlatala boshlandi.

Yuqori chastotali tok bilan payvandlash ham, bosim bilan payvandlash bo‘lib, bunda payvandlanadigan yuzalarni qizdirish uchun yuqori chastotali toklardan (YuChT) foydalaniladi. Bu tok payvandlanayotgan detallarga ikki usulda keltirilishi mumkin:

- payvandlanayotgan detallarni YuChT manbayiga ulovchi o‘tkazgichlar (konduktor) yordamida (energiya uzatishning konduktiv usuli);


- payvandlanayotgan detallarda YuChT manbayiga ulangan tok o‘tkazuvchi o‘ram (induktor) yordamida yuqori chastotali tokni induksiyalash evaziga (energiya uzatishning induksion usuli).

O‘tkazgichdan yuqori chastotali tok o‘tkazilganda o‘tkaz-gichning atrofi va ichida magnit maydoni hosil bo‘lib, u elektromagnit induksiyasi qonuniga ko‘ra o‘tkazgichda o‘z induksiya EYuKni yuzaga keltiradi, bu EYuK ta’minlash manbayining EYuKga qarama-qarshi yo‘nalgan bo‘ladi. Bunda ichki tok liniyalariga ta’sir qiladigan o‘zinduksiya EYuK sirtqi tok liniyalariga ta’sir etuvchi o‘zinduksiya EYuKdan katta bo‘ladi. Bu hol o‘tkazgichning sirtida tokning zichligi uning ichidagidan kattaroq bo‘lishiga olib keladi. Bunday notejislik tok chastotasi ortganda, ya’ni o‘zinduksiya EYuK miqdori tok chastotasiga mutanosib bo‘lganda oshadi. Shunday qilib, tok chastotasi ortishi bilan o‘tkazgichning sirtidagi tok miqdori oshib boradi. Bu effekt sirtqi effekt deyiladi.

Sirtqi effekt kuchli namoyon bo‘lganda tok o‘tkazgichninig markaziy qismidan deyarli oqmaydi, bu esa o‘tkazgichning aktiv qarshiligi ortishi va qizish kuchayishiga olib keladi.

Yaqinlik effekti qo‘shti o‘tkazgichlardan oqayotgan tok liniyalari qayta taqsimlanishidan iborat bo‘lib, bunga ularning o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi sabab bo‘ladi. Bu hodisa sirtqi effekt ancha kuchli namoyon bo‘lgandagina, ya’ni tokning singish chuqurligi o‘tkazgichning ko‘ndalang o‘lchamlariga nisbatan ancha kichik bo‘lganda va o‘tkazgichning ko‘ndalang kesimi faqat qisman tok bilan band bo‘lgandagina yuz beradi.

Agar yuqori chastotali tokli o‘tkazgich (induktor) o‘tkazuvchi plastina tepasida joylashtirilsa, plastinadagi tokning eng yuqori zichligi induktor ostida bo‘ladi. Plastina sirtidagi tok go‘yo induktor ketidan ergashgandek bo‘ladi. Bu hodisa payvandlanayotgan jismlarda tokning qayta taqsimlanishini boshqarib turish imkonini beradi va yuqori chastotali tok bilan payvandlashda muhim ahamiyat kasb etadi.




**25.2-rasm.Quvurni yuqori chastotali tok bilan payvandlash sxemasi:**

1 – pavandlanayotgan quvur; 2 – induktor; 3 – magnit o‘tkazgich; 4 – payvandlanadigan quvurlarni qotirib qo‘yish va cho‘kish hosil qilish uchun qismlar.

### 25.3. Magnit-impulsli payvandlash

**Magnit-impulsli payvandlash** – bosim bilan payvandlash bo‘lib, bunda impulsli magnit maydon ta’siri oqibatida hosil bo‘lgan payvandlanayotgan qismlarning to‘qnashishi hisobiga bajariladi.

Payvandlanayotgan «uloqtirilayotgan» (1) va harakatsiz (2) detallar  $\delta$  tirqish bilan induktorning ishchi hududiga (3), kiritiladi, u C kondensatorlarning quvvatli batareyalaridan (tok) ta’minlanadi. Kondensatorli batareyalarning zaryadsizlanishida, induktor orqali oquvchi tok, tashkil etib turgan muhitda elektr-magnit maydon hosil qiladi, u esa o‘z navbatida harakatlanuvchi detalda uyurmalangan tok yuboradi. Ikkita bir-biriga yo‘naltirilgan toklar to‘knashuvi «uloqtirilayotgan» detalni harakatga keltiradi, u esa o‘z navbatida oniy tezlik bilan harakatsiz detal bilan to‘qnash kelmasdan oldin siljib ularni payvandlashini sodir etadi.



**25.3-rasm.Magnit-impulsli payvandlash sxemasi:**

1 – uloqtiriladigan detal; 2 – harakatlanmaydigan detal; 3 – induktorga konsentrator; 4 – markazlovchi metall qisqich; ZQ – zaryad qurilmasi; C – kondensator; Z – zaryadsizlantirgich.

Magnit-impulsli payvandlash bilan 100 mm diametr gacha bo‘lgan quvurni hamda 0,5–2,5 mm qalinlikdagi tekis detailarni payvandlash mumkin. Magnit-impulsli payvandlash bilan aluminiy, ularning qotishmalari, mis, zanglamas po‘latlar va titan qotishmalarni payvandlash mumkin.

#### Nazorat savollari

1. Yuqori chastotali tok bilan payvandlashda sirtqi effekt va yaqinlik effektining ahamiyati nimada?
2. Portlatib payvandlashning mohiyati nimadan iborat?


## 26 - MA'RUZA. ERITIB QOPLASH

### Reja

- 26.1. Eritib qoplash usullari tasnifi
- 26.2. Eritib qoplanadigan materiallar

#### 26.1. Eritib qoplash usullari tasnifi

Buyumning o'lchamlarini o'zgartirish yoki unga maxsus xossalar (qattiqlik, korroziyaga qarshi chidamli, yeyilishga chidamli va h. k.) berish uchun uning sirtida metall qatlamini eritish jarayonigaeritib *qoplash* deyiladi.



**26.1-rasm.** Detalni eritib qopplash ko'rinishi:

1 – eritib qoplanayotgan qatlam; 2 – erish zonasasi; 3 – termik ta'sir zonasasi; 4 – asosiy metall.

Detallarga qattiq qotishmalar eritib qoplansa, ular yanada qattiq va yoyilishga chidamli bo'ladi. Eritib qoplash natijasida qimmat va noyob legirlangan po'latlar kamroq sarflanadi. Tekis, yaxshi, darz ketmaydigan, qatlamlanmaydigan, g'ovaklashmaydigan qoplama hosil qilish uchun eritib qoplanadigan metallning erish harorati asosiy metallnikidan ancha past bo'lishi kerak, uning chiziqli kengayish koeffitsienti esaasosiy metallning chiziqli kengayish koeffitsientiga yaqin bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda sanoatda eritib qoplashning juda ko'p usullari qo'llaniladi.


**1. Qo'lda yoy bilan eritib qoplash.** Eritib qoplash eriydigan yakka elektrodlar, elektrodlar bog'lami, yotqizilgan plastinasimon elektrodlar, quvursimon elektrodlar, bevosita hamda bilvosita ta'sir etadigan yoy va uch fazali yoy bilan bajariladi.

Elektrodlar bilan eritib qoplashni hamma fazoviy vaziyatlarda bajarish mumkin. Bu ish elektrodlar eriganida buyum sirtiga ketma-ket valiklar eritib yotqizish yo'li bilan bajariladi. Bunda eritib qoplanadigan sirt toza bo'lishi (metall yaltirab turadigan qilib ishqalab tozalanishi) lozim. Yotqizilgan har bir valikning sirti va navbatdagi yotqiziladitan valikning joyi ham, shuningdek, shlak, kuyindi va sachrandilardan tozalanadi.

Yaxlit monolit eritib yopishtirilgan metall qatlami hosil qilish uchun har bir keyingi valik oldingisini o'z enining 1/3 — 1/2 qismi bilan bekitishi kerak.

Eritib qoplangan bir qatlam metallning qalinligi 3—6 mm. Agar qalinligi 6 mm dan ortiq eritib qoplangan qatlam hosil qilinadigan bo‘lsa, bиринчи qatlamga perpendikular qilib ikkinchi qatlam valiklar eritib qoplanadi. Bunda valiklarning bиринчи qatlami sachrandi, kuyindi, shlak qo‘sishchalari va boshqa iflosliklardan yaxshilab tozalanishi kerak.


**2. Flyus ostida yoy bilan eritib qoplash.** Bajarilish usuliga ko‘raavtomatik yoki yarim avtomatik, ishlatiladigan simlar soniga ko‘ra esa bir elektrodli va ko‘p elektrodli bo‘lishi mumkin. Flyus ostida eritib qoplash uchun ishlatiladigan simlar konstruksiyasi bo‘yicha yalang va kukun to‘ldirilgan, shakliga ko‘ra doiraviy hamda tasmasimon bo‘ladi (16.2 - rasm).



**26.2-rasm.** Flyus ostida yoy bilan eritib qoplash:  
a – elektrod tasma; b – ko‘p elektrodli.

**3. Himoyagazlarimuhitida volfram (erimaydigan) va metallsim (eriydigan) elektrodlar bilan yoy bilan eritib qoplash.** Yoyni himoya qilish uchun argon va karbonat angidriddan foydalaniladi.


**4. Vibro-yoy bilan eritib qoplash.** Bunday eritib qoplash metall elektrod bilan elektr yoy bilan eritib qoplashning bir turi hisoblanadi farqi elektrodnii titratish yo‘li bilan bajariladi. Titratish amplitudasi elektrod sim diametrining 0,75 dan 1,0 gacha qismi chegaralarida bo‘ladi (16.3-rasm).



**26.3-rasm.** Vibro-yoy bilan eritib qoplash:  
1 – eritib qoplanadigan detal; 2 – sovutish suyuqligining uzatilishi;  
3 – vibrator elektr-magniti; 4 – prujina; 5 – elektrod simi.

**5. Elektr-shlak usulida eritib qoplash.** Bu usulda eritib qoplashning o‘ziga xos xususiyati ish unumining yuqoriligidir hamda aylanish yuzalarida va yassi yuzalarida eritib qoplangan metallni kimyoviy


tarkibinio‘zgartirish mumkin. (16.4-rasm). Eritib qoplash metallga bir o‘tishdayoq majburan shakl berib bajariladi. Amalda ko‘ndalang kesimi xohlagan ko‘rinishdagi elektrodlar: chiviqlar, plastinalar va hokazolar ishlataladi. Asosiy metallning suyuqlanish chuqurligini keng chegaralarda rostlash mumkin.



**26.4-rasm.Elektr-shlak eritib qoplash chizmasi:**


- a – vertikal holatda yassi yuzada; b – silindrik detallar sim bilan;
- d – silindrik detallar donli qo‘sishmcha ashyolar bilan.

**6. Gazbilaneritibqopplashdatalabetilganerishchuquriligiga erishishuchun asosiyva qo‘sishmcha metallniqizishdarajasinirostlab olishlozimdir.** Bunga erishishuchungaz alangasiniqo‘llashmaqsadga muvofiqbo‘ladi va ushbugaz alangasiyordamida eritibqopplashusulining avzalliktomonihamshundadir (16.5-rasm). Gazkislorodli alanga hameriganmetallni atrof-muhitdan, kislordan oksidlanishining oldini oladiva eriganmetalltarkibiga kiruvchi (talabetilayotganxususiyatnita’mlovchi) elementlarniuchibketishining oldini oladi. Gaz bilan eritib qoplash kamchiliklari – elektr yordamida qizdirish usullariga nisbatan ish unumдорligi ancha past va asosiy metallga termik ta’siri katta.




**26.5-rasm.Gaz bilan eritib qopplash.**

**6. Plazmali eritib qoplash.** Plazmali eritib qoplash bilvosita yoki bevosita plazma yoyi ta’sirida bajariladi. Eritib qopplashning bu usulida qo‘sishmcha material sifatida sim va kukun xizmat qiladi. Plazmali eritib qopplashda silliq yuza hosil qiladi va eritib qoplangan yuza yuqori sifatli bo‘ladi.



**26.6-rasm.** Plazma-kukunli eritib qoplash:

1 – elektrod; 2 – soplo; PG – plazma tashkil etuvchi gaz; HG – himoya gazi; S – suv; QK – qo’shimcha kukun.



**26.7 - rasm.** Plazma-kukunli eritib qoplash tok uzatuvchi qo’shimcha sim bilan:

1 – elektrod; 2 – soplo; 3 – qo’shimcha tok uzatuvchi sim; PG – plazma tashkil etuvchi gaz; HG – himoya gazi; S – suv.

Eritib qoplashda mehnat unumi eritib qoplangan metallning og‘irligi yoki yuzi (o‘lchamlari) bilan baholanadi (16.1-jadval).

#### 26.1 -jadval

##### Eritib qoplash usullarining unumdarligi

Eritib qoplash usuli	Unumdarligi, kg/soat
Yoyli dastakli qoplamlari elektrodlar bilan eritib qoplash	0,8–3
Bitta sim bilan flyus ostida avtomatik eritib qoplash	2–12
Ko‘p elektrordli flyus ostida avtomatik eritib qoplash	5–40
Tasma bilan flyus ostida avtomatik eritib qoplash	5–40
Gaz himoya muhitida eriydigan elektrord bilan eritib qoplash	1,5–9,0
Erimaydigan elektrord bilan argon-yoy bilan eritib qoplash	1,0–7,0
Vibro-yoyli eritib qoplash	1,2–3
Elektrod similari bilan elektr-shlak eritib qoplash	20–60

Donli qo'shimcha ashyolar bilan elektr-shlak eritib qoplash	20–200
Plazmali kukun bilan eritib qoplash	0,8–12
Plazma-kukunli eritib qoplash tok uzatuvchi qo'shimcha sim bilan	2–12

## 26.2. Eritib qoplanadigan materiallar

Eritib qoplash uchun quyidagi ashyollar ishlataladi: eritib qoplanadigan po'lat sim, legirlovchi qoplamlı metall elektrodlar, donador va kukunsimon eritib qoplanadigan aralashmalar, sim ko'rinishidagi qattiq quyma qotishmalar, kukun sim, flyuslar.

**Eritib qoplanadigan po'lat sim.** Elektr yoy yordamidaavtomatik eritib qoplash uchun ГОСТ 10543-98 bo'yicha diametri 0,3 dan 8 mm gacha bo'lgan eritib qoplanadigan po'lat sim ishlataladi. Bu sim uchun diametri hamda po'lat rusumini ko'rsatgan holda "Нп" shartli belgi qabul qilingan. Masalan, 30ХГСА po'latdan yasalgan va diametri 3 mm sim quyidagi shartli belgigaega: sim 3Нп-30ХГСА ГОСТ 10543-98. Metall elektrodlar tayyorlashda bu sim ishlatilmaydi.

26.2-jadval

### Eritib qoplanadigan simlarning qisqacha tavsifi

Sim rusumi	Eritib qoplangan metallning qattiqligi, HB	Eritib qoplashning namunaviy qo'llanish sohasi
Нп-25, Нп-30	160–220	O'qlar, shpindellar, vallar
Нп-35, Нп-40, Нп-45	170–230	O'qlar, shpindellar, vallar
Нп-50	180–240	Tortuvchi g'ildiraklar, aravachalarning skatlari, tirkak roliklar
Нп-65	220–300	Tirkak roliklar, o'qlar
Нп-80	260–340	Kolen vallar, kardan krestovinalari
Нп-40Г	180–240	O'qlar, shpindellar, vallar
Нп-50Г	200–270	Tortuvchi g'ildiraklar, temir g'ildirakli mashinalarning tirkak roliklari
Нп-65Г	230–310	Kran g'ildiraklari, tirkak roliklarning o'qlari
Нп-10Г3	250–330	Temir yo'l bandajlari, kran g'ildiraklari
Нп-30ХГСА	220–300	Qisuvchi prokat valiklar, kran g'ildiraklari

16.2-jadvalning davomi

Нп-14СГ	240–260	Prokat vallarning treflari, avtoilashmaning
Нп-19СГ	300–310	detallari, shlis vallari
Нп-30Х5	370–440	Sortprokat stanlarning prokat vallari

Нп-20Х14	320–380	Bug‘ va suv uchun mo‘ljallangan zadvijkalarning zichlovchi yuza qismilari
Нп-30Х13	380–450	Gidravlik presslarning plunjelerlari, kolen valning bo‘yni, shtamplar
Нп-40Х13	450–520	Traktor va ekskovatorlarning tirkak roliklari,
Нп-35Х6М2	480–540	konveyr detallari
Нп-Г13А	230–270	Relslarning krestovinalari
Нп-30Х10Г10Т Нп-12Х12Г12С Нп-Х15Н60 Нп-Х20Н80Т Нп-03Х15В5Г7М8Б	180–200	Yuqori bosimli sosudlarning korpuslari, yuqori haroratlarda ishlovchi tutun chiquvchi konuslari
Нп-40Х3Г2ВФМ	380–440	Og‘ir yuklangan kran g‘ildiraklari, rolikli konveyrning roliklari
Нп-40Х2Г2М	540–560	Zarbga ishlaydigan va abraziv yeyiladigan detallar
Нп-30ХНМ Нп-30ХФА	400–500	Issiq shtampovkalashda ishlatiladigan shtamplar, toblaydigan mashinalarning vallari
Нп-35В9Х3СВ	440–500	Tunuka va sort prokat stanlarning vallari, issiq shtampovkalashda ishlatiladigan shtamplar
Нп-45В9Х3СФ	440–500	Issiq metallni kesish uchun qaychilar, presslash asbobi
Нп-45Х2В8Т Нп-45Х4В3ГФ	400–600 280–450	Quvur va sort prokat stanlarning vallari, issiq shtampovkalashda ishlatiladigan shtamplar
Нп-35ХНФМС	420–480	Shlis vallari, ichki yonuv dvigatellarning kolen vallari

Uglerodli sim tarkibida 0,27 dan 0,70% gacha uglerod, 0,5 dan 1,2% gacha marganes, 0,37% gacha kremniy, 0,25% gacha xrom va 0,25% gacha nikel bo‘ladi. Undan o‘qlarga, vallarga, gusenitsa (o‘rmalovchi zanjir) larning tayanch roliklari va shu kabi boshqa detallarga metall eritib qoplashda foydalanadi. Qoplama qattiqligi 160 dan 310 HB gacha bo‘ladi.

Legirlangan eritib qoplanadigan sim tarkibida uglerod, marganes, kremniy, xrom, nikel (sim markasi va qanday maqsadda ishlatilishiga qarab) miqdori ko‘proq bo‘ladi. Simning ba’zi rusumlari volfram va vanadiy bilan legirlangan. Simlarning bu guruhi o‘qlarga, prokat valiklariga, og‘ir yuk bilan yuklangan g‘ildiraklar, zarb yuklamalar ta’sirida bo‘lgan va abraziv yeyiladigan detallar, shtamplar va qattiqligi 220 – 330 HB yoki 32 – 40 HRC bo‘lishi talab qilingan boshqa detallarga metall eritib qoplashda ishlatiladi.

Yuqori legirlangan simlar tarkibida uglerod, marganes va kremniydan tashqari xrom, nikel, volfram, vanadiy hamda titandan turli nisbatlarda deyarli ko‘p bo‘ladi. Yuqori legirlangan simlar armaturaning zichlovchi yuzalari, prokat valiklari, metall uchun mo‘ljallangan pichoq hamda

shtamplar, yuqori haroratda ishlaydigan detallar, temir yo‘l krestovinalariga metall eritib qoplashda qo‘llaniladi. Yuqori legirlangan simlardan eritib qoplangan metallning qattiqligi turli darajada, ya’ni 180 dan 280 HB va 32 dan 52 HRC gacha, shuningdek talab qilingan mustahkamlik va qovushqoqlikka ega bo‘lishi mumkin.

**Eritib qoplanadigan elektrodlar.** ГОCT 10051-75 da eritib – qoplanadigan elektrodlarning qoplangan qatlarning 25 dan 65 HRC gacha qattiq bo‘lishini ta’minlaydigan 44 turi ko‘zda tutilgan. Bu ГOCT eritib qoplangan metall kimyoviy tarkibi hamda har qaysi turdagagi elektrodning tegishli belgisini belgilaydi. Masalan: TSH-5-Э-24X12 quyidagicha tushuniladi: TSH-5-elektrod rusumi, Э harflari mazkur elektrod eritib qoplanadigan elektrod ekanligini ko‘rsatadi, 24X12 esa metall qoplamida o‘rtacha hisobda 0,24% uglerod, 12% xrom borligini bildiradi.

Keskichlar, frezalar va boshqa asboblarga metall eritib qoplash uchun TSI-1M, TSI-2Y, И-1 rusumli elektrolar ishlatiladi. Bunday elektrodlar qoplamada tez kesadigan po‘lat turidagi metall hosil qiladi va qattiqligi 62–65 HRC gacha bo‘lishi uchun termik ishlashga imkon beradi.

Pichoqlar va qaychilarning kesuvchi tig‘lari TSH-5 rusumli elektordlar bilan eritib qoplanadi.

Shtamplar, qoplama xromli martensit po‘lat hosil qiladigan O3SH-1, TSH-4, TSSH-1rusumli elektrodlar bilan eritib qoplanadi. Metall eritib qoplangan yuzalar yumshatiladi, mexanik ishlanadi, so‘ngra 40–57 HRC qattiqlikgacha toplanadi.

T-590, T-620, 13KH, X5 rusumli elektrodlardan eritib qoplangan metall qattiqligi 56–62 HRC, faqat abraziv asbob bilan ishlanadigan karbid yoki martensit sinfida bo‘ladi. Ular zarb yuklamasiz ishlaydigan tez yeylimadigan po‘lat va cho‘yan detallarga qoplanadi.

O3H-250Y, O3H-300Y, O3H-350Y, O3H-400Y rusumli elektrodlardan eritib qoplangan metall o‘rtacha qattiqlikdagi (250–400 HB) perlit sinfida bo‘ladi. Ular bilan vallar, relslar, o‘qlar eritib qoplanadi. Ana shunday elektrodlarni eritib hosil qilingan qoplam qattiqligi qoplanayotgan qatlarning asosiy metall bilan aralashish darajasi va sovish tezligiga bog‘liqidir. Tez sovitilsa eritib qoplangan metall toplanishi va darz ketishi mumkin. Shuning uchun bunday elektrodlar bilan oldindan 300–600°C gacha qizdirib, so‘ng eritib qoplanadi.

110Г13 rusumdagagi sermarganesli toplanadigan austenit po‘latdan tayyorlangan detallar ОМГ-Н elektrodlarni eritib qoplanadi.

### 26.3-jadval

Eritibqoplash uchun elektrodlar

Elektrod turi	Elektrod rusumi	Eritib qoplash
Э-10Г2	O3H-250Y	Intensiv zarbiy yuklanish-larda
Э-11Г3	O3H-300Y	ishlaydigan detallar (avto)
Э-12Г4	O3H-350Y	ishlamalarning o‘qlari, vallari, temir
Э-15Г5	O3H-400Y	yo‘l kresto-vinalari)

Э-30Г2ХМ	HP-70	
----------	-------	--

*16.3-jadvalning davomi*

Э-16Г2ХМ Э-35Г6 Э-30В8Х3 Э-35Х12В3СФ Э-90Х4М4ВФ	O3SH-1 TSH-4 TSSH-1 SH-16 ОЗИ-3	Issiqholatda shtamplashuchunshtamplar
Э-37Х9С2 Э-70Х3СМТ Э-24Х12 Э-20Х13 Э-35Х12Г2С2 Э-100Х12М Э-120Х12Г2СФ Э-10М9Н8К8Х2СФ	O3SH-3 ЭН-60М TSH-5 48Ж-1 НЖ-3 ЭН-Х12М SH-1 O3SH-4	Issiqholatda shtamplashuchunshtamplar
Э-65Х11Н3 Э-65Х25Г13Н3	ОМГ-Н ТШНИИН-4	110Г13 va 110Г13Л rusumli yuqori marganesli po'latlardan tayyorlangan yeyilgan detallar
Э-80В18Х4Ф Э-90В10Х5Ф2 Э-105В6Х5М3Ф3 Э- 10К15В7М5Х3СФ Э- 10К18В11М10Х3СФ	TSI-1М TSI-2У И-1 ОЗИ-4 ОЗИ-5	Temir kesuvchi asboblar va issiq holatda shtamplash uchun shtamplar
Э-95Х7Г5С Э-30Х5В2Г2СМ	12АН/ЛИВТ TK3-Н	Abraziv yeyilishga ega bo'lgan intensiv zarbiy yuklanishlarda ishlaydigan detallar
Э-80Х4С Э-320Х23С2ГТР Э-320Х25С2ГР Э-350Х26Г2Р2СТ	13КН/ЛИВТ T-620 T-590 X-5	Asosan abraziv yeyiladigan detallar
Э-300Х28Н4С4 Э-225Х10Г10С Э-110Х14В13Ф2 Э-175Б8Х6СТ	TSC-1 TSH-11 BCH-6 TSH-16	Asosan abraziv yeyiladigan va zarbiy yuklanishlarda ishlaydigan detallar
Э-08Х17Н8С6Г Э- 09Х16Н9С5Г2М2ФТ Э-09Х31Н8АМ2 Э- 13Х16Н8М5С5Г4Б	TSH-6М, TSH-6Л ВПИ-1 УОНИ- 13/Н1-БК TSH-12М, TSH-12Л	Neft apparaturalari, quvur uzatmalar va qozonlar uchun armaturalar yuza- sining zichlagichlari

**Donador va quyma qattiq qotishmalar.** Erimaydigan elektrod bilan yoyli dastakli eritib qoplashda detallarda yeyilishga chidamli qatlamlar hosil qilish uchun C-2M, ФБХ6-2, БХ ва КБХ ГОСТ 11546-75 bo'yicha rusumli kukunlar mexanik aralashmali foydalilanildi.

*Stalinit* (C-2M) – sanoatda keng ishlatiladigan arzon qotishma bo'lib, tuyilgan ferroxrom, ferromarganes, cho'yan qirindi va neft koxsi aralashmasidan iboratdir. Stalinitning kimyoviy tarkibi quyidagicha: xrom 24–26%, marganes 6–8,5%, uglerod 7–10%, kremniy 3% gacha, oltingugurt 0,5% gacha, fosfor 0,5% gacha, qolganlari temir. Stalinit bilan eritib qoplashda qattiqlik kamida 54 HRC tashkil etadi.

*Borid aralashmada* (БХ) 50% xrom boridlari va 50% temir kukuni bo'ladi. Qoplangan mo'rt qatlam hosil qiladi. Abraziv yeyilish sharoitlarida ishlaydigan detallarni qoplashda qo'llaniladi. Borid aralshmasi bilan eritib qoplashda qattiqlik kamida 63 HRC tashkil etadi.

Karbid-boridli aralashma (КБХ) 5% xrom karbidi, 5% xrom boridi, 30% temir kukuni, 60% ferroxromni tashkil etadi. Karbid-borid aralshmasi bilan eritib qoplashda qattiqlik kamida 60 HRC ni tashkil etadi.

*Qattiq quyma qotishmalarning* erish harorati 1260–1300°C bo'lib, xrom karbidlarining kobaltdagi (stellitlar) yoki nikel va temirdagi (sormaytlar) qattiq eritmasidan iboratdir. Temir asosdagi qotishmalar nikel va kobalt asosidagi qotishmalarga qaraganda ancha mo'rt, lekin arzon buladi. Sormaytda 25–31% xrom, 3– 5% nikel, 2,5–3% uglerod, 2,8–3,5% kremniy, 1,5% gacha marganes, qolgani temir.

Stellitlar sormaytlarga nisbatan ancha qovushqoq, korroziyaga chidamli, erib qoplanish xossalari esa yaxshi bo'ladi. Quyma qotishmalar metallni qirqishda ishlatiladigan asboblar va pichoqlarni, shtamplarni, domna pechlaridagi yuklash tuzilmalarining konuslarini va shu singari boshqa detallarni qoplashda ishlatiladi.

ГОСТ 21448-75 bo'yicha ПГ-С27, ПГ-С1, ПГ-УС25, ПГФБХ6-2, ПГ-АH1 temir assosli va ПГ-СР2, ПГ-СР3, ПГСР-4 nikel assosli yeyilishga chidamli kukunlar ishlab chiqiladi.

**Eritib qoplash uchun quyilgan chiviqlar.** Eritib qoplashda yeyilishga chidamli qatlam hosil qilish uchun ГОСТ 21449-75 bo'yicha quyilgan chiviqlar ishlatiladi. Ular kimyoviy tarkibiga nisbatan 5 ta rusumga bo'linadi: Пр-С27, Пр-С1, Пр-С2, Пр-В3К ва Пр-В3К-Р. Hamda diametrlariga nisbatan 4 mm diametrali chiviqlar uzunligi 300 va 350 mm, 5 hamda 6 mm diametrali chiviqlar uzunligi 350 va 400 mm; 8 mm diametrali chiviqlar uzunligi 450 va 500 mm ishlab chiqariladi.

## Nazorat savollari

1. Eritib qoplash nima?
2. Eritib qoplashdan qanday maqsadlarda foydalilanildi?
3. Eritib qoplashning qanday usullari sizga ma'lum?
4. Eritib qoplash unumдорлиgi deganda nima tushuniladi?
5. Eritib qoplash uchun qanday materiallar ishlatiladi?

## 27- MA'RUZA. CHANGLATISH

### Reja

- 27.1. Gazotermik changlatish usullarining tasnifi
- 27.2. Plazmali changlatishning mohiyati.
- 27.3. Plazmali changlatish uchun jihozlar
- 27.4. Plazmali changlatishning texnologiyasi


### 27.1. Gazotermik changlatish usullarining tasnifi

Gazotermik changlatish deb shunday texnologik jarayongaaytiladiki bunda material suyuq holatgacha qizdirililadi va uni gaz alanga sharrasi yordamida buyum yuzasiga yotqiziladi. Ya’ni suyultirilgan metall zarrachalari ishlov berilayotgan buyum yuzasiga changlatiladi (qoplanadi).

Qoplama yotqizilayotganda yuza deyarli qizib ketmaydi, shuning uchun changlatilgan detallarda deformatsiya hosil bo‘lish xavfi tug‘ilmaydi.


Gazotermik changlatishni ikki guruxgaajratish mumkin (17.1-rasm.):

- 1) gaz alangasi yordamida;
- 2) gaz-elektrik.



**17.1-rasm.** Gazotermik changlatish usullarining klassifikatsiyasi.

1) Gazotermik changlatishning mohiyati shundan iboratki, changlatiladigan material gaz alangasi yordamida eritiladi va siqilgan havo ta’sirida changlatiladi (17.2-rasm). Changlatiladigan material sifatida kukun, sim va kukunli sim yoki o‘zaklar qo‘llaniladi.



**27.2-rasm.** Gaz alangasida changlatish sxemasi:


- 1 – yonuvchi aralashma; 2 – changlatuvchi sim; 3 – siqilgan havo;
- 4 – changlatuvchi kukun; 5 – metallizasion fakel.

Yonuvchi gaz sifatida atsetilen, propan-butan, tabiiy gaz va boshqalar qo'llaniladi. Gazotermik changlatishning kamchiligi - yotqizilgan qoplamaning sifati past bo'ladi, chunki zarrachalarni uchish tezligi past va qoplamada oksidlar hosil bo'ladi.

2) Elektr metallizasion changlatishning mohiyati shundan iboratki, bu usulda changlatiladigan sim elektr yoy bilan eritiladi va erigan metall siqilgan havo yordamida changlatiladi. Siqilgan havo bilan changlatish ko'pgina komponentlarni yonib ketishiga va komponentlarni oksidlanib ketishiga sabab bo'ladi.

Elektr metallizatorlarni boshqarish alangali eritishga nisbatan ancha soddadir. Elektr yoyli changlatishda birlamchi changlatish materiali sifatida sim qo'llaniladi.

Yuqori chastotali metalizatorlar, elektr yoyli metalizatorlar singari simli apparatlar turiga kiradi. Simni qizdirish yuqori chastotali toklarning induksiyasi yordamida bajariladi. Ta'minlash manbai sifatida YuChT lampali generatorlar (70–500kHz) qo'llaniladi. Yuqori chastotali metallizatorlarning ishlab chiqarish unumдорligi elektr metallizatsion generatorlarga nisbatan 1,5–2,5 baravar yuqori bo'ladi. Ushbu usulning kamchiligi - qurilmalarning FIK (15–20%) past va changlatilgan yuza qatlaming asosiy yuzaga ilashish mustahkamligi nisbatan past.



**27.3-rasm. Elektr metallizasion changlatishning sxemasi:**

a – elektr yoyli, b – yuqori chastotali: 1,3 – changlatiladigan sim; 2 – siqilgan havo; 4 – induktor; 5 – metallizasion fakel.


## 27.2. Plazmali changlatishning mohiyati

Past haroratli plazmalarni qo'llab qoplamar yotqizishning eng unumдорли usullaridan biri bu plazmali changlatishgdir.

«Plazma» so'zining fizik tushunchasi gaz simon holatni belgilash uchun Langmer tomonidan 1923-yilda kiritilgan, bunda atomlarning ionizatsiyalanishi oqibatida gaz, tok o'tkazuvchan bo'ladi. Plazmali changlatishda sharra fakelida elektronlar, ionlar va neytral zarrachlar uchraydi. Plazmani ionizasiyalash uchun elektr yoy qo'llaniladi, shu bilan birga haroratni oshirish maqsadida yoy siqiladi natijada harorat keskin ko'tarilib ketadi. Argonli plazmaning harorati 20000–23000°C gacha ko'tariladi. Plazmali changlatish mashinasozlik sohasining quyidagi hollarida keng qo'llaniladi: intensiv yeyilishni oldini olish uchun mashina detallarini mustahkam qotishmalar bilan ta'min etish maqsadida, yeyiladigan qismlarni ish vaqtini oshirish maqsadida, detallarni

korroziyadan, eroziyadan, kavitatsiyadan, abraziv yeyilishdan, issiq zarblardan va boshqalardan saqlash maqsadida keng qo'llaniladi. Changlatilgan qatlamning qalinligi 0,03 mm dan bir necha millimetrlarga yetadi.

Changlatilgan yuzalar quyidagi avzalliklarga ega bo'ladi: zichligi yuqori; asosiy material bilan ilashishi mustahkam; changlatilgan yuza silliqligi sababli yuzaga mexanik ishlov berish shartmas; changlatiladigan material sarfi boshqa usullarga nisbatan kam.



**27.4-rasm. Plazmali changlatish sxemasi:**

a – soplo orqali changlatiladigan materialni plazmali sharraga uzatish; b – soplo hududidan tashqari changlatiladigan materialni plazmali sharraga uzatish; d – bilvosita yogni sim bilan plazmali metallizasiyalash; 1 – gaz uzatilishi; 2 – suv uzatilishi; 3 – elektrod simi; 4 – kukun uzatilishi; 5 – metallizatsion fakel.

Simmetallizasiyasibevosita yokibilvosita yoybilanbajariladi.

Plazma hosil qiluvchi gaz sifatida argon, azot, ammiak, geliy va argon bilan vodorodning aralashmasi qo'llaniladi. Volframli elektrod bilan payvandlashda eng yaxshi himoya gazi inert gaz – argon hisoblanadi.

Changlatiladigan materiallar kukun ko'rinishida yoki sim ko'rinishida ishlab chiqiladi. Kukunsimon materiallar bilan plazmali changlatish (simli materiallarga nisbatan) avzalligi quyidagicha: qopmlama sturkturasi ancha mayda; turli xil materiallardan iborat bo'lgan kombinatsiyalashgan qoplama hosil qilish imkonii mavjud; mahsulot tan narxi arzon.

Plazmali changlatish uchun eng yaxshi natijani donachalar o'lchami 5–100 mkm bo'lgan sferik shakldagi kukunlar beradi.

### 27.3. Plazmali changlatish uchun jihozlar

Plazma sharrasi bilan changlatish uchun mo'ljallangan qurilmalar mavjud. Qurilma komplektiga quyidagi qismlar qiradi: o'zgarmas tokda ishlaydigan ta'minlash manbayi (komplektida to'g'rilagich va o'zgartirgich bo'ladi), boshqaruvi shkafi, plazmatron, changlatilayotgan hududga kukunni uzatish va porsiyalash uchun ta'minlagich va biriktiruvchi kabel.

Qurilma plazmatronga sim yoki kukunni mexanizatsiyalashgan usulda uzatishni ta'minlaydi hamda murrakab manevrilarni bajara oladi.

Keskin uzatuvchi tashqi xarakteristikali ta'minlash manbalarida o'zgarmas tokda changlatiladi.

Qurilma odatda kukun bilan dastakli changlatish uchun plazmatron bilan va simni metalizatsiyalash uchun plazmatroni bilan komplektlashadi.

Changlatish uchun plazmali yoy qo'llaniladi, plazmali yoy sovituvchi plazmali yoy va mis soplo (anod) orasida ta'sirlanadi.

Plazmatronning asosiy detallari bu elekrodlardir – katod va anod. Changlatish inert muhitda bajarilganda katod material sifatida BT10, BT15, BT 30, BT 50 rusumli torirlangan volfram va ВЛ rusumli lantanirlangan volfram chiviqlar qo'llaniladi. Agar kislorodli yoki azot tarkibli plazma hosil qiluvchi muhit qo'llanilsa erimaydigan elektrod material sifatida kompozit qotishmalar ishlatish tavsiya etiladi. Plazmatronlar quyidagicha klassifika-tsiyalanadi:

- 1) yoy turg'unligini ta'minlash usuli bo'yicha (gazli, suvli va magnitli);
- 2) gaz uzatish usuli bo'yicha (ustun bo'ylab yoki unga perpendikulyar holatda).

Yoyning eng siqilgan holati yoyni aylanma holatda qisilganda hosil bo'ladi. Yoyning anod nuqtasi laminar plazmali sharrani ta'minlaydi va plazma yoy ustunini elektr yurituvchi soploda qoniqarli ravishda shakllantiradi.

3) yoy ustuniga uzatilayotgan material turi bo'yicha (kukunsimon, simli va o'zakli material). Kukun simon materiallar bilan changlatadigan plazmatronlar amaliyotda eng ko'p tarqalgan hisoblanadi, chunki ular qoplamaning kimyoviy tarkibini uning fizik-mexanik xususiyatlarini keng miqyosda o'zgartira olish imkoniyatiga ega.

Plazma sharrasiga changlatiladigan material uchta usul bilan uzatiladi (17.4-rasm): yoyning anod nuqtasigacha, yoyning anod nuqtasi sohasida, yoy anod nuqtasidan keyin (plazmali sharraga). Har bir usulda changlatiladigan material radial, tangensial, va bo'ylama yo'nalishda uzatiladi. Xozirgi kunda kukunni yoyga uzatishning eng keng tarqalgan usuli bu yoyning anod nuqtasidan keyin ya'ni plazma sharrasiga uzatilishidir.

#### **27.4. Plazmali changlatishning texnologiyasi**

Plazmali changlatish texnologiyasi quyidagi operatsiyalar ketma-ketligini o'z ichiga oladi: kukunlarni tayyorlash, changlatiladigan yuzalarni tayyorlash, qoplamaga ishlov berish va sifat nazorati.

1) Kukunlarni tayyorlash. Yuzalarga changlatish usuli bilan qoplamlar yotqizish uchun 5–100 mkm o'lchamli kukun donachalari ishlatiladi, alohida hollarda esa 160 mkm gacha bo'lgan donachalar ishlatiladi. Mayda donachalar yuqori gigroskopik xususiyatga egadir. Ularning sochiluvchanligini oshirish uchun changlatishdan oldin ularni qurituvchi shkaflarda (kukun tarkibiga nisbatan) ikki soat davomida 70–200°C haroratda quritiladi.

Quritib va sovutilgandan so‘ng mexanik yoki vibratsion elakdan o‘tkaziladi. Kukunni quritish changlatishdan 2–3 soat oldin bajarilishi kerak.

2) Changlatishga detallarni tayyorlash. Changlatiladigan materialni yuzaga yaxshi yopishishini ta’minlash uchun changlatilayotgan detalga yaxshilab ishlov berish kerak, ishlov berish usullari quyidagicha kechadi: yog‘sizlantiriladi, ya’ni turli moylardan tozalanadi, kislota bilan yuviladi, qum sharrasi bilan ishlov beriladi, qizdiriladi, mexanik ishlov beriladi.

Yog‘sizlantirish benzin bilan bajariladi, ya’ni metall yuzasidagi moylarni va turli xil kirlar tozalanadi.

Qum sharrasi bilan changatiladigan metall yuzasiga ishlov berish bilan yuzanining g‘adir-budurligi oshadi oqibatda chang-latiladigan material yuza bilan yaxshi ilashadi.

Termik itshlov berish bilan ishlanayotgan yuza faollashtiriladi. Masalan havoda changlatish ko‘pgina metallar uchun qizdirish harorati 100–200°C chegaralangan.

Yuzani mexanik ishlov berish bilan changlatiladigan yuzani g‘adir-budirligini oshiradi mexanik ishlov berish kesish yoki shlifovkalash usuli bilan bajariladi.

3) Qoplamlarni yotqizish. Yuzalarni changlatish changlatiladigan material va qoplamani qanday sharoitda ishlashiga nisbatan quyidagi rejim parametrlari qiradi: tok kuchi (A), kuchlanish (V), ishchi gaz sarfi ( $m^3/s$ ), kukun zarrachalarining o‘lchami (mkm), changlatish masofasi (mm).

Changlatish tezligi shunday hisoblanadiki plazmatron yuzadan bir marta yurishi bilan changlangan yuza qalinligini 15–100 mkm tashkil etishi kerak.

Changlatilgan qoplamani bir tekis yotishi uchun detal qirralardan sharra har yotqizilgan chiziqni to‘rtidan bir qismini egallab o‘tishi kerak. Har bir yotqizilayotgan qoplama bir-birini ustidan qisman o‘tishi kerak.

Flyus simon qoplamlarni yotqizish holatlarida detal yuzasi bilan birikish mustahkamligini ta’minlash va pufakchalar hosil bo‘lishini oldini olish maqsadida qoplama eritib yotqiziladi. Changlatilgan qoplamani eritish uchun gaz gorelkasi, plazmatron, o‘chog‘, yuqori chastotali toklar va tuzli eritmalar qo‘llanilishi mumkin.

4) Changlatilgan qoplamaning sifat nazorati. Sifat nazorati usulini tanlash qoplamaning xususiyati uning turi va detal qanday kuchlanishlarga ishlashiga nisbatan tanlanadi:

a) kartslash usuli kumush singari yumshoq qoplamlarni nazorat qilish uchun qo‘llaniladi. Qoplama yuzasini kartslash 15–20 sekund davomida bajariladi. Kartslash uchun sim diametri 0,15–0,25 mm latun yoki po‘lat cho‘tkalar qo‘llaniladi. Cho‘tkalarni aylanish tezligi 1800–2500 aylanish/daq.Kartslangandan so‘ng nazorat qilinayotgan yuzada g‘ovaklar pufakchalar qavvatchalar bo‘lmasligi kerak.

b) panjara simon katakchalar chizish usuli bilan nazorat qilishda bir necha chiziqlar bir biriga nisbatan perpendikular ravishda chiziladi chiziq

chuquri asosiy metall asos yuzasi chuqurligida botiriladi, katakchalar orasi 2–3 mm bo‘lishi kerak. Qoplangan yuzada hech qanday ajralishlar pufakchalar bo‘lmasligi kerak.

d) qizdirish usuli. Changlatilgan detallar bir soat davomida qoplangan material turiga nisbatan 300°C haroratgacha qizdiriladi, so‘ng ochiq havoda sovutiladi. Termik kengayish koeffitsienti turli xil bo‘lgan holatda va qoplama ilashishi past bo‘lgan holatlarda qoplangan yuza pufakchalanadi va ajralib tushadi.

### **Nazoratsavollari**

1. Gaz-termik changlatish nima?
2. Changlatiladigan material sifatida nima qo‘llaniladi?
3. Gaz alangasida changlatishning kamchiligi nimalardan iborat?
4. Plazmali changlatishning avzalliklarini aytib bering.
5. Plazmatronlar qaysi jihatlariga ko‘ra klassifikatsiyalanadi?
6. Plazmali changlatish texnologiyasi qanday bosqichlardan iborat?

## **28-MA’RUZA. KAVSHARLASH Reja**

- 28.1. Kavsharlashning nazariy asoslari
- 28.2. Kavsharlash jarayonlarining tasnifi

### **28.1. Kavsharlashning nazariy asoslari**

Kavsharlash deb shunday texnologik jarayonga aytildiği, bu jarayonda asosiy mettall erimaydi, kavshar eritilib biriktiliayotgan ikkita metall orasi to‘ldiriladi va kavshar chok hosil bo‘ladi.

Ta’rifdan shuni anglash mumkinki, kavshar birikma hosil qilish jarayoni qizdirish bilan bog‘liqdir. Kavshar birikmani hosil qilish uchun qizdirishdan tashqari yana ikkita asosiy shart bajarilishi kerak:

- 1) kavsharlash jarayonida metall yuzasidan oksid qoplamani tozalash kerak.
- 2) biriktirilayotgan tirkish oralig‘iga erigan biriktiruvchi metall uzatish kerak.

Kavsharlash jarayoni payvandlash jarayoni bilan ko‘pgina o‘xshashlik tomonlari bor, ya’ni suyuqlantirib payvandlash bilan o‘xshash.

Yuzakio‘xshashliklardantashqariquyidagiprincipialfarqlarimavjud.

1) Agar suyuqlantirib payvandlashda payvandlanayotgan metall va eritib qo‘shilayotgan metall payvandlash vannasida suyuq holatda bo‘lsa, kavsharlashda esa payvandlanayotgan buyum eritmeydi. Biriktirilayotgan qirralarni eritmasdan payvand birikma hosil qilish kavsharlash jarayonining asosiy avzallik tomoni hisoblanadi.


2) Kavsharlashda chok shakllanishi, ya’ni ikkita detal orasidagi tirkish erigan kavshar qo‘sishimcha material tomchilari yordamida to‘ldirilsa suyuqlantirib payvandlashda bunday jarayon kuzatilmaydi.

3) Kavsharlash suyuqlantirib payvandlashga nisbatan payvandlanayotgan metallning erish haroratidan ancha past bo‘lgan turli xil haroratlarda, ya’ni kavshar erish haroratida bajarilishi mumkin.

Ushbu farqlar suyuqlantirib payvandlashga nisbatan kavshar chokni hosil qilish texnologik jarayoni tubdan farq qiladi.

## 28.2. Kavsharlash jarayonlarining tasnifi

Kavsharlash quyidagicha klassifikatsiyalanadi: birinchidan, fizik-kimyoviy jarayonlarga nisbatan, ikkinchidan kavsharlashning turli hil texnologiyalari bo‘yicha.




### 28.1-rasm.Kavsharlash usullarining klassifikatsiyasi.

Kavsharlash jarayonlarning fizik-kimyoviy xususiyatlar bo‘yicha quyidagi asosiy usullariga va turlariga ajratiladi:

- 1) kapillarli kavsharlash;
- 2) diffuzion kavsharlash;
- 3) kontaktli-reaksion kavsharlash;
- 4) reaksiyon-flyusli kavsharlash;
- 5) kavsharlash-payvandlash.

1) Kapilarli kavsharlash deb kavshar birikma hosil qilishning shunday usuliga aytildiki, bunda birikma kapillar kuchlar ta’sirida hosil bo‘ladi. Lekin kapilarli jarayon kavsharlashning barcha usullarida uchraydi, farqi kapillar kuch ta’siri ostida jarayon bajariladi.




### 28.2-rasm.Kapillar usulda kavsharlash sxemasi:

a – kavsharlashdan oldin; b – kavsharlashdan keyin.


2) Diffuzion kavsharlash deb shunday texnologik jarayonga aytildiki, bunda boshqa usullarga nisbatan yuqori haroratda va shu haroratni ushlab turish davomiyligi ko‘proq bo‘ladi. Bundan maqsad kavsharlanayotgan material va kavshar komponentlarining o‘zaro diffuziyalanishi uchun bajariladi.

Diffuzion kavsharlashda kavshar vaasosi metallning kesim yuzasiga nisbatan, birinchidan kavshar vaasosi metallni eritib chokda qattiq qotishmani hosil qilib bajarish mumkin, buni atom-diffuzion kavsharlash deb ham ataydilar; ikkinchidan diffuzion kavsharlash jarayonida chokda qiyin eriydigan mo‘rt intermetallidlar hosil bo‘lishi mumkin, bu holat reaksiyon diffuziya jarayonida hosil bo‘lishi mumkin, bu o‘z navbatida chok metalini erish harorati yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi, oqibatda issiq bardosh kavshar birikma hosil bo‘lishiga olib keladi, bu reaksiyon-diffuzion kavsharlash deyiladi.

Masalan, erish harorati  $855^{\circ}\text{C}$  bo‘lgan Pt-B tizimli kavshar bilan W ni kavsharlashda quyidagi reaksiya kechadi:



3) Kontaktli reaksiyon kavsharlash deb, biriktirilayotgan metall va kavshar orasida efftektik tarkibli yoki likvidusning minimumida qattiq qorishma bilan yangi oson eruvchi qotishma hosil qilib faol reaksiya kechish jarayonigaaytiladi. Hosil bo‘lgan oson eruvchi qotishma bilan buyumlar orasida tirqish to‘ldiriladi, va kristalizatsiyalanish jarayonida kavshar birikma hosil qiladi. Biriktirilayotgan metall bilan kavsharni birgalikda ta’sirlanishi misni kavsharlashda qo’llaniladi. Mis buyumlar orasiga kumush kavshar o‘rnatiladi va kavsharlanadi.




### 28.3-rasm. Kontaktli reaksiyon kavsharlash sxemasi:

a – kavsharlashdan oldin; b – kavsharlashadan so‘ng.


4) Reaksiyon-flyusli kavsharlash deb, asosiy metall va flyus orasidan kavsharni itarib chiqarish reaksiyasi natijasida hosil bo‘lgan jarayonga aytiladi. Reaksiyon-flyusli kavsharlash ikki variantda bajarilishi mumkin: kavshar qo‘shtasdan va kavshar qo’shib.

Reaksiyon-flyusli kavsharlashda kavshar qo‘shtasdan kavsharlashni aluminning flyus bilan kavsharlashda qo‘rishimiz mumkin, bunda flyus tarkibida xlorli sink ko‘proq tashkil etadi. Kavsharlashda biriktirilayotgan aluminning detali yuzasiga flyus qalinroq sepiladi. Xlorli sink va aluminning qizdirish natijasida quyidagi jarayon kechadi:



Xloriddan tiklangan sink bu holatda kavshar vazifasini bajaradi. U aluminning yuziga cho‘kadi, tirqish oralariga cho‘kadi va kavsharlanayotgan detallarni biriktiradi.

5) Kavsharlash-payvandlash deb suyuqlantirib payvandlash usullariga mos holda bajarishgaaytiladi, lekin kavshar bilan bajariladi, qo‘shtimcha material sifatida kavshar ishlataladi. Kavsharlash-payvandlash detallarning biriktirilayotgan qirralarini eritib va eritmasdan bajariladi. Faqat biriktirilayotgan detalning biri ya’ni oson eriydigan metali eritiladi.



### 28.4-rasm. Kavsharlash-payvandlashda chok hosil bo‘lish sxemasi:

a – detal qirralarini eritmasdan; b – biriktirilayotgan detalning bittasini eritib.


Yuqorida ko'rib chiqilgan kavsharlash usullari turli xil qizdirish manbayilarini qo'llab ishlataladi:

1) O'chog'larda kavsharlash biriktirilayotgan detallarni bir tekis qizdiradi, katta gabarit o'lchamli va murakkab kon-figuratsiyali bo'lsa ham sezilarli darajada deformatsiyalanmaydi.

Kavsharlash uchun elektr qarshilik bilan, induksion qizdirish va gaz alangali qizdiriladigan o'chog'lar qo'llaniladi. Yirik gabaritli detallarni kavsharlash uchun asosi harakatlanmaydigan kameralarda bajariladi. Nisbatan kichik bo'lgan detallarni seriyalab kavsharlash uchun setka simon konveyrlar yoki rolikli asoslar qo'llaniladi. Bu uchog'larda detallar oksidlanmasligi va kavshar birikma sifatli bo'lishi uchun maxsus gazli atmosfera shakllantiriladi.

O'chog'larda kavsharlash, kavsharlash ishlarini mexani-zatsiyalashning keng imkoniyatlarini ochadi va kavshar birikma sifatini ta'minlaydi.


2) Induksion kavsharlashda detallarni qizdirish uchun yuqori chastotali toklar va sanoat chastotali toklar qo'llaniladi. Bu holda kerak bo'ladigan issiqlik, tok hisobiga olinadi, bu esa o'z navbatida kavsharlanayotgan detalni induktivlash natijasida hosil bo'ladi. Induksion qizdirish bilan kavsharlashning ikki usuli mavjud: stansionar va detal yoki induktorni nisbatan siljitim yo'li bilan bajariladi.



**28.5-rasm.Induksion kavsharlashning prinsipial sxemasi:**

1 – induktor; 2 – kavsharlanayotgan detallar; 3 – kavshar; 4 – taglik.

3) Qarshilik bilan kavsharlash kavsharlanayotgan detallardan o'tayotgan elektr toki va tok uzatuvchi elementlar yordamida bajariladi. Shu bilan bir qatorda biriktirilayotgan detallar elektr zanjirning bir qismi hisoblanadi. Qarshilik bilan qizdirish payvandlash mashinasiga o'xshagan kontaktli mashinalarda bajariladi yoki elektrolitlarda amalga oshiriladi



**28.6-rasm. Qarshilik bilan kavsharlashning prinsipial sxemasi:**

1 – kavsharlanayotgan detallar; 2 – elektrolit; 3 – vodorod buluti; 4 – ta'minlash manbayi; 5 – anod.


4) Kavsharlanayotgan detalni cho'ktirib kavsharlashda kavsharlanayotgan detal tuzli eritmalar vannasiga yoki kavsharlar vannasiga cho'ktiriladi. Tuzli vannalarda kavsharlashda detalni qizdirish bevosita yoki bilvosita bajariladi.

Tuzli vannalarda kavsharlashda detallarni bevosita qizdirishda, detallar tuzli eritmaga cho'ktiriladi, bu vanna nafaqat issiqlik manbayi bo'lib, balki flyus vazifasini bajaradi. Bu usulning avzallik tomoni shundaki, uning qizdirish tezligi juda tez bajariladi.

Tuzli vannalarda kavsharlashda detallarni bilvosita qizdirishda detal maxsus gazli muhitga yoki vakuum konteyneriga joylashtirilib tuzli vannaga cho'ktiriladi. Bu usulda kavsharlashda detalni qizdirish sekinroq bo'ladi, lekin kavsharlangan detal yuzasi ancha sifatli bo'ladi.


Eritilgan kavsharlarda kavsharlashga tayyorlangan detallarni qizdirish, detallarni qisman yoki to'liq kavshar vannasiga botiriladi. Bu usul bilan kavsharlash avtomobil va aviatsion radiatorlarni, qattiq qotishmali asboblarni ishlab chiqarishda hamda radio- va elektr sanoatida keng qo'llaniladi. Eritilgan kavsharlarda kavsharlash ikki usul bilan bajariladi: eritilgan kavsharga cho'ktirib va kavshar to'lqini yordamida bajariladi.

Kavshar to'lqini bilan kavsharlash, erigan kavsharni nasos yordamida uzatish bilan bajariladi. Erigan kavshar yuzasida nasos yordamida to'lqin hosil qiladi. Kavsharlanayotgan detal gorizontal yo'nalishda harakatlantiriladi. To'lqinga ilashish paytida detal kavsharlanadi. Bunday usul bilan kavsharlash radioelektron sanoatda bosma radiomontajlarni ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.



**28.7-rasm.** Eritilgan kavsharga detalni cho'ktirib kavsharlash sxemasi:

1 – kavshar; 2 – kavsharlanayotgan detallar.



**28.8-rasm.** Eritilgan kavshar to'lqini bilan kavsharlashning prinsipial sxemasi:

1 – elektr qizdirgich; 2 – plata; 3 – to'lqin; 4 – soplo; 5 – kavshar.

5) Radiatsionqizdirishkvantgeneratori (lazer)

dantalarayotganelektronuryoki quvvatliyorumug'liksharrisikvarslampalarin ingurlanishi hisobiga qiziydi. Radiatsionqizdirish, kavsharlashvaqtini ancha qisqartiradi, kavsharlashning vaqtiniva haroratinirostlashuchun

aniqelektron apparaturasiqo'llaniladi. Radiatsionqizdirishda kavsharanayotgandetalga nurlienergiyaurilganda issiqiliqenergiyasiga aylanadi.

6) Gorelkalar bilan kavsharlashda, kavsharanadigan detallarnimahalliyqizdirishva kavsharnisuyultirishgazgorelkasidanchiqayotgan alanga issiqligita'sirida bajariladi. Plazmali gorelkalarda esa plazma sharrasi va bilvosita ta'sir etayotgan elektr yoyi hisobiga qizdiriladi va eritiladi. Bu issiqlik manbayilari tabiatiga ko'ra turlidir, lekin kavsharlashda qo'llanilishi bir xil.

Plazmali gorelkalar qizdirishning ancha yuqori haroratlarini beradi, shuning uchun qiyin eriydigan metallarni ya'ni W, Ta, Mo, Nb larni kavsharlash uchun samaralidir.

7) Payalniklar bilan kavsharlash, ularning qurilmasi sodda bo'lganligi va keng qamrovda qo'llanilganligi sababli texnikaning turli sohalarida juda keng qo'llaniladi. Bu usulda kavsharlashda asosiy metallni qizdirish va kavsharni eritish payalnik metalining massasida qizigan issiqliq hisobiga bajariladi. Payalnik, kavsharlashdan oldin yoki kavsharlash vaqtida qizdirib olinadi.

Payalniklarni 4 guruxga ajratish mumkin:

- 1) davriy qizdirish bilan
- 2) elektr qizdirish bilan
- 3) ultra tovush yordamida
- 4) abraziv yordamida.

Ultra tovushli payalniklarda ultra tovushli chastotalar tebranishini qo'llashdan maqsad kavsharanayotgan metall yuzasidagi oksid qoplamasini eritilgan kavshar ostida parchalab tashlashi uchun qo'llaniladi. Ultra tovushli kavsharlash uchun payalniklar qizdiruvchi moslamasiz ham bo'lishi mumkin. Agar qizdiruvchi moslamasi bo'lmasa kavsharni eritish uchun boshqa alohida qizdirish manbayi qo'llaniladi. Ultra tovushli payalnik-larning asosiy avzalligi, flyussiz kavsharlash imkoniyatiga ega. Shuning uchun asosan bu usul bilan oson eruvchi kavshar bilan aluminni kavsharlash keng qo'llaniladi.

### Nazoratsavollari

1. Kavsharlashning payvandlashdan farqi nimada?
3. Kavshar birikma hosil qilish uchun qizdirishdan tashqari qanday shartlar bajariladi?
4. Kavsharlashning fizik-kimyoviy jarayonlariga asosan qanday turlarga klassifikasiyalandi?
5. Diffuzion kavsharlashning mohiyati nimada?
6. Kavsharlangan buyumlarni ishlab chiqarishda kavshar-lashning qanday usullari qo'llaniladi?

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. AbralovM.A., DunyashinN.S., AbralovM.M., ErmatovZ.D. Eritibpayvandlashtexnologiyasivajihozlari – T.: Voris, 2007
2. Abralov M.A., Dunyashin N.S., Ermatov Z.D. Gaz alangasi yordamida metellarga ishlov berish texnologiyasi va jihozlari – T.: Ilm ziyo, 2007
3. Abralov M.A., Dunyashin N.S. Kontaktli payvandlash texnologiyasi va jihozlari – T.: Turon-iqbol, 2006
4. Abralov M.A., Ermatov Z.D., Dunyashin N.S. Qo‘lda yoyli payvandlash jihozlari – T.: O‘zbekiston faylsuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012
5. Абрагов М., Дунуашин Н. Оборудование и технология газопламенной обработки металлов – Т.: Iqtisod-moliya, 2010
6. Виноградов В.С. Оборудование и технология дуговой автоматической и механизированной сварки – М.: Высшая школа, 1997
7. Герасименко А.И. Основы электрогазосварки – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004
8. Григорьев А.Г. Основы лазерной обработки материалов. М.: Машиностроение, 1989
9. Думов С.И. Технология электросварки плавлением. Л.: Машиностроение. Ленинградское отделение, 1987
10. Лупачев В.Г. Сварочные работы – М.: Высшая школа, 1998
11. Колганов Л.А. Сварочные работы – М.: «Дашков и К», 2004
12. Козулин М.Г. Технология электрошлифовки в машиностроении: Учебное пособие. Тольятти: ТолПИ, 1994
13. Маслов В.И. Сварочные работы. М.: Издательский центр «Академида», 1999
14. Николаев А.А. Электрогазосварщик – Ростов на Дону: Феникс, 2000
15. Никифоров Н.И. Справочник газосварщика и газорезчика – М.: Академида, 1997
16. Оборудование для дуговой сварки: Справочное пособие / Под ред. В.В. Смирнова. Л.: Энергоатомиздат, 1986
17. Подгаetsкий В.В., Любопets И.И. Сварочные флюсы. Киев.: Техника, 1984
18. Сварка в машиностроении: Справочник в 4-х т. М.: Машиностроение. 1978- 1979
19. Сварка и резка в промышленном строительстве. /Б.Д. Малышев, А.И. Акулов, Е.К. Алексеев и др.; Под ред. Б.Д. Малышева. М.: Стройиздат, 1989
20. Сварка и резка материалов: Учеб. пособие/ М.Д. Банов, Ю.В. Казаков, М.Г. Козулин и др.; Под ред. Ю.В. Казакова. М.: Издательский центр «Академида», 2001

21. Сварка и свариваемые материалы: В 3-х т. Т. II. Технологиуа и оборудование. Справ. изд./Под. ред. В.М. Уампольского. М.: Издательство МГТУ им. Н.Э. Баумана, 1998
22. Стеклов О.И. Основы сварочного производства. М.: Высшая школа, 1986
23. Технологиуа и оборудование сварки плавлением/ Г.Д. Никифоров, Г.В. Бобров, В.М. Никитин, В.В. Дьюашенко; Под общ. ред. Г.Д. Никифорова. М.: Mashinostroenie, 1986
24. Ermatov Z.D., Dunyashin N.S. Payvandlash asosiy uslublari - Т.: Comron press, 2016
25. СНебан В.А. Сварочные работы. Ростов на Дону: Феникс, 2004
26. СНернышев Г.Г. Сварочное дело: Сварка и резка металлов – М.: Академиуа, 2004 – 496с

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH  
INSTITUTI  
Mashinasozlik fakulteti**

**Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrasи**

**PAYVANDLASHNING ASOSIY USLUBLARI**  
fanidan  
amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun

# **Uslubiy ko'rsatma**



**Namangan-2024**

Mashinasozlikda payvandlash va ta'mirlashning asosiy uslublari fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma 5320300-Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan.

**Muallif:**

PhD. M. Mansurov

Taqrizchi:

dots., PhD. A. Qidirov

Uslubiy ko'rsatma Texnologik mashinalar va jixozlar kafedrasining 2024\_\_ yil №\_\_sonli yig'ilishida muhokama qilingan va institut ilmiy – metodik kengashiga ko'rib chiqish uchun tavsiya qilingan.


Institutilmiy – metodikkengashining 2024\_\_ yil \_\_dagi №\_\_ sonliyi g'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanish uchun tavsiya qilingan.

## 1-Amaliy mashg‘ulot

### Mavzu: Transformatorlarni ishlash printsipi va konstruktsiyasini o‘rganish

**Ishning maqsadi:** Transformatorlarni ishlash printsipi va konstruktsiyasini o‘rganish.

**Nayvandlash transformatori** – o‘zgaruvchan tokning sanoat tarmoqlari kuchlanishi 220–380 V ni past kuchlanishiga, yaoni GOST bo‘yicha payvandlash jihozlari kuchlanishiga va lozim bo‘lgan payvandlash tokini taominlovchi elektromagnit apparatdir. Payvandlash transformatorining, turg‘un payvandlash jarayoni uchun lozim bo‘lgan tez pasayib borishi uchun transformatorning maxsus konstruktsiyasi, yaoni sochilma magnit oqimlari kattalashtirilgan transformatori ishlab chiqarilgan. Payvandlash transformatorining chulg‘amlari suriladigan konstruktsiyasi eng ko‘p tarqalgan. Bunday transformator (1.1-rasm) E320, E330 rusumli elekrotexnik po‘lat plastinkalardan yig‘ilgan berk magnit o‘tkazgichida yig‘iladi. Ketma-ket ulangan g‘altaklar (2) dan tuzilgan birlamchi chulg‘ami tarmoq kuchlanishiga ulanadi, chulg‘am magnit o‘tkazich (1) da ko‘zg‘almas qilib mahkamlanadi. Ikkilamchi cho‘lg‘am ham ikkita g‘altak (3) dan tayyorlangan bo‘lib, dasta (4) aylantirilganda magnit o‘tkazgichning o‘zagi bo‘ylab erkin surilishi mumkin.



**1.1-rasm. Suriladigan cho‘lg‘amli payvandlash transformatorining chizmasi:** 1 – berk magnit o‘tkazgich; 2 – birlamchi cho‘lg‘am g‘altagi; 3 – ikkilamchi chulg‘am g‘altagi; 4 – dastak.

Transformatorning ishlashi magnit o‘tkazgich orqali birlamchi (2) va ikkilamchi (3) chulg‘amlarning elektromagnit o‘zaro taosirlariga asoslangan. Energiya uzatishda ikkita o‘zgaruvchan magnit oqimlari qatnashadi: faqat magnitdan o‘tadigan asosiy oqim  $F_t$  va magnit o‘tkazgichdan hamda havodan o‘tadigan sochilma oqim  $F_s$ . Salt yurish rejimida birlamchi chulg‘amning g‘altagi 2 kuchlanishi  $U_1=220-380$  V li taominlovchi elektr tarmog‘iga ulanadi. Bunda berk kontur hosil bo‘ladi va undan salt yurish toki  $I_{syu}$  o‘tadi. Bu rejimda ikkilamchi chulg‘am ulangan payvandlash zanjiri (ikkilamchi kontur) ochiq bo‘ladi. Transformatorning


ikkilamchi kuchlanishi salt yurishsh kuchlanishi  $U_2=U_{s,yu}$  ga teng. Uning qiymatini yoyni ishonchli hosil bo‘lishi va xavfsizlik texnikasi talablari shartlari asosida transformatorni hisoblashda tanlaydi  $U_{s,yu} \leq 65$  V.

Yuklama rejimida, payvandlovchi yoy yonganda ikkilamchi kontur ham berk bo‘ladi. Undan yoy toki (payvandlash toki) o‘tadi. Bu tok (2) va (3) g‘altaklar birlamchi va ikkilamchi chulg‘amlar orasidagi masofani o‘zgartirib rostlanadi. Agar (2) va (3) g‘altaklar orasidagi masofa  $Ye_{max}$  maksimal bo‘lsa,  $F_s$  sochilma magnit oqimi eng katta bo‘ladi, asosiy magnit oqimi  $F_t$  esa, demak payvandlash toki ham minimal bo‘ladi. Agar 2 g‘altak 3 g‘altakka yaqinlashsa,  $F_s$  sochilma magnit oqimi kamayadi,  $F_t$  oqimi va payvandlash toki esa kattalashadi.

Suriladigan chulg‘amli transformatorlar uchun payvandlash tokining rostlash karraligi  $K_r \leq 5$ . Payvandchi payvandlash uchun lozim bo‘lgan tok qiymatini payvandlash transformatorining dastasi (4) aylantirib va tok qiymatini ko‘rsatkichiga qarab o‘rnatadi, ko‘rsatkich transformatorning jildida o‘rnataladi.

Qisqa tutashish rejimida payvandlash zanjiri elektrod bilan buyum orqali berk bo‘ladi. Qisqa tutashish toki payvandlash toki (yoy toki) dan, odatda, 1,1–1,2 marta katta bo‘ladi. Bu shart yoy bilan dastakli payvandlashda dastlabki paytda yoy oson yonishi uchun turli konstruksiyadagi payvandlash transformatorlari uchun albatta bajariladi.

Suriladigan chulg‘amli transformatorlarning bir nechta turlari seriyali ishlab chiqariladi (1.2-rasm).



**1.2-rasm. Yoy bilan dastakli payvandlash uchun chulg‘amlari suriladigan transformator:** 1 – birlamchi chulg‘am; 2 – ikkilamchi chulg‘am; 3 – vintning harakatdagi gaykasi; 4 – vertikal vint tasmali rezbasi bilan; 5 – korpus qopqog‘i; 6 – rim bolt; 7 – tokni rostlash dastagi; 8 – berk magnit o‘tkazgich (o‘zak); 9 – dastak; 10 – payvandlash zanjiri kabellarini ulash uchun zajim; 11 – korpus; 12 – sovitish uchun jalyuzilar

## 2-Amaliy mashg‘ulot


## Mavzu: Payvand birikmalar va payvand choklarning chizmalarda belgilanishi o'rganish

**Ishdan maqsad:** Payvand birikmalarining assosiy turlari, choklarning fazodagi holatini, payvand choklarning tasnifini, geometrik o'lchamlarini va konstruktiv elementlarini o'rganish

### Umumiy ma'lumotlar

Bir necha elementlarni o'zaro payvandlash bilan hosil qilingan birikmaga **payvand birikma** deyiladi. Amalda ko'proq **uchma-uch**, **ustma-ust**, **burchakli** va **bir-biriga tik(tavrsimon)** qilib payvandlangan birikmalar uchraydi (1.1-rasm). Biriktirilayotgan elementlar bir-birini davomini hosil qilsa bunday birikma **uchma - uch birikma**, elementlar qisman bir-birini ustiga yotsa - **ustma-ust birikma**, elementlar bir-biriga nisbatan burchak ostida biriktirilsa - **burchakli birikma** va bir element chet qismi bilan ikkinchisini yuzasiga biriktirilsa - **tavrsimon birikma** deyiladi.

Hosil qilinayotgan choklarning fazodagi holatiga ko'ra ular **quyi**, **gorizontal**, **vertikal** va **shipchoklarga** ajratiladi (1.2-rasm).




1.1-rasm. Payvand birikmalarining assosiy turlari: a-uchma-uch birikmalar; b-ustma-ust birikmalar; c -burchakli

1.2-rasm. Choklarning fazodagi holati va ularning hosil qilish sxemasi: a-quyi chok; b-gorizontal chok; v-vertikal chok; g-ship chok.

Ma'lumki, payvandlanuvchi metallarning xiliga qalinligiga qarab choklarni uzlusiz, uzlukli, bir tomonlama, ikki tomonlama, bir qavat yoki bir necha qavat hosil qilish mumkin. SHunga asoslanib texnologik jarayon qabul qilinadi.

### Payvand birikmalarining assosiy turlari

1. Uchma-uch	2. Ustma-ust	3. Tavrsimon	4. Burchakli
--------------	--------------	--------------	--------------



### Payvand choklarining tasnifi

#### 1. Tashqi ko‘rinishi bo‘yicha

A. Qavariq	B. Normal	V. Botiq

#### 2. Davomiyligi bo‘yicha

A. Uzluksiz	B. Uzlukli - zanjir	- shaxmatsimon

#### 3. Uzunligi bo‘yicha

A. Qisqa ( $l \leq 250\text{mm}$ )	B. O‘rtacha uzunlikdagi ( $l = 250\dots 1000\text{mm}$ )	V. Uzun ( $l \geq 1000\text{mm}$ )
------------------------------------	--	------------------------------------

#### 3. Bajarilishi bo‘yicha

A. Bir tomonli	B. Ikki tomonli

#### 4. Qatlamlar va o‘tishlar soni bo‘yicha

A. Bir qatlamli	B. Bir o‘tishli	A. Ko‘p qatlamli	B. Ko‘p o‘tishli

I - IV – qatlamlar soni  
1 - 8 – o‘tishlar soni

#### 5. Ta’sir etuvchi kuchga qarab


A. Yon tomonlama	B. Ko‘ndalang	V. Kobilatsiyalangan	G. Qiysiq

### Payvand chokining asosiy geometrik o‘lchamlari.

$s$  – payvandlanayotgan metall qalinligi

$e$  – chokning eni

$q$  – chokning kuchaytirish balandligi



(qavariqlik)

$h$  – erish chuqurligi

$t$  – chok qalinligi

$b$  – zazor, oraliq yoki tirqish

$k$  – burchak chokining kateti

$p$  – burchak chokining balandligi


$a$  – burchak chokining qalinligi

### CHOKNING TUZILISH KOEFFITSIENTI

$$K_n = e/t$$

Optimal  $K_n = 1,2 - 2$

(0,5 – 4 gacha bo‘lishi mumkin)



### CHOKNING KOEFFITSIENTI

### QAVARIQLIK

$$K_U = e/q$$


$K_U$  7 – 10 dan oshmasligi kerak



$F_a$  - erigan asosiy metallning kesim yuzasi




$F_e$  - eritilgan elektrod metallining kesim yuzasi






Chok metallida asosiy metallning miqdori koeffitsienti

$$K_a = F_a/F_a+F_e$$



### Payvand birikmalarining asosiy turlari, o‘lchamlari va konstruktiv elementlari

Birikma	Tayyorlangan qirralar shakli	Payvan d choki tusi	Ko‘ndalang kesim shakli		Pay vand lana yotg
			tayyorlangan qirralar	payvand choki	

					an detal lar qali nligi mm
Uchma-uch	Qirralari qayirilgan	Bir tomonli chok			1 – 4
	Ishlov berilmagan				1 – 6
	Ishlov berilmagan	Ikki tomonli chok			3 – 8
	V-simon yo‘nilgan	Bir tomonli chok			3 – 60
	X-simon yo‘nilgan	Ikki tomonli chok			8 – 120
	K-simon yo‘nilgan				8 – 100
	Notekis chiziq bo‘ylab ishlov berilgan				15 – 100
Burchaki	Ishlov berilmagan	Ikki tomonli chok			2 – 30
	Bir qirrasi yo‘nilgan				3 – 60
Tavrsimon	Yo‘nilmagan	Ikki tomonli chok			2 – 40
	Bir qirrani ikki tomondan yo‘nilgan				8 – 100
Usma- mat	Yo‘nilmagan	Ikki tomonli chok			2 – 60

### Nazorat savollari


1. Payvand birikma deb nimaga aytildi.
2. Payvand birikmalarining asosiy turlari, o‘lchamlari va konstruktiv elementlarini tushuntiring.
3. Payvand chokining asosiy geometrik o‘lchamlarini tushuntiring

### 3-amaliy mashg‘ulot

**Mavzu: Yoysi dastakli payvandlash rejimini payvand chokning konstruktiv o‘lchamlariga ta’sirini o‘rganish**

**Ishdan maqsad:** Yoyli dastakli payvandlash rejimini payvand chokning konstruktiv o‘lchamlariga ta’sirini o‘rganish.

### Payvandlash toki, tezligi va yoy kuchlanishining payvand chokining shakli va o‘lchamlariga ta’siri



### 4-amaliy mashg‘ulot

#### Mavzu: Payvandlash simlarini rusumlanishini o‘rganish

**Ishdan maqsad:** Payvandlash simlarini markasini, turlarini va shartli belgilarini o‘rganish.

#### Payvandlash po‘lat simi

Po‘latni payvandlash uchun 2246—70 buyicha tayyorlangan maxsus po‘lat sim ishlataladi. Standartda kam uglerodli va legirlangan po‘latdan

sov uqlayin cho‘zib tayyorlangan silliq sim keng tarqalgan, bu sim massasi 80 kg gacha kalava yoki buxta ko‘rinishida keltiriladi. Iste’molchining talabiga muvofiq kalava massasi undan ortiq va kam bo‘lishi mumkin.

Metallarni payvandlashda ishlataladigan metall elektrod simlari kimyoviy tarkibiga **ko‘ra uglerodli, legirlangan va ko‘p legirlangan** po‘lat simlarga ajratiladi va ularning diametri 0,3-12 mm gacha bo‘ladi. Payvandlash simlari 7 markada bo‘lib, ulardan 6 tasi (Cb-08, Cb-08A, Cb-08AA<sub>1</sub>, Cb-08GA, Cb-10ГА, Cb-10Г2) kam uglerodli po‘latlarni payvandlashga, 30 tasi (Cb-108ГС, Cb-12ГС, Cb-18ХГС va boshqalar) legirlangan po‘latlarni payvandlashga va 41 tasi (Cb-12 XHMФ, Cb-10 X17T, Cb-30X25H1617 va boshqalar) ko‘p legirlangan po‘latlarni payvandlashga mo‘ljallangan (ДАСТ 2246-70).

Bu simlar markalarining shartli belgilaridagi Cb harfi payvandlash simini, raqamlar uglerodning yuzdan bir ulushini Г-marganetsni, A-oltingugurt va fosforning kamligini, AA- bo‘lsa, oltingugurt va fosforning yanada kamligini bildiradi. X-xromni, C-kremniyi, M-molibdenni, Φ-vannadiyi, T-titanni va xarflardan keyingi raqamlar esa elementlarning o‘rtacha foiz miqdorini bildiradi.

Elektrod tayyorlash uchun sim o‘ramidan ma’lum o‘lchamli sim kesib olinib, sirtiga maxsus qoplama material qoplanadi. Metallarni dastaki payvandlashda ko‘proq foydalaniladigan elektrodlar diametri 2-6 mm bo‘lib, uzunligi 350 -450 mm oralig‘ida bo‘ladi. Ularni tayyorlashda elektrod tutqichga o‘rnatish uchun 30-40 mm joyi qoplamasiz qoldiriladi.

Ma’lumki, maxsus qoplamasiz elektrodlar bilan metallarni payvandlashda yoening barqaror yonmasligi, metall vanna tashqi muhitning zararli ta’siridan saqlanmasligi va boshqa sabablarga ko‘ra hosil qilingan chok sifatli bo‘lmaydi. Shu sababli metall elektrodlar maxsus hossali qoplama bilan qoplanadi. Metallarni payvandlashda elektrod sim bilan birga qoplama material ham suyuqlanib yoening barqaror yonishini, metall vannani havoning zararli ta’siridan muhofaza etishni, temirni oksidlardan qaytarish va legirlanishini ta’minlaydi. Qoplama materialining shlak va gaz ajratuvchi komponentlariga marmar, bo‘r rutil, tsellyuloza va boshqalar, yoening barqaror yonishini ta’minlovchi (elektrodlararo gazlarni ionizatsiyalanish potentsialini pasaytiruvchi) ishqorli elementlar, qaytaruvchi va legirlovchilar sifatida kukun tarzidagi ferroqotishmalar, ularni bog‘lovchi sifatida ko‘pincha suyuq shisha (natriy yoki kaliy silikati) dan foydalaniladi.

### Nazorat savollari

1. Payvandlash simlarini turlarini.
2. Payvandlash simlarini belgilanishi.


### 5-amaliy mashg‘ulot

**Mavzu: Yoysi dastaki payvandlash uchun metall qoplamali elektrodlar rusumlarini o‘rganish**

**Ishdan maqsad:** Elektrodlarni shartli belgilarini, ularning qoplamlalarini taylorlanishini va ishlatilishini o‘rganish

### Umumiy ma’lumotlar

Elektrodlarning to‘liq shartli belgisi quyidagi ma’lumotlarni tashkil etishi kerak (3.1-rasm): 1 – turi; 2 – rusumi; 3 – diametri; 4 – elektrodlarni mo‘ljallanganligi; 5 – qoplama qalinligi belgisi; 6 – elektrodlarni sifat guruhi; 7 – eritib quyiladigan metall xususiyatini ko‘rsatuvchi belgilar guruhi GOST 9467-75 bo‘yicha; 8 – qoplama turini belgisi; 9 – payvandlash ruxsat etilgan fazoviy holatni ko‘rsatuvchi belgi; 10 – ruxsat etilgan tok ko‘rinishi va qutbini ko‘rsatuvchi belgi; 11 – GOST 9466-75 ning standart belgisi; 12 – elektrod turini belgilab beruvchi.



### 3.1-rasm.Elektrodlarning shartli belgilari.

**Misol:** E46A turidagi, UONI -13/45 markali, diametri 3 mm, kam uglerodli va kam legirlangan po‘latlarga mo‘ljallangan (U), qalin qoplamlali (D), 2 - guruh sifatidagi, asosli qoplamlali (B), hamma fazoviy holatlarda payvanlashga mo‘ljallangan (1), doimiy tokning teskari qutbiga va har qanday salt yurish kuchlanishiga mo‘ljallangan elektrodning markalanishi quyidagicha bo‘ladi:

Э46А – УОНИ – 13/45 – 3,0 – УД2 ГОСТ9466–75, ГОСТ9467–75.  
E – 432(5) – Б10

### Elektrod qoplamlarining tayyorlanishi va ishlatilishi

Qoplamlarni tayyorlash uchun avval ular tarkibiga kiruvchi komponentlar olinib, maxsus qurilmalarda maydalanadi, keyin har hil ko‘zli elaklarda elanib saralanadi.

So‘ngra tegishli miqdorda zarur komponentlar suyuq shisha bilan yaxshilab qorishtirilib qoplama materiali tayyorlanadi. Keyin moy va zangdan tozalangach elektrod simni qoplama bilan qoplashda maxsus press mashinalardan foydalaniladi.

Bunda press tsilindriga ma’lum miqdorda qoplama pastasi kiritilib, sim tsilindr mundshtuki orqali o‘tkazib turiladi. Mundshtukdan chiqayotgan qoplamlali elektrodni elektrod tutqichga siqish joyi tozalab turiladi. Bunday mashinalarda minutiga 100-140 tagacha qoplamlali elektrod ishlab chiqariladi.

Elektrod qoplamasini yorilmasligi uchun avval 40-50°S temperaturada, keyin esa 150-400°S temperaturada ma’lum vaqt qizdirib pishiriladi. Bunda suyuq shisha va bo‘lak komponentlar orasida sodir bo‘ladigan himiyaviy reaksiya tufayli qoplamaning mexanikaviy hossalari ortadi.

## Elektrod qoplamlari qo'yidagi asosiy xillarga ajratiladi:

1. *Kislotali xarakterdagi qoplama (shartli belgisi A)*. Bu qoplama materialining asosi Fe, Mn, Si oksidlar ferromargonetsdan iborat bo'ladi. Bunday qoplamlari elektrodlardan metallarni barcha fazoviy choklar hosil qilib payvandlashda foydalaniladi. Bunday qoplamlari elektrodlarga ANO-2, SM-5 va boshqalar kiradi.

2. *Rutil qoplama (shartli belgisi R)*. Bu qoplama materialining asosi rutil ( $TiO_2$ ) bo'lib, qolgani  $SiO_2$ , Ca CO<sub>3</sub>, farromarganets va boshqalardir. Bunday qoplamlari elektrodlardan uglerodli va legirlangan po'latlarni payvandlashda foydalaniladi. Bu elektrodlarga ANO-3, AN-4, OZS-3 va boshqa markalari kiradi.

3. *TSellyulozali qoplama (shartli belgisi TS)*. Bu qoplamaning material asosi tsellyuloza, organik smolalar, ferroqotishmalar, tal'k va boshqa materiallardan iborat. Bu qoplamlari elektrodlardan uglerodli va ligerlangan po'latlarni payvandlashda foydalaniladi. Bu elektrodlarga VSTS-1, VSTS-2 va boshqa markalari kiradi.

4. *Asosli qoplama (shartli belgisi B)*. Bu qoplama tarkibiga marmar, kvarts, ko'mir, ferrosilitsiy, ferromargonets va boshqa materiallar kiradi.

Bu qoplamlari elektrod bilan hamma sinfdagi po'latlarni payvandlashda foydalaniladi. Bularga UONI-13/45, OZS-2 va boshqalar kiradi.

3-jadvalda misol sifatida amalda ko'p ishlataladigan asosli qoplamlari ba'zi elektrod markalari tarkibiy massasi bo'yicha % da keltirilgan.

3-jadval

Kimyoiy tarkibi	UONI 13/45	UONI-13/85
Marmor ( $CaCO_3$ )	53	54
Kaltsiy ftorit ( $CaF_2$ )	18	15
Kvarts	9	-
Ferromargonets	1	7
Ferrosilitsiy	3	10
Ferrotitan	15	9
Ferromolibden	-	5
Suyuq shisha	30	32-36

Qoplamlari elektrod diametrini D, sim diametrini «d» harflari bilan belgilab, ularni nisbat qo'rsatkichlariga ko'ra qoplamlar qalinliklari aniklanadi:

D:d > 1,20 mm bo'lsa, yupqa qoplama (shartli belgisi M)

1,20 < D:d > 1,45 - o'rtacha qalinlikdagi qoplama (shartli belgisi S)

1,42 < D:d > 1,80 - kalin qoplama (shartli belgisi D)

D:d > 1,80 maxsus qoplama (shartli belgisi G)

Qoplamlari elektrodlarning sifatiga ko'ra ular uch sinfga ajratiladi va sinf raqami ortib borgan sari sifati ham ortadi. Chokni fazoda hosil qilishga ruhsat etilgan holatga ko'ra elektrodlar to'rt guruxga

ajratiladi: birinchi guruxga elektrodlarda barcha fazoviy holatdagi, ikkinchi guruhga elektrodlarda vertikal choklarni yuqoridan pastga qarab hosil qilishdan boshqa hamma fazoviy holatdagi, uchinchi guruh elektrodlarda qo‘yi hamda vertikal tekislikdagi gorizontal va pastdan yuqoriga qarab vertikal choklar hosil qilishda, turtinchi guruh elektrodlarda quyi va qayiq holidagi quyi choklar hosil qilish uchun foydalilanadi.

DS ga ko‘ra qoplamali elektrodlar shartli ravishda quyidagicha belgilanadi:

Masalan:

342A – УОНИ – 13/45 – 5,0 – УД3

E41 2(5) – Б20

Bu yerda 342A-elektrod tipini, UONI-13/45 - markasini; 5,0 - diametrini (mm), U - uglerod qalin qoplamali ekanligini, 3 - yuqori sifatlari chokni, maxrajdagi Ye - elektrodnii; 41 - chokning cho‘zilishga vaqtli qarshiliginini ( $\text{kg/mm}^2$ ), 2 - chokning nisbiy uzayishini; 5 - chokning temperaturaga chidamliliginini; B - asosli qoplama ligini; 2 - fazoda vertikal chokni yuqoridan pastga qarab hosil qilish holatini; 0 - tok manbai o‘zgarmas tokli, teskari qutbli ulanganligini bildiradi.

Eslatma: Nisbiy o‘zayish va chokning temperaturaga chidamliliği tegishli spravochniklardan aniqlanadi. Masalan, nisbiy uzayish  $\delta=2$  bo‘lganda  $\delta \geq 22\%$  temperaturaga chidamliliği  $t_x=5$  bo‘lganda  $t_x=-40^{\circ}\text{C}$  bo‘ladi (A.M.Kitaev. Spravochnayakniga , 59 bet, Moskva, Mashinostroenie, 1985).

Uglerodli konstruktsion po‘latlarni payvandlashga mo‘ljallangan guruhga kiruvchi elektrodlar bilan metallarni payvandlashda chokning cho‘zilishga qo‘rsatgan qarshiligi ( $\sigma_e$ ) 600 gacha MPa bo‘lib, ularning markalari oxiriga (U) harfi yoziladi.

Ligerlangan konstruktsion po‘latlarni payvandlashga mo‘ljallangan guruxga kiruvchi elektrodlar markalarida oxiriga (L) harfi yoziladi. Elektrodlar bilan hosil qilingan chokning cho‘zilishga ko‘rsatgan vaqtli qarshiligi ( $\sigma_e$ ) 600 MPa dan ortiq bo‘ladi. Xuddi shunday issiqbardosh ligerlangan po‘latlarni payvandlashga mo‘ljallangan guruhga kiruvchi elektrod markalarida T, ko‘p ligerlangan po‘latlarni payvandlashga mo‘ljallangan guruhga kiruvchi elektrod markalarida V va metall qoplamar olishga mo‘ljallangan guruhga kiruvchi elektrod markalarida N harflari bo‘ladi.

SHuni ham qayd etish kerakki, chok metaliga qo‘yilgan talablarga ko‘ra, elektrodlarni tiplarga ham ajratiladi. Elektrodlar uchun chok metalining xona temperaturasida cho‘zilishga vaqtli qarshiligi ( $\sigma_e$ ), nisbiy o‘zayishi ( $\sigma$ ) va zarbiy qovushqoqligi (ks) ma’lum tartibga solinadi. Konstruktsion po‘latlarni U va L guruhga kiruvchi elektrodlar bilan payvandlashda E38, E42A, E46, .... E150 tipidagi elektrodlardan foydalilanadi.

Bu tipdagisi elektdrodlar shartli belgisidagi E harfi elektrodnii, raqamlar esa chok metalining cho‘zilishga bo‘lgan vaqtli qarshiliginini ( $\text{kg}$

$\text{k/mm}^2$ ), raqamlardan keyingi A harfi esa chok metali plastikligining yuqoriliginini bildiradi.

### Nazorat savollari

1. UONI -13/45 markali elektrod necha mm bo‘lishi kerak?
2. Elektrod qoplamasigi yorilmashligi uchun necha gradusda qizdirilii kerak?
3. Qoplama ni tayyorlash uchun avvalo qanday komponentlar olinadi?
4. Elektrod qoplama ni turlarini
5. Metallarni payvandlashda ishlataladigan metall elektrod simlari kimyoviy tarkibiga ko‘ra necha hil bo‘ladi?
6. Payvanalayotgan metall elektrodlarni diametri o‘lchamlariga ko‘ra necha mm bo‘ladi?

### 6-amaliy mashg‘ulot

**Mavzu:** Qoplamali elektrodlarni texnologik xususiyatlarini aniqlash

**Ishdan maqsad:** Qoplamali elektrodlarni texnologik xususiyatlarini aniqlash.

Производительность процессов дуговой сварки и наплавки штучными электродами определяются скоростью плавления электродного стержня, которая для покрытых электродов значительно уменьшается по сравнению с голыми или тонкопокрытыми электродами за счет того, что некоторое количество тепла дуги расходуется на плавление, испарение и разложение покрытия. Количество покрытия, нанесенного на электродный стержень, характеризуется коэффициентом массы покрытия  $k$ , который определяется как отношение массы покрытия на электроде  $G_n$  к массе металла стержня на длине обмазанной части электрода  $G_{ct}$ :

$$k = G_n / G_{ct} \quad (3.1)$$

Если известна масса 1 см электродной проволоки  $m(\text{г}/\text{см})$ , то

$$k = (G_{el} - ml_{el}) / m * l_n \quad (3.2)$$

где  $G_{el}$  и  $l_{el}$ - масса всего электрода ( $\text{г}$ ) и его длина ( $\text{см}$ );  
 $l_n$ - длина обмазанной части электрода, см.

Для предотвращения снижения технологических свойств электрода, коэффициент массы покрытия не должен быть слишком большим. Однако, количество покрытия должно быть достаточно для обеспечения надежной защиты и металургической обработки расплавленных капель электродного металла и сварочной ванны. У покрытых электродов  $k=0,3...0,5$ .

Скорость плавления электродного стержня зависит не только от коэффициента массы покрытия, но и его состава, состава и диаметра электродного стержня, силы и рода тока и др. факторов. Наиболее существенное влияние на скорость плавления электрода оказывает сила сварочного тока. Увеличение тока приводит к повышению эффективной тепловой мощности дуги и, как результат этого, возрастает интенсивность расплавления электрода.

Для сравнения скорости плавления электродов различных марок вводится понятие коэффициента расплавления. Коэффициент расплавления  $\alpha_p$  показывает сколько электродного металла  $G_p$  в г. расплывается под действием сварочного тока  $I_{cb}$  силой в 1 А за единицу времени ( $t_{cb}$ ) в 1 час.

$$\alpha_p = \frac{G_p}{I_{cb} \cdot t_{cb}}, \text{ г/А}\cdot\text{час} \quad (3.3)$$

Для увеличения количества расплавленного металла в состав покрытия некоторых электродов вводится дополнительно железный порошок (до 60 %)

В этом случае количество расплавленного металла определяется как:

$$G_p = G_{эл.ст} + G_{м.п.} \quad (3.4)$$

где  $G_{эл.ст}$  - масса расплавленной части электродного стержня, в г.;

$G_{м.п.}$  - масса расплавленного металла, содержащегося в покрытии электродов, в г.

Коэффициент расплавления наиболее распространенных электродов, предназначенных для сварки низкоуглеродистых сталей и не содержащих в покрытии дополнительный металл, лежит в пределах 7... 13 г/А·час.

Наплавляемый валик формируется за счет расплавленного электродного металла. Однако не весь расплавленный металл участвует в формирование валика шва, т.к. часть его при плавлении неизбежно и безвозвратно теряется при разбрзгивании, на испарение (угар) и окисление. Поэтому масса наплавленного металла всегда меньше массы расплавленного электродного. За исключением тех случаев, когда в покрытие входит большое количество ферросплавов или железного порошка. Количество наплавляемого металла характеризуется коэффициентом наплавки, который показывает какое количество металла  $G_m$  в г. наплавляется под действием сварочного ( $I_{cb}$ ) тока силой в 1 А за единицу времени  $t_{cb}$  в 1 час:

$$\alpha_m = \frac{G_m}{I_{cb} \cdot t_{cb}} \text{ г/А}\cdot\text{час} \quad (3.5)$$

Для обычных покрытий электродов коэффициент наплавки лежит в пределах 6...12,5 г/А час.

Количество электродного металла, потеряного на разбрзгивание, угар и окисление, определяется коэффициентом потерь  $\psi$  ;

$$\psi = (G_p - G_h) \cdot G_p \cdot 100\% \quad (3.6)$$

или

$$\psi = (\alpha_p - \alpha_h) \cdot \alpha_p \cdot 100\% \quad (3.7)$$

В зависимости от марки электрода и условий сварки величина его колеблется в пределах 5...25 %. Коэффициент потерь покрытых электродов значительно меньше по сравнению с коэффициентами потерь голых или токообмазанных электродов за счет того, что покрытые частично предотвращают разбрзгивание электродного металла. Образующийся при его плавлении дополнительное количество газа увлекает за собой в шов пары металла и мелкие капли.

Установлено, что коэффициенты  $\alpha_p$ ,  $\alpha_h$ , и  $\psi$  зависят от состава покрытия и его количества, условий я режимов сварки. Род сварочного тока не оказывает существенного влияния на величину  $\alpha_p$ ,  $\alpha_h$ , и  $\psi$ , однако с увеличением сварочного тока коэффициенты расплавления и наплавки увеличиваются. Увеличение носит не равнозначный характер, т.к. повышение тепловой мощности дуги приводит к увеличению количества образующихся газов и повышению их давления в капли, а следовательно, к повышению потерь на угар, разбрзгивание и окисление.

Коэффициент потерь возрастает и с увеличением длины дуги (повышению напряжения на дуге), что при прочих равных условиях снижает  $\alpha_h$ .

Рассмотренные показатели являются технологическими характеристиками электродов и даются в паспортных данных и каталогах. Они используются при нормировании сварочных работ, расхода электродов и при расчете режимов ручной дуговой сварки.

Например, если известны площадь наплавленного металла ( $F_h$ ) и длина шва ( $l_w$ ), то масса наплавленного металла ( $G_h$ )

$$G_h = F_h \cdot l_w \cdot \rho, \text{ г} \quad (3.8)$$

где  $\rho$  - плотность металла для большинства сталей -  $\rho = 7,8 \text{ г/см}^3$ . По паспорту выбранной марки для соответствующего диаметра электрода определяют  $\alpha_p$ ,  $\alpha_h$ , и  $\psi$  и  $k$ .

Основное время ( $T_0$ ) сварки определяют по формуле

$$T_0 = G_h / \alpha_h \cdot I_{cv}, \text{ час} \quad (3.9)$$

а массу электродов ( $G_{el}$ ), необходимых для сварки данного шва, по формуле

$$G_{el} = G_h \cdot k(1 + \psi) \cdot k, \text{ кг} \quad (3.10)$$

где  $k$  - коэффициент, учитывающий дополнительный расход электродов на огарки.

По паспортным данным коэффициента наплавки можно определить и теоретическую производительность G процесса ручной дуговой сварки и наплавки электродами конкретной марки по формуле

### 7-amaliy mashg‘ulot Mavzu: Yoyli dastaki payvandlash rejimlarini xisoblash

**Ishdan maqsad:** Payvandlash rejimi, va payvandlash jarayonida bajariladigan ishlar, uchma-uch birikmalarni payvandlash

#### **Umumiy ma'lumotlar**

##### **Yoyli dastakli payvandlash rejimlari**

